ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY

2023, №4

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

DJURAYEV R.M.
Jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazorat: nazariy va amaliy yondashuv **3**
ISLOMOV B.D.
Yangi tahrirdagi asosiy qonunimizda adolat tamoyillari ustuvor **10**
MAMAYUSUPOV S.D.
O‘zbekistonda desekulyarizatsiya jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri **14**
USMONOV M.B.
Yer muhofazasi sohasidagi jinoyatlarning jamoat xavfsizligiga ta’sirini oldini olish muammolari **18**
MUXAMMADIYEV A.A.
Tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo‘riqlash masalalari **23**
NURMATOV M.M., RIZOYEV F.F.
Huquqbuzarliklarni oldini olishning zamonaviy usullari **27**
CHINIYEV D.A.
Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – davlatimiz taraqqiyot yo‘lining asosiy maqsadi **33**
AXMEDOVA M.T., MUINOVA N.A.
O‘zbekistonda ayollar saylov huquqining tartibga solinishiga oid muhim masalalar **39**
XOLBO‘TAYEV A.A.
Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar tushunchasi **45**
ZOKIROV B.P.
Xorijiy davlatlarning jinoiy aktivlarni qaytarish bo‘yicha ijobiy tajribalari (Qozog‘iston misolida) **51**
NAZAROVA L.G.
Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish **55**
ЮСУПОВ Н.А.
Особенности стадий административно-правового регулирования производства служебной проверки в Республике Узбекистан **62**
USMONOV B.A.
Firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning protsessual tartibi **67**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

OLIMJONOV X.M.
Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish **71**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy holati **75**
XO‘JAMBERDIYEV F.K.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonunosti hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati **80**
ATAJANOV O‘.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi **88**
TOSHMUXAMMATOV A.Y.
Milliy gvardiyaning ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdagi faoliyatini samarali tashkil etish istiqbollari **96**
QODIROV T.T.
Uchuvchisiz uchish apparatlarini jamoat xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyati (terrorizmga qarshi kurash misolida) **103**
SADULLAYEV T.Sh.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlarni takomillashtirish **109**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR

III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

ANARKULOV A.D., XAYDAROV N.S., DAVRONOV O.O.
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari (xodimlari)ning pul ta'minotini hisoblash va to'lash tartibini zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish **114**
BUZRUKOV U.S.
Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar harbiy xizmatchilarni tayyorlashda maxsus taktik tayyorgarlikning roli.. **118**
DUSCHANOV Sh.Sh., SHOMUROTOV Z.Z.
Tog'-balandlik tayyorgarligida zamonaviy trenajyor ("Skalodrom" universal majmuasi)ning roli..... **122**
GIYASOV D.F., KUVONDIKOV Z.K.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning pedagogik shart-sharoitlari..... **126**
BERDIYEVA U.U.
O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish..... **133**

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

NURMATOV M.M., ELOV A.A.
Iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri..... **142**
YUSUPOVA D.D.
Islom siyosiylashuvining tarixiy xususiyatlari **148**
RAVSHANOV S.G'., BOBOQULOV Z.R.
Turk madaniy diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari **152**
MUINOVA N.A.
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va gender tengligini ta'minlashga oid masalalar..... **158**
QO'YSINOVA F.O.
Ekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or amaliyotlar: O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi..... **163**
TOLIPOV A.A.
Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni..... **170**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari..... **176**
CHINIBAYEV J.I.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilishning muhim omili (jismoniy tarbiya va sport misolida)..... **181**

V. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI
V. EDUCATION, EDUCATIONAL PROCESS

SHIRINOVA N.D.
Ingliz tili darslarida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining bilish faolligini oshirish muammolari..... **189**
TOSHEV A.A.
Ikkinchi jahon urushidan so'ng xorijiy davlatlar armiyalarining shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borishi va janglardan orttirilgan tajribalari..... **193**

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
VI. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

АЛИМОВА Г.А.
Теоретические аспекты оценки военно-рекреационной аттрактивности территорий..... **197**

VII. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VII. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

XOLIQOV Sh.A.
Onlayn ijtimoiy tarmoqlardan botlarni aniqlash (mashinali o'rganish usullaridan foydalanish misolida)..... **204**
FAYZIBAYEV Sh.S., RAXMIDDINOV I.O., ShOISAYEV A.A.
Maxsus o'ziyurar harakat tarkibining elektr jihozlarining texnik holatini hisobga olgan holda oraliq ta'mirlash davrlarini optimallashtirish modellari **210**
IMINOV A.A., KAMOLOV A.A.
Favqulodda vaziyatlarda harakatlanuvchi uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish istiqbollari..... **216**

VIII. XORIJIY TAJRIBA
VIII. FOREIGN EXPERIENCE

НАМЫСОВ Е.Д.
Освещение отдельных аспектов интернет-мошенничества по уголовному законодательству Республики Казахстан..... **221**
РАШИДОВА К.И.
Понятие рабства и его современных форм в международном праве..... **226**
ДЕВЯТКИН А.В.
Организационные основы системы подготовки квалифицированных кадров Вооруженных сил Китая на современном этапе..... **233**

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATINI HUQUQIY TA’MINLASHDA QONUNOSTI HUJJATLARI NORMALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Har qanday davlatda xavfsizlik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonun hujjatlari holati va takomillashtirilishiga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarini bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, “qonun – zamonaviy jamiyat huquqiy hayotining asosiy fenomeni va o‘zak yuridik tushunchasidir. O‘zida tizimlashgan ijtimoiy manfaatlarni ifodalagan holda qonun ijtimoiy munosabatlarning bosh tartibga soluvchisi, shaxs huquq va erkinliklarining kafili sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun mazmunida va uni hayotga tatbiq etishda huquqiy mafkura namoyon bo‘ladi hamda huquqiy siyosat amalga oshiriladi”[1].

Shuni ta’kidlash joizki, mamlakat va uning ma’muriy-hududiy birliklarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, birinchi navbatda, huquqbuzarliklarning, jumladan, jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi[2]da “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish” ikkinchi yo‘nalishi doirasida huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini yaratish vazifasi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash ham huquqiy demokratik davlat qurishning eng muhim mezoni hisoblanadi. Shu bilan birga, Taraqqiyot strategiyasi[2] asosida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bugungi kunda Konstitutsiyada norma sifatida mustahkamlangan davlat organlarining “xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilish” majburiyatining amalda amalga oshirish hozirgi kunda o‘ta muhim va dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklari institutlarining elementlari bir qator qonunchilik hujjatlarida, masalan, 1689-yilda Angliyada qabul qilingan “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill” [3], 1789-1791-yillarda Amerikada ishlab chiqib qabul qilingan “Huquqlar to‘g‘risidagi Bill”[4], 1789-yilda Fransiyada qabul qilingan “Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi deklaratsiya”[5]si kabi tarixiy hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga ko‘ra, “Qonun ustuvorligi barcha davlatlarga nisbatan xalqaro huquq me’yorlari va adolat tamoyillarining teng qo‘llanilishini va ularga teng rioya etilishini ta’minlaydi. Qonun ustuvorligi tamoyiliga rioya qilish Ustav maqsadlariga erishish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga yordam beradi” [6].

Jamiyatda hayot kechirish mobaynida davlat muqarrar ravishda o‘zi tomonidan kafolatlangan inson va fuqaro huquq va erkinliklariga zarar yetkazilgan holatlarda, ushbu zararlarni samarali qoplanishi talab qiladigan holatlarga duch kelmoqda.

Zero, Jamoat xavfsizligining mazmunini, xususiyatlari va belgilarini to‘g‘ri anglash ko‘pgina ijtimoiy masalalarni hal qilish, xususan, jinoyat qonunlarini va huquqiy normalarning boshqa sohalarini

takomillashtirish, qonunchilikni ta'minlash, jamoat xavfsizligini buzilishiga qarshi davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning kurashini kuchaytirish hamda tergov va sud amaliyotini sifatini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, jamoat xavfsizligining quyidagi belgilari alohida ajralib turadi:

birinchidan, jamoat xavfsizligi yaxlit qilib olingan jamoatchilik tinchligi, aholi hayoti va salomatligi daxlsizligi, fuqarolarning normal ishlashi va dam olishini, davlat va jamoat tashkilotlari, muassasalari va korxonalarining normal ishlashini ta'minlash maqsadida huquqiy normalar va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi tizimidir[7];

ikkinchidan, jamoat xavfsizligi shaxs tomonidan jamiyatda yurish-turishning barcha tartibga solingan va yozilmagan qoidalariga rioya qilishi, shuningdek davlat va fuqarolarning o'zaro bir makonda faoliyat yuritishi va yashashining asosiy sharti bo'lgan qoidalarning majmuidan iboratdir[8];

uchinchidan, jamoat xavfsizligi tabiiy ofatlar va boshqa alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun xavf tug'dirayotgan obyektlardan foydalangan holda huquqiy normalarga muvofiq shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimidir[9];

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligi jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida juda muhim nazariy va amaliy muammo bo'lib, uning yechimi jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilash bilan bevosita bog'liqdir[10];

beshinchidan, jamoat xavfsizligi - bu odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug'diradigan obyektlar va narsalardan foydalanishda huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir[11].

Jamoat xavfsizligi inson huquq va erkinliklari, jamiyatning ma'naviy va moddiy boyliklari, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, jamoat xavfsizligining metodologik asoslarini o'rganishda, jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatining vujudga kelishi, rivojlanish va barqarorlashuvining umumiy qonuniyatlarini ochish, uning huquqiy asoslari va vositalarining ilmiy tizimini tahlil etish maqsadga muvofiq.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchilik tahlili harbiy huquqda integratsiyalashgan va differensiat-siyalashgan huquq normalari bilan tartibga solinadigan jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid munosabatlar tizimi shakllanganligidan dalolat beradi.

Qonunlar eng muhim va barqaror ("Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi), prinsipial, asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga solsa-da, huquqiy tartibga solinishi lozim bo'lgan munosabatlar doirasi faqatgina yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi. Insonlar hayotiga huquqiy ta'sir ko'rsatish jarayonida qonun normalarini rivojlantirish va aniqlashtirish zaruriyati tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida qonunlarda mustahkamlangan ko'rsatmalar va bevosita insonlar xulq-atvori o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'taydi[12].

Qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan chiqariladigan normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib, qonunlarga nisbatan ikkilamchi yuridik kuchga ega. Qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qonunlardan kelib chiqishi, qonunlarga asoslanishi, qonunga zid bo'lmasligi, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinishi, oddiy tartibda qabul qilinishi, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi[13].

S.A.Bogolyubov bu borada qonun ko'rsatmalari so'zsiz va majburiy ijro etilishini ta'minlashga yo'naltirilgan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi[14].

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga oid qonun hujjatlari tarkibining navbatdagi pog'onasida qonunosti normativ-

huquqiy hujjatlar-maydonga chiqadi. Ushbu darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarni shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjatlari;

2) Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

3) vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari;

4) mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari.

Qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga oid qonun hujjatlari tizimida tutgan o'rni yuksak ahamiyatga molik: birinchidan, ularda aksariyat qonunlarda ko'zda tutilgan qoidalar yanada aniqlashtiriladi; ikkinchidan, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar qonun bilan tartibga solinmagan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga oid munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar o'z yo'nalishiga ko'ra qonunlarning alohida qoidalarini amalga oshirishga, rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, qoida tariqasida tor va aniq yo'naltirilgan mazmunga ega bo'ladi[15].

D.V.Chuxvichevning fikriga ko'ra, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar tizimida Prezident farmonlari yuridik kuchi bo'yicha birlamchi ahamiyat kasb etadi. Prezident farmonlari faqatgina qonunlarga mos bo'lishi lozim, boshqa qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar Prezident farmonlariga mos bo'lishi zarur. Prezident farmonlari qonunlarni amalga oshirish bilan bog'liq eng muhim masalalarni tartibga soladi. Shu bilan bir qatorda, Prezident farmonlari tegishli qonunlar bo'lmagan hollarda huquqiy tartibga solinishi talab qilingan masalalar yuzasidan huquqdagi bo'shliqlarni to'ldirib turish maqsadida ham qabul qilinishi mumkin[13].

Umuman olganda, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasiga oid farmon va qarorlarni tahlil qilish asosida farmonlar asosan jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish[16], jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish[17], huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish[18] kabi masalalar yuzasidan qabul qilingan.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish vazifalari belgilab olinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni[2] asosida Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini yaratish, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish hamda jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

Shuningdek, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish masalasi ham ko'p hollarda Prezident farmoni darajasida hal etilgan. Masalan, jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligi oshirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish[19], jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish[20], O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish[21] masalalari bo'yicha Prezident farmonlari imzolangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi[21]da Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati bilan bog'liq quyidagi vazifalari belgilangan:

jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi

ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi;

o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi;

vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi;

terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etadi;

davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlaydi;

qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi;

jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi.

Ta’kidlash lozimki, huquq nazariyasida va huquqni qo‘llash amaliyotida Prezident farmonlari va qarorlari o‘rtasidagi munosabat va nisbat to‘g‘risida turli xil qarash va yondashuvlar shakllangan bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi Prezident qarorlarini tahlili ularning quyidagi yo‘nalishlarda qabul qilinayotganligini ko‘rsatmoqda:

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar[17], jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish[22], shuningdek, transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etish[23] bilan bog‘liq ko‘plab qarorlar qabul qilingan;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlashga oid professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga[24] oid qarorlar qabul qilingan;

uchinchidan, xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini samaradorligini yanada oshirish maqsadida imzolangan o‘zaro anglashuv memorandumlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida xorijiy davlatlar harbiy kadrlarini tayyorlash va o‘qitish tizimini takomillashtirish[25]ga oid qarorlar qabul qilingan.

Qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar tizimida navbatdagi pog‘onani jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonun hujjatlari tizimida eng ko‘pchilikni tashkil etadigan Vazirlar Mahkamasi qarorlari egallaydi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida yo‘l harakati xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashni boshqarishning kompyuterlashtirilgan tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish[26], ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish[27], O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish[28], Toshkent shahrining Chilonzor tumanida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish[29], Tungi vaqtda faoliyat yurituvchi umumiy ovqatlanish korxonalari va ko‘ngilochar obyektlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash[30], mahallalarda jamoat tartibini saqlash[31], yirik shaharlarda, viloyatlar va tumanlar markazlarida tunu kun faoliyat yurituvchi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashgan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash[32] to‘g‘risidagi qarorlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga nomzodlarni saralab olish va o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom[33] tasdiqlangan.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu sohada bir qator muammolarni kuzatish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”

2020-yil 26-avgustdagi 515-son qarorining 1-bandi to‘rtinchi xatboshida **“Mahalliy davlat hokimiyati organlarining** FVDT hududiy quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin” deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillik va mahalliy ijroiya hokimiyatiga bo‘linadi. Viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining **vakillik organi** hisoblanib, ular zimmasiga mahalliy ijroiya hokimiyati organining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari yuklanishi qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqni keltirib chiqaradi.

Fikrimizcha, Qonun normalari to‘g‘ri talqin etilishini ta’minlash maqsadida Qarorning 1-bandi to‘rtinchi xatboshidagi **“mahalliy davlat hokimiyati organlarining”** so‘zlari **“mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining”** so‘zlari bilan almashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 515-son qarori [34] ning 2-ilovasiga muvofiq “Vazirliklar va idoralar hamda boshqa tashkilotlarning Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi funksional quyi tizimida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari” tasdiqlangan bo‘lib, ushbu ilovada ikkinchi bo‘lib Milliy gvardiyaning tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarda jamoat tartibiga va fuqarolar xavfsizligiga rioya etilishini ta’minlash, qonunchilikka qarshi harakatlar bilan kurashish, huquq-tartibotni ta’minlash, qo‘riqlash xizmatini tashkil etish va faoliyatiga rahbarlik qilish kabi funksiyalar yoritilgan.

Biroq ushbu funksiyalar qatorida mamlakatning butun hududida yoki ayrim joylarida tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lishi natijasida favqulodda holat e’lon qilingan taqdirda Milliy gvardiya amalga oshirishi lozim bo‘lgan funksiyalar o‘z aksini topmagan.

Fikrimizcha, Milliy gvardiya amalga oshirishi lozim bo‘lgan funksiyalar qatoriga “favqulodda holat rejimini hamda tabiiy va texnogen tavsifdagi favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etish davomida o‘ta muhim va toifalangan obyektlar qo‘riqlovini kuchaytirishni ta’minlash” tahriridagi funksiyani qo‘shish maqsadga muvofiq.

Milliy va xorijiy tajribadan kelib chiqib, mamlakatimizda ham bir qator munosabatlarni qonunosti emas, balki qonunlar bilan tartibga solish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosaga kelishimiz mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, faoliyatining asosiy prinsiplari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xizmatchilarining huquq va majburiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim masalalar bevosita jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi munosabatlarni qonun orqali tartibga solinsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shu asoslarda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalarini tartibga solib, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini va jamoat xavfsizligini ta’minlash organlarini faoliyatini tashkil etish tartibi va faoliyatining asoslarini belgilaydi. Qonunda jamoat xavfsizligi tushunchasi va xavfsizlik obyektlari, subyektlari, prinsiplari o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Имамов А.Э. Механизм реализации закона в Республике Узбекистан: вопросы теории и практики: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: Академия МВД, 2004. – С.9.

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» от 28.01.2022 г. № УП-60 // lex.uz.

3. Русский орфографический словарь: около 180 000 слов [Электронная версия] / О. Е. Иванова, В. В. Лопатин (отв. ред.), И. В. Нечаева, Л. К. Чельцова. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В. Виноградова, 2004. — 960 с. — ISBN 5-88744-052-X.

4. Билль о правах // Русский орфографический словарь: около 180 000 слов [Электронная версия] / О. Е. Иванова, В. В. Лопатин (отв. ред.), И. В. Нечаева, Л. К. Чельцова. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В. Виноградова, 2004. — 960 с. — ISBN 5-88744-052-X.

5. Декларация прав человека и гражданина 1789 года, 26 августа [электронный ресурс]. - Режим доступа: http://www.hrono.ru/dokum/1700dok. Дата обращения: 12.09.2022.

6. Миразов Д.М., Ахмедова С.Т. Общественная безопасность и верховенство права: реформы, проблемы и решения. Специальный выпуск Вестника Военно-технического института Национальной гвардии Республики Узбекистан.- Т. 2020. – С. 23-26.

7. Юридическая энциклопедия. - Ташкент, - 2001. - 418 с.

8. Peters I. Lehrbuch der Verwaltungsreht. – Frankfurt a/M., 1999. – С.377

9. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с

10. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8.

11. Административное право / под ред. Л. Л. Попова. М.: Юристъ, 2002. 699 с.

12. Сафаров Дж.И., Экология соҳасида қонун ҳужжатлари тизими ва уларни кодификациялаш // Юридик фанлар доктори диссертация иши. – Т., - ТДЮУ, - 2017. – Б. 264.

13. Чухвичев Д.В. Законодательная техника. 2-е изд. – М.: Закон и право, Юнити, 2012. – С.74-77.

14. Боголюбов С.А. Концепция развития экологического законодательства // Черные дыры в российском законодательстве. – Москва, 2003. – №2.

15. Рудчик А.А., Гринь Е.А. Источники экологического права: сложности применения на практике // Право: современные тенденции: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Краснодар, февраль 2016 г.). – Краснодар: Новация, 2016. – С. 114-117.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyundagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3786-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 01.09.2022-yil)

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4075-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 01.09.2022-yil)

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-fevraldagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4166-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 01.09.2022-yil)

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-maydagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligi oshirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” PF-5732-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6196-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5050-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4229-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-apreldagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5077-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida xorijiy davlatlar harbiy kadrlarini tayyorlash va o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-352-son Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 02.09.2022-yil)

26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-sentabrdagi ““Toshkent shahrida yo‘l harakati xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashni boshqarishning kompyuterlashtirilgan tizimini yaratish” investitsiya loyihasini amalga oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 219-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 205-son qarori // lex.uz.(murojaat sanasi 10.07.22 y.)

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlashga ko‘maklashish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 838-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “Toshkent shahrining Chilonzor tumanida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 486-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi “Tungi vaqtda faoliyat yurituvchi umumiy ovqatlanish korxonalari va ko‘ngilochar obyektlarda jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 624-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-sentabrdagi “Mahallalarda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 588-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-sentabrdagi “Yirik shaharlarda, viloyatlar va tumanlar markazlarida tunu kun faoliyat yurituvchi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari joylashgan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 587-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga nomzodlarni saralab olish va o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 500-sonli Qarori // lex uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

34. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 515-son qarori // lex.uz. (murojaat sanasi 03.09.2022-yil)

Xo‘jamberdiyev F.K. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonunosti hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining O‘zbekistonda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ushbu munosabatlarni tartibga solishda qabul qilingan qonunosti hujjatlari normalarining o‘rni o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, terrorizm, favqulodda holat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, normative-huquqiy hujjat va boshqalar.

Хужамбердиев Ф.К. Роль и значения норм законодательных актов в правовом обеспечении общественной безопасности деятельности национальной гвардии Республики Узбекистан

В данной статье отражены реформы, проводимые в сфере обеспечения общественного порядка и общественной безопасности в Узбекистане Национальной гвардией Республики Узбекистан, защиты прав и свобод граждан, недопущения нарушения их законных интересов, а также раскрыты значения норм законодательных актов, принятых для регулирования этих отношений.

Ключевые слова: общественный порядок, общественная безопасность, терроризм, чрезвычайное положение, профилактика правонарушений, нормативно-правовые акты и другие.

Khujamberdiev F.K. The role and significance of norms of legislative acts in the legal support of public security of the activities of the national guard of the Republic of Uzbekistan

This article reflects the reforms carried out in the field of ensuring public order and public security in Uzbekistan by the National Guard of the Republic of Uzbekistan, protecting the rights and freedoms of citizens, preventing the violation of their legitimate interests, and also reveals the meaning of the norms of legislative acts adopted to regulate these relations.

Key words: public order, public safety, terrorism, state of emergency, prevention of offenses, regulations and etc.

Atajanov O'tkir Mamatsalayevich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi katta o'qituvchisi

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLUVCHI NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR TASNIFI

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar- qonunlar, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari, idoraviy normativ hujjatlardan iborat bo'lib, ular yuridik kuchi, huquq manbalari iyerarxiyasidagi o'rni, boshqarish imkoniyatlari darajasi va ahamiyatliligiga qarab muayyan darajada farqlanishini ko'ramiz. Shu sababli ham normativ-huquqiy hujjatlar tizimida muayyan normativ huquqiy hujjatning o'rnini belgilashda, ularning o'ziga xos belgilarini inobatga olgan holda guruhlarga ajratish yoki tasniflash maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda tasnif so'zining kelib chiqishi va uning huquqiy makondagi ahamiyati nimalardan iboratligiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, tasnif- (arabcha تصنيف saralash, tartibga solish; lotincha klassifikatsiya classis-daraja, facere-qilmoq) ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o'zaro bir xil tushunchalar sistemasi[1] ma'nosini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tasniflash masalasi nafaqat huquq nazariyasi va amaliyotida, balki ko'pgina fan sohalarida keng qo'llaniladi. Tasniflashning ahamiyati shundan iboratki, bunda har bir fanga xos muhim mantiqiy amallar vositasida, shu fan doirasida to'plangan bilimlar qat'iy tartibga solinadi, jumladan huquq tizimini o'rganishda, uni tasniflash qulaylik tug'diradi, chunki bunda bir necha sohalardagi munosabatlarni tartibga solish doirasiga qarab, huquq tizimi- fuqarolik, jinoyat, ma'muriy, konstitutsiyaviy, mehnat va hokazo tizimlarga ajratiladi.

Shu boisdan olimlar o'rtasida normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuni va ahamiyatiga qarab tasniflash yuzasidan turlicha qarashlar mavjud. Huquqshunos olimlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni: ***birinchidan,*** yuridik kuchiga[2]; ***ikkinchidan,*** yuridik xususiyatlariga[3]; ***uchinchidan,*** vujudga kelishiga[4]; ***to'rtinchidan,*** faoliyat yo'nalishiga[5] qarab tasniflash masalalari o'rganilgan.

Jumladan, olim N.D. Nechevina amaldagi qonun hujjatlarining umumiy hajmidan uchastka politsiya inspektorlariga taalluqlilarini quyidagicha tasniflashni taklif qilgan:

a) uchastka politsiya inspektorlarining asosiy masalalari, funksional o'ziga xosligi va vakolatlarini belgilovchi qonun hujjatlari;

b) funksional majburiyatlarini bajarishning tartibi, taktikasi va usullarini belgilovchi qonun hujjatlari[6].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, huquqni muhofaza qilish, xususan ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalarini tadqiq etish barcha davrlarda, ayniqsa, qonun ustuvorligini, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash muammolarini hal etish jamiyatning asosiy ehtiyoji va talabiga aylangan bugungi kunda huquqshunoslar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda[7].

Tadqiqot ishlari davomida xorij olimlari bilan bir qatorda, mamlakatimiz olimlarining jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslarini tasniflash masalasiga ilmiy yondashuvlaridan dotsent B.A.Matlyubov va professor M.Z.Ziyodullayevlarning fikrlari ahamiyatga molik. Yuridik adabiyotlarda dotsent B.A.Matlyubov, profilaktika inspektorlarining faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni yuridik kuchi va ularni qabul qiluvchi subyektlarni inobatga olgan holda tasniflashni taklif qilinganini ko'rish mumkin[2]. Bizning fikrimizcha "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunda belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarning tasniflanishiga[8] asoslanib, dotsent B.A.Matlyubov tomonidan taklif qilingan tasniflashga yanada kengroq doirada yondashgan holda, jamoat xavfsizligini

ta'minlashda profilaktika inspektorning huquqiy asoslarining tasnifiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari ham kiritish tavsiya qilinadi, bunday qarorlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 14.09.2019 yildagi 2736-III-son "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qo'shma qarorini kiritish mumkin[9]. Ushbu qo'shma qarorga ko'ra ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari:

birinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda fuqarolar o'rtasida to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj o'tkazishga, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini aholi ongiga singdirishga;

ikkinchidan, to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarning shuhratparastlik va dabdaba bilan o'tkazilishining oldini olishga qaratilgan aniq va maqsadli profilaktik tadbirlarni tashkil etishga;

uchinchidan, bunday tadbirlar davomida jamoat tartibini ta'minlashlari lozim.

Shuningdek so'ngi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlarning hamkorlikdagi faoliyati ko'proq ijobiy natija berayotganligini inobatga olib, vazirliklarning qo'shma normativ-huquqiy hujjatlarini alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 30 martdagi "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risidagi qo'shma qarorini keltirish mumkin. Mazkur qo'shma qarorga ko'ra profilaktika inspektorlari:

birinchidan, ijtimoiy profilaktika obyekti bo'lgan shaxslar toifalari haqida olingan ma'lumotlarni tahlil qilishi;

ikkinchidan, ma'lumotlar asosida belgilangan shakldagi asoslantirilgan xulosani kamida ikki nusxada tuzishi;

uchinchidan, xulosa asosida mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi yakka tartibdagi ijtimoiy moslashtirish dasturini shakllantirishi;

to'rtinchidan, profilaktika inspektorining funksional majburiyatlari aniq belgilab berildi[10].

Mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan professor M.Z.Ziyodullayev ichki ishlar organlari tizimida boshqaruv qarorlarini quyidagicha tasniflashni taklif qilgan;

1) maqsadga erishishdagi roliga ko'ra – strategik va taktik;

2) bajarish majburiyligiga ko'ra–direktiv, tavsiyaviy, yo'naltiruvchi;

3) amal qilish muddatiga ko'ra – uzoq, o'rta va qisqa muddatli;

4) funksional vazifasiga ko'ra – tashkiliy, muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi, amalga kirituvchi va nazorat qiluvchi.

Ichki ishlar organlari tizimida boshqaruv qarorlarni nomlanishiga ko'ra: buyruq, yo'riqnoma, nizom, farmoyish, qaror, qo'shma qaror va boshqacha bo'lishi mumkin[11].

Professor M.Z.Ziyodullayevning fikrlariga qo'shilgan holda, ichki ishlar organlari tizimidagi boshqaruv qarorlarni nomlanishiga ko'ra konsepsiyalar, strategiyalar, yo'l xaritalarini ham sanab o'tish joiz. Sababi, so'ngi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarni tahlil qilganimizda, jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektori faoliyati, maqsad va vazifalari konsepsiyalar, strategiyalar, yo'l xaritalarida belgilanib, amalga oshirilmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlari faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlarini himoya qilish va kafolatini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Olib borilgan tadqiqot ishlari davomida Respublikamizda inson huquqlarini himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotgani qayd qilindi:

birinchidan, jamiyatda inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini har qanday ko'rinishda buzilishi, poymol

qilinishi, kamsitilishining oldini olish, bartaraf etish, shuningdek buzilgan taqdirda uni tiklashning huquqiy asoslari va mexanizmlari yaratish;

ikkinchidan, inson huquqlarning har qanday ko'rinishda buzilishi, poymol qilinishi, kamsitilishining oldini olish, bartaraf etish, buzilgan taqdirda uni tiklash uchun vakolatli davlat organlari faoliyati yo'lga qo'yish;

uchinchidan, jamiyatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga qarshi qaratilgan har qanday ko'rinishdagi ijtimoiy, tabiiy, texnogen va boshqa tahdid hamda tajovuzlardan himoya qilish tizimini takomillashtirib borish;

to'rtinchidan, davlatning barcha organlari va ularning mansabdor shaxslarining jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi hamda o'z faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, ularga rioya etish prinsiplari asosida olib borish.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlari faoliyati huquqiy asoslarining iyerarxiyasida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz alohida o'rin tutadi, chunki profilaktika inspektorlari faoliyati avvalambor, inson huquqlarini himoya qilish va kafolatlarini ta'minlashga qaratiladi, uning huquqiy asoslari esa asosiy qomusimiz bo'lgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlangan. E'tibor qaratadigan bo'lsak, 1992 yildan buyon, yangi tahrirda Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga qadar, Konstitutsiyamizga 16 marta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Binobarin Konstitutsiya o'zgarmas, qotib qolgan hujjat emas, aksincha, jamiyat va davlatda turli ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan, insonlarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ham konstitutsiya zamon bilan hamnafas tarzda takomillashib boraveradi. E'tiborlisi, oxirgi 30 yil ichida 100 ga yaqin davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, 57 ta davlat o'zining yangi konstitutsiyalarini qabul qilgan.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini yangi tahrirda qabul qilish, uni zamon talablarga moslash zarurati yuzaga keldi, buni:

birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda moddalar ilgarigi 128 tadan 155 taga, normalar 275 tadan 434 taga oshganligi;

ikkinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 65% matni xalqimiz takliflari asosida yangilanganligida ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot ishlari davomida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni oldingi Konstitutsiya bilan miqdoriy jihatdan taqqoslama tahlil qilganimizda asosiy normalar soni 267 tadan 405 taga yoki oldingi Konstitutsiyadan 54% ga ko'proqni:

birinchidan, shaxsiy huquq va erkinliklar bobi 13 tadan 37 taga;

ikkinchidan, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobi 13 tadan 38 taga;

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari bobi 4 tadan 14 taga;

to'rtinchidan, jamiyatning iqtisodiy negizlari bobi 4 tadan 10 taga;

beshinchidan, oilaga bag'ishlangan bobi 7 tadan 12 taga oshganligi tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishlari davomida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ishlatilgan so'zlarni **lingvistik-kontent** tahlil qilganimizda: (qavs ichida eski Konstitutsiyadagi miqdor ko'rsatilgan)

birinchidan, inson so'zi 35 marotaba(9);

ikkinchidan, "davlat" 43 (15);

uchinchidan, "xalq"70 (43);

to'rtinchidan, "yoshlar"6 (1);

beshinchidan, "davlat shart-sharoit yaratadi" jumlasi 10 (ilgarigisida bunday jumla ishlatilmagan);

oltinchidan, "ayol, xotin-qizlar" so'zlari 3 (1);

yettinchidan, "qayg'uradi" 6 (2) ishlatilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda miqdori oshgan normalar va ishlatilgan so'zlarni mazmun mohiyatidan kelib chiqib, ularga profilaktika inspektorining faoliyati davomida yanada e'tiborli bo'lishi kerakligini anglaymiz.

Agar, jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan huquqiy

asoslarini kengroq tadqiq qiladigan bo‘lsak, quyidagi manzara namoyon bo‘ladi:

birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning tegishli normalarida, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining konseptual asoslari belgilangan. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning:

a) 1-moddasidagi “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” jumlalarida profilaktika inspektorlarining mahallada aholiga huquqiy yordamni doimiy ravishda ko‘rsatayotganligida;

b) 2-moddasidagi “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” jumlalarida profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida amalga oshirgan ishlari yuzasidan mahalla aholisiga hisobdorligi;

d) 14-moddasidagi Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” jumlalarida profilaktika inspektorlarining ish faoliyatini ham mazkur prinsiplarga asoslanib olib borishida;

ikkinchidan, Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limida belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga oid normalar, xususan;

a) 33-moddadagi “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi” jumlalarida huquqbuzarliklar va ularning profilaktikasiga oid holatlar yuzasidan o‘z munosabatlarini bildirish va huquqbuzarliklarga oid axborot erkinligini ta’minlashga xizmat qilishi;

b) 34-moddadagi “Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o‘z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta’minlashi shartligi” belgilangan norma, davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlashda huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati fuqarolar va keng jamoatchilik uchun ochiq bo‘lishining huquqiy asosidir;

d) 40-moddadagi “Har kim bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart”ligi belgilangan. Bunda ushbu huquq ikki shaklda, ya’ni huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish hamda huquqbuzarliklardan jabrlanganda shikoyat qilish tarzida amalga oshirilishi jamoat xavfsizligini ta’minlashda fuqarolarning ishtirokiga oid imkoniyatlar davlatning tegishli funksiyalari orqali himoya ta’minlanadi va kafolatlanadi;

uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi belgilandi. Xususan, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, parlament, prezident, hukumat, sudlar, prokuratura hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalliy davlat hokimiyati organlariga oid normalar belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy maqomi takomillashtirildi. Konstitutsiyaning 69-moddasida fuqarolik jamiyati institutlarining aniq huquqiy maqomi, ularning turlari (mahallalar, siyosiy partiyalar, harakatlar, ommaviy axborot

vositalari, kasaba uyushmalari, jamoat fondlari va shaxslarning boshqa jamoat birlashmalari), maqsadi (fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilishga, ijtimoiy hamda madaniy maqsadlarga erishish uchun ko'maklashishga, jamiyatning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qanoatlantirish)ning belgilanishi huquqbuzarliklar profilaktikasida keng jamoatchilikning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, fuqarolarning faol pozitsiyasini shakllantirish, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Huquqshunos olim M.Z.Ziyodullayev Konstitutsiyaning bevosita tayanch punktlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarini uch guruhga:

a) fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi;

b) tayanch punktlarining muayyan vazifalarni amalga oshirishini taqozo etuvchi;

d) faoliyatni tashkil etishda muayyan talablarga rioya etish va majburiyatlarni bajarishni talab qiluvchi normalarga ajratgan[12].

O'tkazilgan tadqiqot ishlari davomida ushbu olimning fikrlariga qo'shilgan holda, uning yuqoridagi tasniflari eski Konstitutsiyaga asoslanganligi e'tiborga olish lozim. Binobarin, Respublikamizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023 yil 1 may kunidan kuchga kirganligini va yangi normalar bilan to'ldirilganligini inobatga olib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda bevosita ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarini olti guruhga tasniflash taklif qilinadi, ya'ni:

birinchidan, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlovchi (5-10 boblar, 19-58 moddalar);

ikkinchidan, inson va fuqaroning burchlari va majburiyatlarini belgilovchi (11-bob, 59-64 moddalar);

uchinchidan, jamiyatning iqtisodiy negizlarini himoya qilishga qaratilgan (26-bob, 147-151 moddalar);

to'rtinchidan, mahalla huquq tartibot maskanlari va tayanch punktlari faoliyatini amalga oshirishini taqozo etuvchi (11-bob, 120-127 moddalar);

beshinchidan, profilaktika inspektorining ekotizimni saqlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga (9-bob, 49-modda);

oltinchidan, tarixiy va madaniy boyliklarni asrashga doir normalarga ajratish mumkin (11-bob, 61-modda).

Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarini jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi faoliyatining huquqiy asoslarini kengroq tadqiq etib o'rganish uchun, ularni yuridik kuchiga qarab tasniflaganda, eng quyida turgan mahalliy davlat hokimiyati organlarning qarorlari va farmoyishlari ham o'z o'rniga ega ekanligini alohida qayd qilish lozim, chunki ichki ishlar organlari rahbarlari har chorakda va mahalla huquq tartibot maskanlariga rahbarlik qiluvchi profilaktika katta inspektorlari esa har olti oyda mahalliy kengashlarga hisobot berishlari lozimligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son qarorida belgilandi.

Ma'lumki 2021 yil 1 iyuldan boshlab barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro'yxatga olish va e'lon qilish:

birinchidan, «E-qaror» elektron tizimi orqali amalga oshirilishi;

ikkinchidan, «E-qaror» elektron tizimini chetlab o'tgan holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarorlari va farmoyishlarini qabul qilish (chiqarish)ga yo'l qo'yilmasligi;

uchinchidan, «E-qaror» elektron tizimini chetlab o'tgan holda qabul qilingan hujjatlar yuridik kuchga ega emasligi hamda u qabul qilingan paytdan e'tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasligi belgilangan edi[13]. Bunda shuni esda tutish joizki mahalliy kengash qarorlari, normativ xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar toifasiga kiritilganligi[8] sababli qabul qilingan joyi, ya'ni tuman, shahar, viloyat hududida, barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Ushbu tizimga

joylashtirilgan jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlariga taalluqli normativ hujjatlarni qiyosiy huquqiy tahlil qilish jarayonida, profilaktika inspektorlarining faoliyati uchun huquqiy asos sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan, bir qator qarorlar mavjudligi, biroq Mahalla huquq tartibot maskanlariga rahbarlik qiluvchi profilaktika katta inspektorlarining mahalliy kengashlarga qilingan ishlari yuzasidan bergan hisobotlari yuzasidan qabul qilingan kengash qarorlari, to'laligicha tizimga joylanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot ishlari davomida 2023 yil 1 iyun holatiga tizimda Paxtaobod tuman, Xiva shahar, Hazorasp tuman, To'rtko'l tuman IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika katta inspektorlarining hisobotlari asosida mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilingan qarorlar[14] joylanganligi, agar respublikamizda hozirda faoliyat yuritib kelayotgan 9373 ta mahalla fuqarolar yig'inlarining, 332 tasida "Mahalla huquq-tartibot maskani" faoliyati yo'lga qo'yilib, yana 802 tasida shunday maskanlarni tashkil etish ishlari davom ettirilayotganligini[15] inobatga olsak, tizimga joylangan qarorlar miqdoriga ko'ra, barcha maskanlarga rahbarlik qiluvchi profilaktika katta inspektorlari hisobotlari bo'yicha kengash qarorlari to'liq qamrab olinmaganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki Mahalla huquq tartibot maskanlariga rahbarlik qiluvchi profilaktika katta inspektorlarining har olti oyda mahalliy kengashlarga hisobot berishlari lozimligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son qarorida aniq belgilangan.

Tadqiqot ishlari davomida E-qaror tizimiga joylangan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qarorlar o'rganilganda, tizimda asosan viloyat IIB boshliqlari va tuman IIB boshliqlari, shuningdek ularning jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rinbosarlari mahalliy kengashlarga bergan hisobotlari yuzasidan qabul qilingan qarorlarning miqdori ko'proq ekanligi, hisobotlar faqatgina jinoyatlar ko'rsatkichlari va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan umumiy va takrorlanuvchi so'zlardan iborat bo'lib, yuzaki ma'lumotlarni berish bilan kifoyalanganligi aniqlanib, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari, 14 ta hudud metodikasi, jinoyatchilikning geoinformatsion xaritasi, mazkur jinoyatlarni sodir qilinishiga imkon bergan va shart-sharoit yaratgan omillar tahliliga jiddiy yondashilmasdan, yuzaki tarzda ma'lumotlar berish bilan kifoyalangan.

Shu sababli kelgusida jamoat xavfsizligini ta'minlashda mahalliy davlat hokimiyat organlari qarorlarini qabul qilishda, quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya qilinadi:

birinchidan, qarorlar miqdoriga emas, balki sifat ko'rsatkichlariga;

ikkinchidan, qarorlarni qabul qilishda, hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib jamoat xavfsizligini ta'minlashga, kriminogen vaziyat tahlil qilinib, mavjud muammolarning ilmiy jihatdan asoslangan yechimlariga ko'proq ahamiyat qaratish.

Shuningdek o'tkazilayotgan tadqiqot ishlari doirasida jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-sonli va 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-sonli farmonlariga ko'ra:

birinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashda profilaktika inspektorlari faoliyatini departamentlararo tartibga soluvchi[16];

ikkinchidan, jamoat xavfsizligi departamenti ichidagi sohaviy xizmatlararo hamkorlikdagi faoliyatni tartibga soluvchi[17] normativ-huquqiy hujjatlarga tasniflash taklif qilinadi.

Jamoat xavfsizligi departamentidagi sohaviy xizmatlararo hamkorlikdagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga misol tariqasida konsepsiyada ushbu departamentga qo'yilgan vazifalarni hamkorlikda amalga oshirishini inobatga olgan holda:

birinchidan, patrul-post va jamoat tartibini saqlash[18];

ikkinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi[19];

uchinchidan, yo'l harakati xavfsizligi [20];

to‘rtinchidan probatsiya faoliyatini [21] tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga ajratish mumkin.

Mazkur taklif qilinayotgan tasniflashga yondashuvning afzallik jihatlari shundan iboratki, bu orqali jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektorlari uchun yangi metodologik tavsiyalar va dasturiy rejalar ishlab chiqishda foydalanish, shuningdek profilaktika inspektorlari normativ hujjatlarning umumiy to‘plamidan jamoat xavfsizligi departamentiga oidlarini aniqlab oladilar va tezda o‘rganishlariga imkon yaratiladi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatining huquqiy asoslarini tasniflash aslida uning maqsadi, vazifalari va funksiyalarini kompleks va tizimlashtirilgan huquqiy tartibga solishda ifodalanadi. Bunda ma’muriy-huquqiy normalar ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarini:

birinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini amalga oshiruvchi subyekt sifatida va obyektining huquqiy holati va funksiyalarini mustahkamlaydi;

ikkinchidan, amaldagi qonun hujjatlari asosida inson huquqlarini himoya qilishdagi mas’uliyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tasnif-uz/
2. Matlyubov B.A. Profilaktika inspektori xalq xizmatkori. Toshkent-2018, 33-b.
3. Ю.Н.Старилов Нормография: теория и технология нормотворчества: учебник для бакалавриата и магистратуры// под редакцией Ю.Г.Арзамасова –М.: издательство Юрайт, 2007-СТР.406
4. Хабиров Р.И. Классификация правовых нормативных актов в РФ// молодой ученый.-2022-№15 (410) стр.309
5. Загидуллина Ю.П, Жеребцов Д.В. особенности деления на виды и классификация нормативно-правовых актов правоохранительных органов. Молодой ученый №50(340) декабрь 2020 г. Стр 211
6. Нечевина Н.Д. Организационная деятельность участковых инспекторов милиции в обеспечении охраны общественного порядка и профилактики правонарушений. - Москва, 1999. - 23 с.
7. Saitqulov Q.A “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar viktimologik profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish” Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun èzilgan dissertatsiya, Toshkent-2020, 65-b.
8. O‘zbekiston Respublikasining 20.04.2021 yildagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni https://lex.uz/docs/5378966
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 14.09.2019 yildagi 2736-III-son “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori https://lex.uz/ru/docs/5153833
10. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 30 martdagi “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to‘g‘risidagi qo‘shma qarori
11. Ziyodullayev M.Z. “Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish” Monografiya. Toshkent – 2018. 157-b.
12. Ziyodullayev M.Z. Militsiya tayanch punktlari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish. – T., 2016. – 290 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2021 yildagi 390-sonli “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga «e-qaror» elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori https://lex.uz/docs/5470461
14. https://e-qaror.gov.uz/search?title=profilaktika+katta+inspektori (murojaat vaqti: 01.06.2023)

15. https://iiv.uz/medianews/file_15-03-2023_071105.pdf O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2022 yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risidagi axboroti (murojaat vaqti: 01.06.2023)

16 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.12.2019 yildagi 1010-sonli “Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

17. O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi https://regulation.gov.uz/oz/d/80539

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2017 yildagi PQ-2940-son “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori https://lex.uz/ru/docs/3202965

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2896-sonli qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 avgustdagi “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasidagi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi

21. O‘zbekiston Respublikasining 28.12.2021 yildagi “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi ID-54875 https://regulation.gov.uz/uz/d/54875

Atajanov O‘.M. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi

maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlari tayanch punktlari profilaktika inspektorlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ularni tasniflash masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: profilaktika inspektori, normativ-huquqiy hujjatlar, tasniflash, hisobot, mahalliy davlat hokimiyat organlari, mahalla huquq tartibot maskani, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

Атажанов У.М. Классификация нормативных правовых документов, регулирующих деятельность профилактических инспекторов по обеспечению общественной безопасности

В статье анализируются нормативные правовые документы, регулирующие деятельность профилактических инспекторов опорных пунктов органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и их классификация.

Ключевые слова: инспектор профилактики, нормативно-правовые документы, классификация, отчетность, органы государственной власти на местах, махаллинские пункты правопорядка, профилактика правонарушений.

Atajanov U.M. Classification of regulatory legal documents regulating the activities of preventive inspectors in ensuring public safety

The article analyzes the normative legal documents regulating the activities of preventive inspectors of the strongholds of the internal affairs bodies in the field of public security and their classification.

Key words: prevention inspector, legal documents, classification, reporting, local authorities, makhalla law enforcement points, crime prevention.

Toshmuxammatov Asadbek Yusup o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

MILLIY GVARDIYANING OMMAVIY TADBIRLARNI O'TKAZISHDAGI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Bugungi kunda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va turli xarakterdagi hamda yo'nalishdagi ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlar faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida turli xil xalqaro va milliy miqyosda ommaviy tadbirlarning yildan yilga ko'payib borishi ham, mamlakatimizga bo'lgan ishonchning ortishidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligi, huquqbuzarliklarning, ijtimoiy-maishiy tusdagi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ularga chek qo'yish, sodir etilganlarini fosh etish, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlari amalga oshirilishida sezilayotgan kamchiliklar, tizimli ishlarning sustligi, bu borada ishlarning samarali tashkil etish maqsadida yana bir organ — O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi, uning huquqiy asosi, ya'ni "O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi [1].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida shu haqda to'xtalib, Jumladan, jamoat xavfsizligi va shaxsiy mulk daxlsizligini ta'minlashga Ichki ishlar vazirligi bilan bir qatorda Milliy gvardiya ham bab-baravar javobgar ekanligini ta'kidladi [2].

Mamlakatimizda Milliy gvardiya organlari tashkil etilganligining yana bir dolzarbligini butun dunyo va respublika bo'ylab e'lon qilingan koronavirus pandemiyasi sharoitidagi ko'rsatgan jonbozligi va soha xodimlarining tun-u kun tinim bilmay qilgan mehnatlarida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Milliy gvardiya to'g'risida qonunning qabul qilinishi bilan Milliy gvardiyaning faoliyatini huquqiy tartibga solindi va unda organning huquqiy maqomi hamda asosiy vazifalari belgilab berildi [1].

Shu bilan birga, mazkur qonun bilan Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari etib qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratligi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) o'z vakolatlari doirasida qo'yilgan qonuniy talablari, shu jumladan qonunga rioya etish, hujjatlarni, tekshiruv materiallarini va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, mutaxassis ajratish, Milliy gvardiyaga kelish hamda aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish to'g'risidagi, qoidabuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqidagi qonuniy talablari barcha davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiyligi o'rnatildi hamda Milliy gvardiyaning huquq va majburiyatlari, harbiy xizmatchilarning (xodimlarining) huquqiy va ijtimoiy himoya qilish kabi normalar mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va hamkor vazirliklarning jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdagi hozirgi kunda olib borayotgan samarali ishlari natijasida respublikamizda tinchlik va osoyishtalik hukm surmoqda, bu esa o'z navbatida mamlakatimizda

demokratik islohotlarni davom ettirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga imkon yaratadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi barcha harakatlari avvalombor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida bo'lishini ta'minlash lozim.

Bu borada Davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli bo'ladi, "Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O'zbekistonning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda"[3] deya ta'kidlab o'tgandilar.

Respublikamizda har yili o'tkaziladigan o'rtacha 25 mingga yaqin ommaviy tadbir davrida Milliy gvardiya bo'linmalari jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etadilar. Agar biz bu ommaviy tadbirlarda 50 milliondan ortiq fuqarolarni ishtirok etishini inobatga olsak[4], Milliy gvardiya va hamkor organlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy va amaliy tadbirlarni fuqarolar xavfsizligini ta'minlashdagi mas'uliyati hamda murakkab tomonlarini yaqqol anglashimiz mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston mashhur sayyohlik maskaniga aylanib borayotganligi, buning natijasida, dunyoning barcha burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o'ziga tortayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'zining buyuk tarixi, jonli va yuksak madaniyati va hayratlanarli manzaralari bilan mamlakat juda ko'p narsalarni taklif qila oladi. Respublika bo'ylab o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar sonining ortib borayotgani sayyohlik jadal rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biridir. Ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatini yanada oshirish va tashrif buyuruvchilar hamda mahalliy aholi uchun unutilmas tajriba bilan ta'minlash uchun ularni tashkil etish va amalga oshirishning turli jihatlarini yaxshilashga e'tibor qaratish juda muhimdir.

Inklyuziv muhitni yaratish ommaviy tadbirlarni takomillashtirish yo'lidagi birinchi qadamdir. O'zbekiston o'zining rang-barang madaniy merosi bilan faxrlana oladi. Ushbu xilma-xillikni ommaviy tadbirlarga integratsiya qilish nafaqat inklyuzivlikni targ'ib qiladi, balki tashrif buyuruvchilarga mamlakatning ko'plab madaniy qirralarini ochish imkoniyatini ham beradi. Tadbir tashkilotchilari O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli etnik guruhlarning urf-odatlari va an'analarini aks ettiruvchi chiqishlar, ko'rgazmalar va namoyishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bu nafaqat mamlakatning madaniy xilma-xilligini nishonlaydi, balki mahalliy aholiga o'z ildizlari bilan qayta bog'lanish imkoniyatini beradi, g'urur va birdamlik tuyg'usini uyg'otadi.

Ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan yana bir muhim jihatlardan biri bu - ommaviy tadbirlar o'tkazishni tartibga solinganligi. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda infratuzilmani yaxshilash borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Biroq hali ham takomillashtirish kerak bo'lgan ayrim jihatlar mavjud. Xususan, tadbir o'tkaziladigan joylar nogironlar uchun qulay bo'lishini ta'minlash, belgilangan to'xtash joylari va panduslarni taklif qilish va Brayl alifbosidagi ma'lumotlarni taqdim etish tadbirlarni yanada qamrab olish yo'lidagi muhim qadamdir. Nogironlarga yordam berish uchun tadbir xodimlarini o'qitish va jamoatchilikni foydalanish imkoniyatining muhimligi haqida xabardor qilish inklyuziv muhitni yaratishga yordam beradi. Shuningdek, ommaviy tadbirlarni o'tkazuvchi subyektlar va xavfsizlikni ta'minlovchi organlarga oid normalarda ham ushbu holatni ta'minlash bilan bog'liq normalarning aks etishi yurtimizga bo'lgan ishonchning yanada ortishiga, ayniqsa, yangi tahrirda qabul qilingan[5] Konstitutsiyamizning 1-moddasi ijrosi ta'minlanganligining yana bir isboti bo'lar edi.

Bundan tashqari, mahalliy hamjamiyatlarni ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga jalb qilish ularning muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Jamiyatning ishtiroki mahalliy ahol-

ida egalik va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi, bu esa barcha ishtirokchilar uchun tadbirlarni yanada mazmunli va qiziqarli qiladi. Mahalliy hunarmandlar, musiqachilar va ijrochilarni tadbir tarkibiga jalb qilish ularning iste’dodlariga e’tibor qaratib, ularga munosib baho berishi mumkin. Bu yondashuv nafaqat madaniy almashinuvni rag‘batlantiradi, balki iqtisodiy imkoniyatlarni ta’minlash orqali mahalliy hamjamiyatlarga kuch beradi.

Ommaviy tadbirlarga tashrif buyuruvchilarni jalb qilishda targ‘ibot va xabardorlik muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy media, an’anaviy media va sayyohlik veb-saytlari kabi turli platformalardan foydalanish shovshuvni yaratishga va mahalliy va xalqaro ishtirokchilarni jalb qilishga yordam beradi. Ta’sir o‘tkazuvchilar, blogerlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini ushbu tadbirlarda ishtirok etish tajribasi bilan o‘rtoqlashish uchun jalb qilish, shuningdek, potensial tashrif buyuruvchilar orasida qiziqish uyg‘otishga yordam beradi. Bundan tashqari, sayyohlik agentliklari va turoperatorlarni tadbirlarni rag‘batlantirishga jalb qilish ularning sayyohlik marshrutlariga (madaniy-ma’rifiy, sport musobaqalari, xalq sayllari, milliy bayramlar va boshqalar) kiritilishini ta’minlashi, tashrifni yanada oshirishi mumkin.

Qolaversa, O‘zbekistonning tabiiy go‘zalligini asrab-avaylash va yashil kelajakni ta’minlash uchun ommaviy tadbirlarga barqaror amaliyotlarni kiritish muhim ahamiyatga ega. Tadbir tashkilotchilarini ekologik toza materiallardan foydalanishga, qayta ishlashni targ‘ib qilishga va chiqindilarni kamaytirishga undash ushbu yig‘ilishlarning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ishtirokchilarni barqaror turizm amaliyotlari va ularning mamlakatning tabiiy resurslarini saqlashdagi o‘rni haqida ma’lumot berish ongli va ekologik jihatdan mas’uliyatli tashrif buyuruvchilar bazasini yaratishi mumkin.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyatni takomillashtirish maqsadida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganiligi[6] ham ekologik nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning yurisdiksiyasiga o‘tkazilishi ham, ayni ko‘zlangan maqsadlardan biridir.

Hozirgi kunda davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi davlat xavfsizligi tizimini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, shu jumladan ommaviy tadbirlar paytida: ijtimoiy-siyosiy, sport, madaniy va ko‘ngilochar tadbirlarda o‘zbek jamiyatining ajralmas mexanizmi sifatida tartibga solishdir.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlari tomonidan ommaviy tadbir mobaynida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash tadbirlari Jamoat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205 – sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyasining 2020-yil «26» fevraldagi 8–sonli qo‘shma qarori, shuningdek, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlari tomonidan ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash borasidagi ishlari “Milliy gvardiya tog‘risida”gi[7] qonun, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” [8] qonun, “Favqulodda holat to‘g‘risida”[9] gi qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Milliy gvardiya va hamkor organlar ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishda birinchi navbatda xavfsizlikni ta’minlovchi organlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tashkiliy, tezkor-qidiruv, profilaktik, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va yong‘in xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, so‘nggi yillarda ommaviy tadbirlar sonining yanada oshib borishi, bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Har yili mamlakatimizda **25 mingga yaqin** ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini hisobga olsak,

ularning asosiy qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida o‘tkazilishini anglash qiyin emas. Chunki asosiy ommaviy tadbir o‘tkazish obyektlari(ochiq joy uchastkalari, binolar, inshootlar, madaniyat-ma’rifat markazlari, sport majmualari, tarixiy obidalar, istirohat bog‘lari xiyobon va boshqalar) Toshkent shahri va viloyatlar markazida joylashgan. Bunday joylarda ya’ni **1-toifadagi** ommaviy tadbirlarda fuqarolar xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlash 2023-yil 6-noyabrdagi “Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorga asosan Milliy gvardiya organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Ommaviy tadbirlarning asosiy qismini 1-toifadagi ommaviy tadbirlar tashkil etganligi bois Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlarning ortiqcha xizmat yuklamalari bilan ishlashga majbur qiladi. Ayniqsa **alohida toifadagi** ommaviy tadbir o‘tkaziladigan vaqtlarda bu xizmat yuklamalari yanada ortadi. Bu esa xizmat faoliyatni tartibga soluvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Birinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ro‘yxati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari takliflari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Ayrim ommaviy tadbirlar esa O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari qarorlari asosida, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ro‘yxatlariga kiritilmagan joylarda o‘tkazilishi mumkin. Ko‘pgina hollarda tasdiqlangan obyektlar ro‘yxati haqida ma’lumotlar olishda qiyinchilikka duch kelinadi yoki mavjud bo‘lmaydi. Fuqarolar xavfsizligi va jamoat tartibini ta’minlash faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida “E-Ommaviy tadbir” dasturini yaratish maqsadga muvofiq. Natijada bu dasturda Respublikaning barcha hududlarida o‘tkazilayotgan ommaviy tadbirlar ro‘yxati, sanasi, manzili, o‘tkazilayotgan obyekt yoki hudud, o‘tkazilayotgan tadbirning qaysi toifaga kirishi haqida fuqarolarimiz dastlabki ma’lumot olish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Xorij tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsa, ko‘pgina yevropa mamlakatlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishni tartibga solish, tashrif buyurgan turistlarga noqulaylik tug‘dirmaslik, shuningdek, ishga, mehmonga, xizmat safariga ketuvchilar va keluvchilar hamda jamoat transportlari harakatida tirbandliklar yuzaga keltirmaslik maqsadida **“Mass event”, “Public event”** va ommaviy tadbirlar haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab **“Mobil ilovalar”** yaratilgan bo‘lib, bu ilovalar orqali ommaviy tadbir turi, o‘tkaziladigan sana, joyi vaqti, tashrif buyuruvchilarning taxminiy soni haqida ma’lumotlar olishingiz mumkin bo‘ladi, qolaversa, yo‘llardagi avtomobillar harakatida tirbandliklar vujudga kelmasligi uchun avtotransport vositalari yurishi uchun boshqa yo‘llar ham ko‘rsatilib o‘tiladi. Ko‘p sonli aholiga ega shaharlarda bunday ilovalar juda samarali vosita hisoblanadi.

Yurtimizda ham shunga o‘xshash mobil ilova va hokimiyat saytlarida ommaviy tadbir o‘tkazilayotgan bino va hududlar haqida ma’lumotlar joylanib borilsa, Toshkent shahri va viloyat markazlarida fuqarolarning ko‘pgina, yuqorida sanab o‘tilgan qiyinchiliklarga duch kelmasliklariga sabab bo‘lar edi.

Bilamizki, XXI- axborot va texnologiyalar asri sifatida davom etmoqda. Turli sohalarda minglab yangiliklar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida insonlarning qo‘l mehnati o‘rnini zamonaviy texnologiyalar egallamoqda. Shunday texnologiyalardan biri bu uchuvchisiz uchuvchi apparatlar ya’ni dronlardir. Dronlar doimiy rivojlanayotgan va ko‘p qirrali texnologiya bo‘lib, sanoatining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dronlar ko‘p jihatdan foydali bo‘lib, odamlarni bog‘lash, joylarni himoya qilish, foydali tahlillarni taqdim etish va umumiy tadbir tajribasini yaxshilashning kuchli usullarini

taqdim etadi.

Konsertlar, sport tadbirlari, ochiq osmon ostidagi tadbirlar va xalqaro sammitlar kabi yirik tadbirlarni kuzatish uchun dronlardan foydalanish yuqori darajadagi xavfsizlik uchun haqiqatan ham foydali bo'lishi mumkin. Dronlar yordamida havo monitoringi oddiy va yerdagi kuzatuv paytida muqarrar bo'lgan barcha uzilishlarni osongina chetlab o'tish imkoniyati paydo bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiya organlarida uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalari mavjud bo'lib, bevosita dronlar bilan ish faoliyatini tashkillashtiradi. Ammo, bu bo'linmalar ikkitagina vazifani jangovar va favqulodda vaziyatlarda bajarishi belgilangan. Zamon nuqtai nazaridan bu holat maqsadga muvofiq deb hisoblab bo'lmaydi. Chunki Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida o'tkazilayotgan tadbirlarda aholi gavjum paytda xizmat olib boruvchi harbiy xizmatchi va xodimlar soni ommaviy tadbirga tashrif buyuruvchilar soni bilan xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan doim ham mutanosib bo'lavermaydi. Ayni holatda dronlardan foydalanish, xavfsizlikni ta'minlash, xavfni oldini olish, qonun buzilishi aniqlangan holatlarda ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish borasida, yong'in sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'layotgan joylar (hududlar) haqida hamkorlikdagi organlarga ma'lumotlarni zudlik bilan yetkazish imkoniyatini ham beradi.

Mavjud normalar zamon bilan hamnafas bo'lib bormas ekan. Jamiyatimizda o'rnatilgan normalardagi huquqiy bo'shliqlar ortib boraveradi. Bu esa o'z navbatida Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ommaviy tadbirlarni o'tkazishdagi qiyinchiliklarni kuchayishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda Milliy gvardiya tizimida mavjud me'yoriy hujjatlar qayta ishlab chiqilishiga ehtiyojning mavjudligi ham mavjud holatni yanada qiyinlashtiradi.

Hozirda amalda bo'lgan 2014-yil 29-iyulda qabul qilingan 205-sonli Qarorda[10] keltirib o'tilgan ayrim normalar dolzarbligi jihatidan talab darajasida emas. Shu bois, ushbu normativ-huquqiy hujjatning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini yaratish uchun quyidagilarni mavjud hujjatlarda bayon etilishi tavsiya etiladi:

Birinchisi, yuqorida aytib o'tilganday uchuvchisiz uchuvchi apparatlarga oid normalar Milliy gvardiya to'g'risidagi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagicha "agar ehtiyoj mavjud bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda hamda istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashda Milliy gvardiya Uchuvchisiz uchuvchi apparat bo'linmalari tomonidan nazorat qilish" kabi jumlalar bilan aks etishi lozim.

Ikkinchisi, ommaviy tadbirlarni o'tkazish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini bugungi jamiyatimizdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni to'la qamrab olmaganligni ko'rishimiz mumkin. Qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarda "ommaviy tadbirlar o'tkazishda jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan keng qamrovli maqsadli maxsus rejalarni qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlash;

ommaviy tadbirlar o'tkazish vaqtida guruhiy va ommaviy tartibsizliklar kelib chiqishining barvaqt oldini olish, ularning asosiy omillarini aniqlash va bartaraf etish;

ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlarni va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda tadbir tashkilotchilari, obyekt ma'muriyati va ishtirokchilarning ko'nikmalarini shakllantirish hamda doimiy takomillashtirib borish;

ommaviy tadbirlar o'tkazish obyektlari va hududlarida jamoat tartibini saqlash hamda xavfsizligini ta'minlashga ekologik toza muhitni yaratishga imkon beruvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlarini keng joriy etish;

ommaviy tadbirlar o'tkazishda jamoat

xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta'minlash, tezkorligini oshirish, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, shuningdek, ularning shaxsiy tarkibini huquqiy va ijtimoiy himoyalash darajasini oshirishni ommaviy tadbirlarni o'tkazish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilash" kabi normalar mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda ommaviy tadbirlarni takomillashtirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi, bunda inklyuzivlik, qulaylik, jamoatchilik ishtiroki, targ'ibot va barqarorlikka qaratilgan bo'lishi lozim. Ushbu strategiyalarni tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishga kiritish orqali O'zbekiston sayyohlik maskani sifatidagi obro'sini yanada oshirishi va tashrif buyuruvchilarga chinakam unutilmas madaniy tajribalar taqdim etishi mumkin. Ommaviy tadbirlarni takomillashtirishga doimiy intilishi bilan O'zbekiston inklyuziv, rang-barang va barqaror yig'inlarni o'tkazish bo'yicha jahon yetakchisiga aylanish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasi tahririyati» DUK 2020-yil 24-dekabr Sh.Shakirov, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni o'rinbosari.

2. 14-yanvar 2019-yil "Xalq so'zi" gazetasi

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

4. Milliy gvardiya markaziy devoni ma'lumotlari. 2022-2023 yillar.

5. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son)

6. "Ekologiya va jamoat tartibini saqlash sohalaridagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun [O'RQ-854] 11.07.2023 y).

7. O'zbekiston Respublikasi "Milliy gvardiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.11.2020 yildagi O'RQ-647-son//https://lex.uz/docs/-5128310.

8. "Huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.05.2014 yildagi O'RQ-371-son

9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, 15.12.2021 yildagi O'RQ-737-son

10. VM 29.07.2014. 205-sonli " Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

Toshmuxammatov A.Y. Milliy gvardiyaning ommaviy tadbirlarni o'tkazishdagi faoliyatini samarali tashkil etish istiqbollari

Ushbu maqolada mamlakatimizda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar soni yildan-yilga o'sib borishi. O'zbekiston bo'ylab o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar sonining ortib borayotgani sayyohlik jadal rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri ekanligi. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta'minlash juda murakkab jarayon hisoblanishi. Buning sababi esa, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta'minlash jarayonida vazifalar hajmi va ular oldida turgan funksiyalar jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladigan kuchlar ishtirok etishi, shuningdek, muayyan harakatlar usullari aniq voqea va vaziyatga qarab belgilanishi kerakligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy tadbir, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligi, Milliy gvardiya, integratsiya, inklyuziv.

Тошмухамматов А.Ю. Перспективы эффективной организации деятельности Национальной гвардии по проведению массовых мероприятий

В данной статье количество массовых мероприятий, проводимых в нашей стране, увеличивается с каждым годом. Растущее количество массовых мероприятий по всему узбекистану является одним из основных факторов, способствующих стремительному развитию туризма. Обеспечение общественного порядка и общественной безопасности во время массовых мероприятий считается очень сложным процессом. Было отмечено, что причина этого заключается в том, что в процессе обеспечения общественного порядка и общественной безопасности задействованы силы, принципиально отличающиеся друг от друга по объему стоящих перед ними задач и функций, а также по определенным методам действий. Должны определяться в зависимости от конкретного события и ситуации.

Ключевые слова: публичное мероприятие, общественный порядок, общественная безопасность, Национальная гвардия, интеграция, инклюзивность.

Toshmukhammatov A.Y. Prospects for effective organization of the activities of the National guard in conducting public events

In this article, the number of public events held in our country is increasing year by year. The growing number of public events across Uzbekistan is one of the main factors contributing to the rapid development of tourism. Ensuring public order and public safety during public events is considered a very complicated process. It was mentioned that the reason for this is that in the process of ensuring public order and public safety, forces that are fundamentally different from each other in terms of the scope of tasks and functions before them are involved, as well as certain methods of action should be determined depending on the specific event and situation.

Key words: public event, public order, public safety, National Guard, integration, inclusive.

Qodirov To'lqinjon Tolibjonovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi

UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI (TERRORIZMGA QARSHI KURASH MISOLIDA)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son qarorida [1], jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida har qanday ko'rinishdagi terroristik va ekstremistik faoliyatni aniqlash va unga chek qo'yish hamda inson huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyat va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish ko'rsatib o'tilgan.

Ko'rinib turibdiki, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida terrorizm balosini aniqlash va unga chek qo'yish mamlakatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ko'rsatib o'tilgan.

E'tirof o'tishimiz lozimki, terrorizmga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf qilish masalalarining rivojlanishi tadqiqotiga tizimli yondashuv, uning XIX-XX asrlarda rivojlanganligini ko'rsatadi.

XX asrning oltmishinchi yillarida Yaqin va O'rta Sharqdagi voqealari, ya'ni Isroil va Misr, Livan, Isroil va Falastin o'rtasidagi qurolli mojarolar natijasida tashkilotlar shakllandi. Yillar davomida xalqaro terrorizm Afg'oniston, Pokiston, Rossiya, xususan Checheniston hududlarini ham egallay boshladi. Xalqaro hamjamiyat oldida xalqaro terrorizmga qarshi kurash dolzarb bo'lib qoldi. Bunga qarshi iqtisodiy, ijtimoiy instrumentlar qatori harbiy kuch ham yetakchi o'ringa chiqdi. Shu asnoda an'anaviy harbiy maqsadda yaratilgan UUA qo'llash ustuvor ahamiyat kasb etdi.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib jamoat xavfsizligini ta'minlash ayniqsa terrorizm tahdidlariga qarshi eng samarali vosita sifatida UUA AQSh va Isroil tomonidan keng foydalanila boshlandi.

Xususan, Qo'shma shtatlar 2001 yildan boshlab xalqaro hamjamiyatning terrorizmga qarshi global kurash olib borish doirasida nishonga aniq zarba beruvchi UUAlarini ishlab chiqarish va uni takomillashtirish bo'yicha bir qancha dasturlar qabul qildi.

UUAni ishlab chiqarish va tadqiqotlar o'tkazish dasturiga UUA va qanotli raketalar ishlab chiqarish qo'shma dasturi boshqarmasi (JPO), Mudofaa vazirligining Havo razvedkasi boshqarmasi (DARO) va bularni moliyalashtirishda Mudofaa vazirligidagi Istiqbolli tadqiqotlar boshqarmasi (DARPA) keng jalb qilindi.

Isroilda esa, UUAni ishlab chiqish va tadqiqotlar o'tkazishda Isroil mudofaa armiyasi (SAXAL) katta rol o'ynaydi. Uning talablaridan kelib chiqib "Israel Aircraft Industries (IAI)" ,"Rafael" ,"IAI Malat UAV Division", "Silver Arrow", "Aeronautics Defense Systems", "Elbit Systems" kabi kompaniyalari turli rusumdagi uchuvchisiz apparatlarni ishlab chiqaradi. Bu kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan apparatlardan terrorizmga qarshi kurash jarayonida xavfning miqyosidan, ya'ni jangovar harakatlarni ko'lamidan kelib chiqib, UUAdan quyidagi vazifalarni bajarishda foydalanilishi ma'lum bo'lmoqda:

– aviatsiya va raketa-artilleriya tizimlariga nishonni ko'rsatishda;

– artilleriya o't ochish uchun korrektirovka qilishda;

– zarba natijalarini baholashda;

– razvedka-signallarni qabul qilish va uzatishda;

– minali yoki zaharlangan maydonlarni aniqlash va ko'rsatishda;

– ob-havo razvedkasini olib borishda;

– radionurlanish manbaalari razvedkasini amalga oshirishda;

– radiatsiya, kimyoviy, biologik razvedka olib borishda;

– shaharlarda jangovar harakatlarni ta'minlashda;

– aloqa vositalari va radiolokatsion

vositalarni bostirishda;

– radiolokatsion vositalarga qarshi kurashda (RLS o‘t ochib bostirish);

– yolg‘on nishon, xudkush, snaryadlarni uloqtirish sifatida;

– o‘t o‘chirish va boshqa inson imkoniyati cheklangan vaziyatlarni uni o‘rnini bosuvchi vosita sifatida foydalanayotganligi ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasida mazkur jarayonlar Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga [2] asosan tartibga solinadi.

Shu qatorda, bu apparatlar, axborot va aloqalarni retransilyatsiya qilish, yerda va havodagi nishonlarga zarba berish operatsiyalarini o‘tkazish, jangovar vaziyatlarda izlash va qutqarish operatsiyalarida qo‘llash, HHK va HHM kuchlari o‘quv-jangovar mashg‘ulotlarida havo nishoni sifatida foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatchilarni yuqoridan kuzatishda, bojxona xizmati harakatlarida madad berish va sohil himoyachilari, chegaralarda patrullik qilish, favqulodda vaziyatlarda fuqaro mudofaasi harakatlarida, yuklarni tashish va boshqa sohalarda qo‘llash bugungi kundagi terrorizm tahdidini aniqlash va uni bartaraf qilishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda terrorizmga qashi kurashda qo‘llaniladigan UUA klassifikatsiyasi bo‘yicha yagona yondashuv yo‘q, chunonchi NATO qabul qilgan uchuvchisiz uchish apparatlari klassifikatsiyasi bo‘yicha ular:

• strategik yuqori balandlikda uzoq vaqt parvoz qiluvchi (uchish balandligi 13,7 km dan ortiq);

• strategik o‘rta balandlikda uzoq vaqt parvoz qiluvchi (4,5 km dan 13,7 km gacha);

• taktik o‘rta masofada parvoz qiluvchi (4,5 km gacha) apparatlarga bo‘linadi.

Qo‘llanilish vazifasiga ko‘ra:

– jangovar apparatlar;

– razvedka apparati;

– ko‘p maqsadli apparatlar;

– jangovar ta’minot apparatlari.

Jangovar UUAlari yerdagi va havodagi nishonlarni yo‘q qilish maqsadida:

– ko‘p marta ishlatiladigan ixtisoslashtirilgan jangovar uchish apparati;

– bir marta qo‘llaniladigan zarbali jangovar uchish apparatiga bo‘linadi.

Yuqorida keltirilgan tasnifdagi UUA turlaridan eng ko‘p taraqqiy etgani bu razvedka faoliyatiga mo‘ljallangan apparatlardir.

Razvedka maqsadida qo‘llaniladigan UUAlari tinchlik va urush davrida vaziyatni o‘rganish va baholash, fototasvir va koordinatalarni belgilash, dushman pozitsiyasini rekognossirovka qilish (joyni ko‘rib chiqish) va boshqa ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun qo‘llaniladi.

Ko‘p maqsadli UUAlari bir vaqtda razvedka vazifalarini bajarish bilan birga qo‘mondonlik punktiga axborot yetkazib yerdagi va havodagi nishonlarga zarba berish uchun qo‘llaniladi.

Jangovar ta’minot uchun qo‘llaniladigan UUAlari jangovar ta’minot, havodan yuklarni tashlash, dushmanni HHM vositalarini chalg‘itish (yolg‘on havo nishoni sifatida), jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida sun’iy nishon sifatida qo‘llaniladi.

Shuningdek ular shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Vazni bo‘yicha

– mikro UUA (grammlarda);

– kichik UUA (100-150 kg gacha);

– o‘rta UUA (bir necha yuz kilogrammdan 1-1,5 t gacha);

– og‘ir UUA (2 t yuqori);

Uchish vaqti davomiyligi bo‘yicha

– daqiqalar oralig‘ida uchadigan;

– soatlar oralig‘ida uchadigan;

– kun davomida va undan ortiq vaqt davomida uchadigan.

Maqsadiga ko‘ra, razvedkaviy (strategik, operativ-taktik, taktik) va jangovar turlarga bo‘linadi.

UUAning tashkiliy va texnik belgilariga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

qo‘llanilish masshtabiga ko‘ra –

(strategik, operativ, taktik vazifalarni bajaradi);

mansubligiga ko‘ra – quruqlikdagi qo‘shinlar, harbiy havo kuchlarida, harbiy dengiz kuchlarida va boshqa tuzilmalar (maxsus qo‘shinlar, ichki ishlar, chegara va favqulodda vaziyatlar vazirligi va hk.) qo‘llaniladigan UUAlar;

gabarit-vazniga ko‘ra – miniatur shakldagi, juda kichik, kichik, o‘rta, katta;

aerodinamik sxemasiga ko‘ra – samolyot vintomotor va trubomotor ko‘rinishdagi, vertolyot, raketa, kvadrakopter, dirijabl, zond tipdagi;

qayta qo‘llash imkoniyatiga ko‘ra – ko‘p marta va bir marta qo‘llaniladigan;

ko‘tarilish usuliga ko‘ra – katapulta, qo‘lda uchiriladigan, uchish yo‘lakchasidan, vertikal ko‘tariluvchi;

qo‘nish usuliga ko‘ra – samolyot usulida qo‘nuvchi, parashyut orqali qo‘nuvchi, turli tutqichlar orqali ilib olinuvchi;

boshqarish usuliga ko‘ra – boshqaruv (kanallari) liniyalardan operator orqali boshqariluvchi, avtomatik boshqariluvchi (dasturlashtirib), birgalikdagi boshqaruv tizimi orqali boshqariluvchi;

razvedka apparaturalarini qo‘llash turiga ko‘ra – foto va videorazvedka ko‘rinish qism spektori bo‘ylab, radiolokatsion razvedka, issiqlik nuri razvedkasi, radio va radiotexnik razvedka, ob-havo razvedkasi;

yig‘ilgan axborotlarni qabul qilish vaqtiga ko‘ra – real vaqt masshtabida, aloqada bo‘lib turgan jarayonda, qo‘ngandan so‘ng;

qurilma uchirilishini joylashish turiga ko‘ra – yerdagi, havodagi, dengizdagi;

qo‘llanilish balandligiga ko‘ra – juda past balandlikdagi, past balandlikdagi, o‘rta balandlikda, yuqori balandlikda qo‘llaniluvchi;

harakatlanish uzoqligiga ko‘ra – juda yaqin masofaga, yaqin masofaga, o‘rta masofaga, uzoq masofaga uchuvchi;

uchish davomiyligiga ko‘ra – qisqa, o‘rta va uzoq vaqt davomida uchuvchi UUA turlariga bo‘linadi.

Yuqorida keltirilgan tasnif UUA tizimli yondashuv asosida turli-tuman tashkiliy vazifalarni qamrab oluvchi murakkab apparat ko‘rinishida gavdalantiradi. Shunday ekan, terrorizmga qarshi kurashda aynan qanday turdagi apparatlarni qo‘llash maqsadga muvofiqligi terrorizmning yo‘nalishi va uning taktikasiga qarab belgilanadi.

An’anaviy razvedka va qiruvchi samolyotlar kichik intensivli urushda, ayniqsa jangari to‘dalarga qarshi aksilterror tadbirlarda samarasiz bo‘lib qoldi, bunga sabab bu texnikalarning eskirganligi va uning taktik texnik xarakteristikasi eski total urushlarga mo‘ljallanganligi bilan bog‘liq.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, terrorizmga qarshi eng ko‘p qo‘llanilayotgan UUA bu razvedka apparatlaridir. Ekspertlar fikricha dunyo bozorida bu apparatlar yetakchi o‘rinni egallaydi va bunga talab kelajakda yanada ortib boradi.

Oxirgi yillardagi qurolli konfliktlar (Rossiya - Ukraina, Armaniston – Ozarbayjon, Yaqin Sharq, Fors ko‘rfazi, Afg‘oniston, Pokiston, Afrika davlatlari) tahlili shuni ko‘rsatdiki, razvedka qilish uchun qo‘llanilgan UUAlari jangovar operatsiyalarni samaradorligini oshiradi. Yerdagi boshqaruv punktiga apparatlardan o‘z vaqtida axborot yetkazilishi jangovar vazifalarni tezkorlik bilan bajarish, kam tolofat ko‘rish va resurslarni tejalishiga olib keladi. Bunday apparatlar bir qator xorij kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilishini jadallashtirdi.

Bu apparatlarning narxi arzonligi bilan ham diqqatga sazovordir. Xususan bunday apparatlarni qiyosiy tahlil qilinganda quyidagilarni ko‘rish mumkin. (1-jadval)

(1- jadval)

Jangovar aviatsiya turlari	Narxi (o'rtacha mln.AQSh dollarida)	Strategik UUA turlari	Narxi (o'rtacha mln.AQSh dollarida)	Taktik UUA (o'rtacha mil. AQSh dollar-igacha)
Qiruvchi F-35 	100-200	MQ-1/RQ-1 Predator 	4-21	Raven 
E-2D Advanced Hawkeye 	2 mld	RQ-4 Global Hawk 	40-150	Zala421-04F 
F-22 Raptor 	250-500	Heron TP (Eitan) 	28	Delta 
Qiruvchi Su-24 	40-60	Predator B (Reaper) 	30,4	Orbiter 
Vertolyoti MI-26 	20-50	RQ-8A Fire Scout 	16	VX6 

Manba: Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hozirda terrorchilar harakat taktikasi shahar va aholi punktlariga ko'chdi. Bunga misol sifatida, Suriya va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi jangovar harakatlarni keltirish mumkin. Unda, jangovar samolyotlarni qo'llash tinch aholi o'rtasida qurbonlarni ortishiga olib keldi. Afg'onistonda boshlangan dastlabki aksilterror operatsiyalaridagi bombardimon harakatlar natijasida, terrorchi guruhlar tog'li hududlarga yashirindi. Ularni izlab topish va ishg'ol qilishda aynan jangovar UUA katta samara berdi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash ayniqsa terrorizm tahdidlariga qarshi kurashda taktik UUAlarni o'rni yuqori deb baholaydigan mutaxassislarning fikricha, ularni taktik tasnifini o'zgartirish yoki takomillashtirish katta kuch talab qilmaydi, aksincha, jangovar harakatlar teatri jarayoniga moslashtirilishi mumkin, deb ta'kidlashadi.

Misol uchun, uchish apparati tasnifida katta gabaritni sezilarli darajada qisqartirish imkoniyati mavjud, shunga ko'ra uning bahosi qisqaradi va dushmanning HHM vositalariga qarshi harakatlarida yashab qolish imkoniyati

ortadi. Kichik o'lchamdagi apparatlar uzoq parvoz qilishi, TTX darajasini oshirish imkoniyati samolyotlarning ekspluatatsiya qilish va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarini qisqartirish evaziga oshirish mumkin, maqsadli ish variantlaridan kelib chiqib turli vazifalarni bajarishda qo'llash mumkin, razvedka vazifalarini real vaqt masshtabidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashda ustun, o'ta qiyin va xavfli vaziyatlarda qo'llanilishida texnik va psixofiziologik cheklovlarni qisqartiradi, muhim vazifalarni bajarish chog'ida yo'qotish xavfi mavjudligi uncha ahamiyatga ega emas, ekspluatatsiya qilishning kam xarjligi va eng asosiysi, operator-uchuvchilarning xavfsizligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda jangovar vazifalarni bajarishda eng qulay bo'lgan vosita sifatida UUA ko'rsatilmoqda.

1. Moliyaviy jihatdan kamsarfligi;
2. Shaxsiy tarkibni yo'qotishni qisqartirishi;
3. Urushni o'zlari joylashgan mintaqadan tashqarida ushlab turishi;
4. Shovqinsiz kuzatish va to'satdan zarba berish imkoniyati.

AQSh va boshqa NATO davlatlari jamoat xavfsizligini ta'minlash ayniqsa terrorizm tahdidlariga qarshi kurashda UUA roli va ahamiyati yuqoriligini ko'p marotaba e'tirof etishgan, bu taktika tizimi, usul va shakllari ko'p davlatlarning e'tiboriga tushdi, bu o'z navbatida, jahonda bunday qurollarga ega bo'lishga bo'lgan intilishni kuchayishiga olib kelmoqda.

"Terrorizm tahdidlari bugungi kunda turli ko'rinishda namoyon bo'layotganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunga qarshi zamonaviy qurol sifatida UUA ko'rsatish mumkin" deydi M. Vikkers AQSh Mudofaa vazirining razvedka bo'yicha o'rinbosari.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash ayniqsa terrorizm tahdidlariga qarshi kurashishda UUA o'rni va ahamiyati yuqoriligini baholagan olimlar bu apparatlarning qo'llanilishi keyingi o'n yillikda ham ortib borishi va bu apparatlar istiqbolda zamonaviy aviatsiyaning rivojlanishiga turtki bo'lishi va bu o'z, dunyo bozoridagi UUA bo'lgan talabni ortishini aytib o'tadi.

Shunday qilib, bugungi kundagi zamonaviy terrorizmning rivojlanish tendensiyalari va unga qarshi kurashda, jahon hamjamiyati samarali vosita sifatida UUA qo'llashni taqozo etadi.

Xorij harbiy mutaxassislarining fikricha, UUA qurolli kuchlarning jangovar shayligini oshiruvchi vosita sifatida baholanadi.

Undagi belgilangan hududni kuzatishda parvoz davomiyligining uzoqligi, radiatsion, kimyoviy, biologik zaharlangan hudud va dushmanning muntazam havo hujumidan mudofaa tizimini yorib o'tish imkoniyati yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunning 91-moddasida[3] O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari ko'rsatilib bunda: terrorizmga qarshi kurashishda, huquq tartibotni, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, terrorchilik harakatlarining oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etishi ko'rsatilgan. Buning uchun ular tomonidan UUA qo'llash yuqori imkoniyatlarni berishi bo'yicha qarorlar qabul qilingan.

Umuman olganda, UUA jamoat xavfsizligini ta'minlash ayniqsa terrorizm tahdidlariga qarshi kurashda qo'llanilishi siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnik omillarga chambarchas bog'liqdir[4]. Xususan, siyosiy jihatdan davlat o'z xavfsizligiga tahdid hisoblangan terrorizmni bartaraf qilish chorasi sifatida "preventiv zarba" berishni konseptual hujjatlarda aks ettirgan. Misol uchun, AQSh, Xitoy, Isroil va Rossiya, Ozarbayjon, Ukraina, Xitoy kabi harbiy-siyosiy tendensiyalar kurashida faol hisoblangan davlatlarni keltirish mumkin. Albatta, bu jabhada AQSh, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Eron ilg'or tajribaga ega ekanligi e'tiborga molik. Shunday ekan, terrorizmga qarshi kurashda UUAni qo'llash tendensiyasini yildan yilga ortib boradi va bu eng qulay vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son qarori. https://lex.uz/docs/5749291

2. O‘zbekiston Respublikasida mazkur jarayonlar Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 noyabrdagi 658-son “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. https://lex.uz/ru/docs/6284990

3. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/29526

4.Антонов О.Е. Беспилотники.http://bp-la.ru/radiopomexi-bespilotnikov 2012 г

5. Бобокулов И. Международно-правовые аспекты регионалной безопасности: вопросы теории и практики.– Т.: УМЕД, 2010.

Qodirov T.T. Uchuvchisiz uchish apparatlarini jamoat xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyati (terrorizmga qarshi kurash misolida)

Mazkur maqolada bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash va terrorizm tahdidiga qarshi zamonaviy jangovar texnika hisoblangan uchuvchisiz uchish apparatlarining (UUA) qo‘llanilishi butun dunyoda unga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirmoqda. Mazkur maqolada, jamoat xavfsizligini ta’minlashda, xususan, terrorizmga qarshi kurashda UUA qo‘llash muammo va istiqbollari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: uchuvchisiz uchish apparati (UUA), terrorizm, tahdid, qarshi kurash, ishlab chiqarish, havo, mudofaa, rusum, parvoz, qo‘llash, razvedka, apparat.

Қодиров Т.Т. Рол и значение беспилотных летательных аппаратов в обеспечении общественной безопасности (в примере борьбы с терроризмом)

В данной статье в особенности, применение беспилотных летательных аппаратов (БПЛА) в обеспечении общественной безопасности и борьбе с терроризмом повышают внимания всего мира данному виду современной боевой техники. В настоящем статье изучаются проблемы и перспективы применения БПЛА в борьбе с терроризмом.

Ключевые слова: беспилотный летательный аппарат (БПЛА), терроризм, угроза, меры противодействия, производство, воздух, оборона, тип, полет, применение, разведка, технические средства.

Kodirov T.T. The role and importance of unmanned aerial vehicles in ensuring public safety (in the example of the fight against terrorism)

In this article, in particular, the use of unmanned aerial vehicles (UAVs) in ensuring public safety and combating terrorism increases the attention of the whole world to this type of modern military equipment. This article examines the problems and prospects of using UAVs in the fight against terrorism.

Key words: unmanned aerial vehicle (UAV), terrorism, threat, countermeasures, production, air, defense, type, flight, application, reconnaissance, technical means.

Sadullayev Timur Shavkatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISHDA FUQAROLARNING XAVFSIZLIGINI VA JAMOAT TARTIBINI TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Kirish

Jamoat tartibini saqlash kundan kunga dolzarb masalasiga aylanib qolmoqda. Ayniqsa, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida jamoat tartibini saqlash o‘ziga e’tibor, katta kuch va vositalarni jalb etishni talab etmoqda. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlariga milliy qonunchilikka muvofiq katta hajmdagi vazifalar yuklatilgan.

Shuningdek, ushbu huquq-tartibot organlar ommaviy tadbirlarni o‘tkazish davrida jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash borasidagi vazifalarni bajarishda o‘zaro hamkorlikda amalga oshirilishda lozim. Shu bilan birga, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini sifatli ta’minlash uchun mavjud mazkur yo‘nalishni tartibga soluvchi milliy huquqiy-normativ bazani yanada takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2023-yil 6-oktabr kunidagi 530-son “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi va Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarga muvofiq ommaviy tadbirlarni turlari quyidagilardan iborat:

alohida toifadagi ommaviy tadbir — “Yangi yil”, “Navro‘z bayrami”, “Mustaqillik kuni”, “Xotira va qadrlash kuni”, “Xalqaro bolalarni himoya qilish”, “Ro‘za hayit” *(Iyd al-Fitr)*, “Qurbon hayit” *(Iyd al-Adha)*, “Rojdestvo Xristovo”, “Pasxa” bayramlarini nishonlashga doir tadbirlar, ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish, umumta’lim maktablarida o‘quv yilining boshlanishi va tugashiga bag‘ishlangan, saylov va referendumlarni o‘tkazish bilan bog‘liq, shuningdek, xalqaro hamkorlik tashkilotiga a’zo davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkaziladigan tadbirlar hamda futbol bo‘yicha xalqaro miqyosdagi uchrashuvlar;

birinchi toifadagi ommaviy tadbir — Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o‘tkaziladigan alohida toifadagi ommaviy tadbir toifalariga kirmaydigan ommaviy tadbir;

ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir — alohida va birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar toifasiga kirmaydigan ommaviy tadbir;

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasining 15-bandiga muvofiq, tadbir turiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi zimmasiga qo‘yidagi vazifalar belgilab qo‘yilgan:

alohida va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan manfaatdor davlat organlari hamda tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi;

birinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan manfaatdor davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlash zaruriyatini inobatga olgan holda, ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining asoslantirilgan so‘roviga asosan manfaatdor davlat organlari va tashkilotlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur miqdordagi kuch va vositalari ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining va Milliy gvardiyasining hududiy bo‘linmalari o‘zlariga biriktirilgan alohida, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda, jamoat tartibini saqlashni tashkil etish maqsadida manfaatdor davlat organlari va tashkilotlarining birgalikda qabul qilgan qarorida belgilangan tartibda hamkorlikdagi rejalar *(namunaviy)* ishlab chiqish hamda obyektlarda tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash maqsadida evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, videokuzatuv, zamonaviy muhandis-texnik himoya vositalari, yongin va texnik xavfsizligi hamda atrofni yoritish tizimlaridan kelib chiqqan holda har bir obyektning xavfsizligini ta’minlash pasportini ishlab chiqadi».

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-son “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasining 3-bandiga muvofiq, ommaviy tadbir o‘tkazilayotgan obyektga qo‘yidagi ta’rif berilgan:

Ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti — ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun maxsus mo‘ljallangan yoki moslashtirilgan, yong‘inga qarshi texnik himoya vositalari, tez tibbiy yordam ko‘rsatish, evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, muhandis-texnik himoya vositalari va ommaviy tadbir ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlashning boshqa vositalari va tizimlari bilan jihozlangan, alohida, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obyektlari ro‘yxatlariga kiritilgan ochiq joy uchastkalari, binolar, inshootlar, shuningdek, ommaviy tadbirlar o‘tkazishga qulay bo‘lgan keng maydonlar *(madaniyat-ma’rifat muassasalari, sport majmualari, tarixiy obidalar, dalalar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va boshqalar)*».

2021-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkazilayotgan sport ommaviy tadbirlar davomida ommaviy tadbir ishtirokchilari *(tomoshabinlar)* tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni tahlil qilganda, tadbir ishtirokchilari tomonidan ommaviy tartibsizliklar va guruhiy huquqbuzarliklar va jinoyatlar soni ortib bormoqda.

Masalan:

2021-yil 1-dekabr kuni Farg‘ona shahridagi “Istiqlol” o‘yingohida “Turon” va “Neftchi” jamoalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan futbol uchrashuvida futbolchilar va muxlislar tomonidan tartibsizliklar sodir etildi. Gumonlanuvchi sifatida ushlangan 6 kishi Jinoyat kodeksining 277-moddasi 3-qismi «b» bandi *(Ommaviy tadbirlar paytida bezorilik)* bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan va dastlabki tergov boshlangan. Bundan tashqari, tartibsizlikka aloqador yana 5 kishi ma’muriy qamoqqa olingan. Ularga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 183-moddasi *(Mayda bezorilik)* bilan huquqbuzarlik aniqlanib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi [1].

2021-yil 29-oktabr kuni O‘zbekiston Kubogining 1/4 finali doirasida “So‘g‘diyona” va “Nasaf” futbol jamoalari o‘rtasida Jizzaxda bo‘lib o‘tgan o‘yinda ommaviy tartibsizliklar sodir etildi [2].

2021-yil 7-aprel kuni Namangan shahar “Navbahor” o‘yingohida “Navbahor” va “Paxtakor“ futbol jamoalari o‘rtasida 5-davra uchrashuvi o‘tkazildi va ushbu uchrashuvda o‘yingohga to‘plangan futbol ishqibozlarining keskin e’tirozlar natijasida ommaviy tartibsizliklar sodir etildi [3].

2022-yil 1-aprel kuni soat 19:00 da Toshkent shahrining “Paxtakor” stadionida O‘zbekiston chempionati musobaqasi doirasida Toshkentning “Paxtakor” va Namangan viloyatining “Navbahor” jamoalari o‘rtasida futbol uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv yakunlanganidan so‘ng “Navbahor” va “Paxtakor” jamoalari futbolchilari o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik

kelib chiqdi [4].

2022-yil 11-iyun kuni Toshkent shahridagi "Paxtakor" stadionida Osiyo kubogi o'yinlari doirasida O'zbekiston va Iroq terma jamoalari o'rtasidagi futbol o'yini davomida muxlislar tomonidan tartibsizliklar sodir etildi. Mazkur holat yuzasidan 47 nafar fuqarolarga nisbatan ta'sir ko'rsatish choralar qo'llanildi [5].

Mazkur ommaviy huquqbuzarlik va jinoyatlar umumiy jinoyatchilik ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda O'zbekistonni jahon sahnadagi obro'siga putur yetkazmoqda.

Ommaviy sport tadbirlar davomida muntazam ravishda tartibbuzarlik xatti-harakatlarni sodir etuvchi shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'rish hamda Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish, shuningdek sport tadbirlarda jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risida kodeksni yangi **183[1]-modda Rasmiy sport musobaqalari paytida tomoshabinlarning o'zini tutish qoidalarini buzish, 28[2]-modda. Sport musobaqalarga borishni ma'muriy taqiqlash, 344[1]-modda. Sport musobaqalarga borishni ma'muriy taqiqlash muddatini hisoblash** moddalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'yidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish lozim deb o'ylaymiz:

Kodeksning **23-moddasiga** yettinchi bandini qo'shib, qo'yidagi tahrirda bayon etish lozim:

"ommaviy, sport va boshqa ommaviy tadbirlarga, ayrim jamoat joylariga borishni ma'muriy taqiqlash".

Kodeksning 35-moddasini qo'yidagi tahrirda bayon etish lozim:

"35-modda - Ma'muriy qamoq, maxsus huquqdan mahrum etish va ma'muriy taqiqlash muddatlarini hisoblash

Ma'muriy qamoq muddati sutkalar bilan, maxsus huquqdan mahrum etish muddati esa kunlar, oylar, yillar bilan, ma'muriy taqiqlash esa — oylar yillar bilan hisoblanadi."

"E-jamoat xavfsizligi" va "E-huquq-buzarlik" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlarda ma'muriy huquqbuzarliklar bazasi *(doimiy ravishda, barcha huquqbuzarliklar va huquqbuzarlar to'g'risida ma'lumotlar saqlanadigan baza)* tashkil etib, shaxsini identifikatsiya qilish tizimi *(АСИЛ автоматическая система идентификация личности, shaxsni avtomatik aniqlash tizimi)* bilan integratsiya qilinishi lozim. Ushbu taklif doimiy ravishda turli xildagi huquqbuzarliklarni sodir etuvchi shaxslar *(potensial huquqbuzar)* to'g'risida ma'lumot to'plash va ularga nisbatan qonuniy choralarni ko'rish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgust kunidagi PQ-3245-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi asosida Respublikamiz shaharlarida kuzatuv kameralar o'rnatilib, ularni hududiy Ichki ishlar boshqarmalarida tashkil etilgan Situatsion markazlariga integratsiya qilingan [6].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni va 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillariga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, "E-jamoat xavfsizligi" va "Ye-huquqbuzarlik" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarning negizida tashkil etilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyat markazlarida joylashgan o'yingohlarda Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan ommaviy tadbirlar davomida fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta'minlash, sodir etilgan huquqbuzarliklarni

bartaraf etish va huquqbuzarlarga nisbatan qonuniy chora ko‘rish faqat Ichki ishlar organlari xodimlar bilan hamkorligida amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, mazkur jarayon maxsus huquqdan *(o‘yingohlarga sport musobaqalari davomida borishni ma’muriy taqiqqa ega bo‘lgan)* mahrum etgan fuqarolar sport tadbiri davomida o‘z yashash manzili bo‘yicha profilaktika inspektorlarning xizmat xonalariga kelib, ro‘yxatdan o‘tish amaliyotini tatbiq etish orqali o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Mazkur takliflar, o‘yingohlarda bosqichma-bosqich FACE ID kameralarni o‘rnatish, ularni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’muriy huquqbuzarliklar bazasiga integratsiya qilish hamda kelgusida o‘yingohlarda sotib olingan elektron chiptalar orqali kiritish tizimini yo‘lga qo‘yish yordamida o‘z ijobiy natijasini ko‘rsatadi va kelgusida boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan obyektlarda joriy etish imkoniyatini beradi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida fuqarolarni xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashni amalga oshirish jarayonida sud tomonidan muntazam ravishda huquqbuzarliklarni sodir etuvchi shaxslarni huquqini *(ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan obyektlarga borishni ma’muriy taqiqlash)* cheklash amaliyoti ayrim xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlarida o‘z aksini topgan:

- Belorussiya Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida kodeksining 6.11-moddasida [7];

- Paragvay Respublikasi 2003-yil 7-martdagi “Sport o‘yingohlarda zo‘ravonliklar harakatlariga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 1866/02-son qonunining 14-moddasida;

- Peru Respublikasi 2013-yildagi “Sport tadbirlarda zo‘ravonliklarni oldini olish va jazolash to‘g‘risida”gi 30.037-sonli qarorida;

- Serbiya Respublikasi 2013-yildagi “Sport tadbirlarda zo‘ravonliklarni va noqonuniy hatti-harakatlari oldini olish to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasida;

- Ispaniya 2007-yil 11-iyuldagi “Sportda zo‘ravonlik, irqchilik, ekstremizm va murosasizlik bilan qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 19/2007-son qarori 24-moddasining 3-qismida;

- Turkiya Respublikasi 2011-yil 31-martdagi “Sportda zo‘ravonliklar va tartibsizliklarni oldini olish to‘g‘risida”gi 6222-son qarorining 18-modasida.

Shuningdek, Argentina, Chili, Italiya, Xorvatiya, Belgiya va Buyuk Britaniya davlatlarining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab o‘tilgan [8].

Xulosa

Shuningdek, ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan obyektlarga muntazam ravishda bezorlik va shu kabi ma’muriy huquqbuzarlik jinoyatlarni sodir etuvchi va sodir etishga moyilligi bo‘lgan shaxslarni kiritmaslikka huquqiy asos sifatida qo‘llanishiga, umumiy jinoiy ahvoliga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga, fuqarolarni qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, yoshlarni huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishga, kelgusida futbol o‘yingohlarni yirik xalqaro sport tadbirlarni o‘tkazish uchun xavfsiz hududiga aylantirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.tafsilar.info/proisshestvija/far-onada-6-kishi-futbol-jinidagi-ommavij-mushtlashuvda-ibsga-olingan/

2. https://kun.uz/news/2021/10/30/video-jizzaxdagi-futbol-uchrashuvida-ommaviy-mushtlashuv-roy-berdi

3. https://namviib.uz/uz/news/namangan-shahar-navbahor-oyingohida-navbahor-va-pahtakor-futbol-klublari-ortasida-otkazilgan-uchrashuv-boyicha-rasmiy-malumot

4. https://iibb.uz/uz/news/rasmij-malumot-20220402

5. https://daryo.uz//2022/06/14/toshkentda-otkazilgan-futbol-oyinida-stadionda-tosh-otganlarning-16-nafari-qamaldi/

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgust kunidagi PQ-3245-son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori//https://lex.uz/docs/3324016
7. Kodeksy-bel.com/koap_rb/6/11/htm
8. Cyberlenenka.ru/article/n/sostavy-pravonarusheniny-sovershaemih-sportivnimi-bolelschekami-vo-vremya-i-v-svyazi-provedeniem-massovih—zrelischnih-sportivnih/viewer
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2023-yil 6-oktabr kunidagi “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash hamda jamoat tartibini saqlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 530-son qarori// https://lex.uz/ru/docs/6629448
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 205-son qarori// https://lex.uz/docs/2438871
11. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi// https://lex.uz/docs/97664
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni// https://lex.uz/docs/5749291
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillariga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063

Sadullayev T.Sh. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlarni takomillashtirish

Maqolada ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashda Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari o‘zaro hamkorligi huquqiy va tashkiliy asoslari tahlil qilinib, ommaviy tadbirlar davomida fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlashda huquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish va shu yo‘nalishda milliy huquqiy-normativ bazani takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarining natijalari tahlil qilinib, ularning jamoat xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy tadbir, fuqarolar xavfsizligi, jamoat tartib, Milliy gvardiya, ichki ishlar organlari, hamkorlik, ommaviy tartibbuzarlar.

Садуллаев Т.Ш. Совершенствование мер по обеспечению безопасности граждан и общественного порядка при проведении общественных мероприятий

В статье анализируются правовые и организационные основы взаимодействии Национальной гвардии и органов внутренних дел в обеспечении безопасности граждан и общественного порядка при проведении массовых мероприятий, а также даны рекомендации по совершенствованию национальной нормативно-правовой базы в сфере предотвращения нарушений и преступлений во время проведения массовых мероприятий. Также были проанализированы результаты реформ, реализованных в данной сфере, и высказаны мнения и комментарии об их роли в обеспечении общественной безопасности.

Ключевые слова: массовое мероприятие, безопасность граждан, общественный порядок, Национальная гвардия, органы внутренних дел, сотрудничество, участники массовых беспорядков.

Sadullaev T.Sh. Improving measures to ensure the safety of citizens and public order during public events

The article analyzes the legal and organizational basis for the interaction between the National Guard and internal affairs bodies in ensuring the safety of citizens and public order during mass events, and recommendations were given on improving the national regulatory framework in the field of preventing violations and crimes during mass events. The results of reforms implemented were also analyzed in this area, and expressed opinions and comments about their role in ensuring public safety.

Key words: public event, citizen safety, public order, National Guard, internal affairs bodies, cooperation, riot participants.

Anarkulov Azizjan Davlatkulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Iqtisodiy fanlar kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Xaydarov Nodir Sobrovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi;
Davronov Otabek Oybek o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI HARBIY XIZMATCHILARI (XODIMLARI)NING PUL TA’MINOTINI HISOBLASH VA TO‘LASH TARTIBINI ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Jahonda tez o‘zgarib borayotgan vaziyat sharoitida, milliy xavfsizlikka doimiy tahdidlar fonida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini samarali boshqarish strategik muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni raisligida 2023-yil 13-yanvarda bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida [1] mamlakatimizni isloh qilish hamda kelgusida Qurolli Kuchlarni raqamlashtirish va milliy mudofaa boshqaruvini optimallashtirish jarayonini joriy etish orqali yagona xavfsiz axborot makonini yaratishni maqsad qilib qo‘yilgan.

Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan eng muhim vazifa – Qurolli Kuchlarni raqamlashtirish jarayonini jadal amalga oshirish, turli vazirlik va idoralarning axborot resurslarini birlashtirgan yagona Milliy mudofaa nazorati markazini tashkil etish, milliy xavfsizlik masalalarida samaradorlik va muvofiqlashtirishdan iborat.

Turli vazirlik va idoralarning axborot resurslarini integratsiyalashning markaziy o‘zagi sifatida Milliy mudofaa nazorati markazining tashkil etilishi Qurolli Kuchlar holatini, geosiyosiy vaziyatni, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdid va xatarlarni tahlil qilish va yagona axborot maydonini boshqa sohalarga integratsiyalash imkonini beruvchi strategik muhim qadamdir. Ushbu integratsiyalashgan markaz xavfsizlik muammolarini samarali yechish uchun muhim bo‘lgan qarorlar qabul qilishda yuqori darajadagi ma’lumotni beruvchi monitoringni o‘tkazishni hamda samarali faoliyatni olib borilishini ta’minlaydi.

Qurolli Kuchlarda raqamli texnologiyalarning roli ortib borayotgan bir sharoitda axborot xavfsizligini ta’minlash muhim omil bo‘lmoqda. Kiberhujumlar, ma’lumotlar sizib chiqishi va virus tahdidlaridan samarali himoya qilish raqamlashtirishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy kriptografik usullar va xavfsizlik mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish xavflarni minimallashtiradi va qimmatli ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi [2].

Raqamlashtirish va milliy mudofaani boshqarish kontekstida boshqa mamlakatlar tajribasini hisobga olish muhim. Raqamli xavfsizlik va Qurolli Kuchlarni boshqarish va boshqarish sohasida bilim almashish va ilg‘or tajribalarni o‘tkazish imkoniyati milliy mudofaa vazifalarini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maqolada zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalarini joriy etish orqali harbiy xizmatchilar (xodimlar) uchun pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayonini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish va mablag‘larni hisobga olish tizimini o‘z ichiga oladi, bu esa ushbu jarayonning samaradorligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi, shu bilan birga milliy xavfsizlikni ta’minlashga bevosita ta’sir qiladi. Darhaqiqat, bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni tomonidan ilgari surilgan

eng muhim vazifa bo‘lib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi harbiy xizmatchi (xodim)larning ijtimoiy himoyasini, moliyaviy barqarorligini va farovonligini o‘sishiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari (xodimlari)ga pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, ushbu harbiy xizmatchilarning moliyaviy barqarorligiga va o‘z vaqtida ta’minlanishiga ta’sir qiladi. Maqolada pul ta’minotini hisoblash va to‘lashning amaldagi tartibi bilan bog‘liq muammoli masalalar, shuningdek, ushbu jarayonni avtomatlashtirish uchun dasturiy ta’minotni qo‘llashni o‘z ichiga olgan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligi ko‘rsatilgan.

Mavjud tizimning asosiy muammolaridan biri bu pul ta’minoti va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni qo‘lda hisoblab chiqarishning ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonidir. Bunday yondashuv katta mehnat va vaqt resurslarini talab qiladi, bu esa to‘lovlarni kechiktirishga olib keladi va harbiy xizmatchi (xodim)larning harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishni rag‘batlantirilishiga va moddiy ta’minlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Moliya xizmat xodimining ish stajidan qat’iy nazar, inson omili doimo mavjud bo‘lib, noto‘g‘ri hisob-kitoblar va ortiqcha to‘lovlarga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida budjet intizomini buzilishga olib keladi.

Amaldagi tartib moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va shaffofligini ta’minlash imkonini bermasligi, shu sababli Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchi (xodim)lar uchun pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayonini zamonaviy yondashuv asosida avtomatlashtirish orqali takomillashtirish zarur.

Pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayonida dasturiy ta’minotni joriy etish ijobiy natijalarga erishiladi, jumladan [3]:

ma’lumotlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hisoblashdagi xatolarni bartaraf etish, moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va shaffofligini oshirish va ularning amalga oshirilishi ustidan yuqori darajadagi nazoratni ta’minlash. Bu, o‘z navbatida, ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanish imkonini beradi;

moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va aniqligini sezilarli darajada oshirish. Avtomatlashtirilgan tizimlar eng qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashga qodir, bu esa pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayonini tezlashtiradi;

harbiy xizmatchilar tomonidan joriy nazoratni olib borilishini ta’minlagan holda hisoblashdagi xatoliklarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash (to‘lov noto‘g‘ri hisoblab chiqarilgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish [4] imkonini beradi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomi”da [5] kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi va ushbu tartib bo‘yicha qator vaziyatlar mavjud, jumladan:

harbiy lavozimga tayinlash tartibi;

harbiy xizmatchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

lavozim bo‘yicha majburiyatlarni vaqtincha bajarishni yuklash tartibi;

komandirning (boshliqning) ixtiyoriga o‘tkazish tartibi;

harbiy lavozimdan ozod etish tartibi;

rejalashtirilgan almashtirish tartibida boshqa joyga o‘tkazish

harbiy xizmatchilarni bir vazirlikdan boshqa vazirlikka o‘tkazish tartibi;

harbiy unvonlar berilishi va boshqa vaziyatlarni.

Ushbu vaziyatlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish uchun elektron buyruqlar qo‘llaniladi, so‘ngra ma’lumotlar bazalarida avtomatik yozib olinadi. Shuningdek, ushbu buyruqlar e’lon qilingan sanaga ko‘ra harbiy xizmatchilarga pul ta’minotlarini avtomatik tarzda aniq hisoblashini ta’minlaydi.

Davlat budjeti mablag‘larini samarali boshqarish, moliyaviy suiiste’mollik va budjet intizomi [6] buzilishining oldini oladi.

Bundan tashqari, zamonaviy avtomatlashtirish tizimlarining joriy etilishi tahlillar asosida pul ta’minotini to‘lash uchun ajratiladigan mablag‘larni bashorat qilish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, Davlat

budjeti xarajatlarini samarali rejalashtirish, pul ta'minoti to'lovlari tarkibini optimallashtirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy xavflarni oldindan ko'ra bilish imkonini berishi.

Qo'shimcha tadqiqotlar doirasida pul ta'minotini hisoblash va to'lashning an'anaviy usullari bilan taqqoslashda xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi rahbariyat tomonidan tinchlik davrida PIRO "Alushta" (83t633) deb nomlanuvchi resurslarga asoslangan dasturiy ta'minotdan 2012-yildan beri moliya mutaxassislar, kadrlar xizmati va harbiy bo'linmalarning boshqa xodimlari tomonidan foydalanilayotganligi. Shuningdek, ushbu dasturiy ta'minot harbiy xizmatchilarning pul ta'minotini hisoblash va to'lash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun ishlab chiqilgan ma'lumotlar berilgan.[7]

Rossiya Mudofaa vazirining o'rinbosari Tatyana Shevsova tizimning asosiy hujjatlari Qurolli kuchlar Bosh shtabi, Moliya vazirligi, Milliy mudofaani boshqarish markazi, Federal G'aznachilik va Rossiya banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilganligini ta'kidladi.

Alushta tizimining asosiy yutuqlaridan biri bu og'ir sharoitlarda harbiy kuchlarni uzluksiz moliyaviy ta'minotini amalga oshirish, shu jumladan barqaror aloqa kanallarining yo'qligida va energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan vaqtda ham faoliyatini uzluksiz amalga oshirishi. Tizimning muhim afzalligi uning moliyaviy jarayonlarda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan dala mashg'ulotlari va harbiy operatsiyalarda ishlash qobiliyatidir. Natijada, u harbiy kuchlarni ishonchli moliyaviy qo'llab-quvvatlashi, tezkor tayyorgarlik va harakatlar samaradorligini saqlashi haqida ma'lum qilingan.

Alushta tizimi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning pul ta'minotini hisobga olish va to'lov jarayonlarini avtomatlashtirganligi. Bu harbiy xizmatchilarning pul ta'minotlarini hamda harbiy tuzilmalarning fuqarolik xodimlarining ish haqini ham aniq hisoblashni ta'minlashi. Harbiy xizmatchilarni, xizmat joyini o'zgartirish va ishdan bo'shatish kabi boshqarish jarayonlari ham tizimga kiritilgan. Shunday qilib, Alushta byurokratik jarayonlarga sarflanadigan vaqtni minimallashtirib, xodimlarni boshqarishni optimallashtirishga hissa qo'shayotganligi ta'kidlangan.

Tizimning muhim xususiyatlaridan biri bu real vaqtda katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlash qobiliyatidir. Tizim harbiy xizmatchilar, ularning moliyaviy holati va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalarini qo'llab-quvvatlashi. Bu ularga moliyaviy holatni va turli bo'linmalardagi qo'shinlar toifalar bo'yicha soni haqida tezda ma'lumot olish imkonini berish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Alushta tizimi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining "elektron budjet" davlat axborot tizimi va Federal G'aznachilik kabi boshqa tizimlar bilan muvaffaqiyatli integratsiyalashtirilganligi. Ushbu integratsiya budjet jarayonlari haqida to'liqroq tushuncha berishi va moliyaviy operatsiyalarning izchilligini ta'minlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Alushta tizimi yuqori xavfsizlik standartlariga javob berishi va maxfiy ma'lumotlarni qayta ishlash uchun sertifikatlanganligi. Zamonaviy axborot va gibrid urushlar sharoitida ma'lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligi muhim rol o'ynaydi. Alushta strategik qiyinchiliklar va tahdidlar sharoitida ham moliyaviy va kadrlar jarayonlarining ishonchli ishlashini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

Natijada, Alushta tizimi tinchlik davridan harbiy davrga o'tishda va strategik muammolar sharoitida harbiy tuzilmalarni moliyaviy va xodimlarni samarali va uzluksiz boshqarishni ta'minlashga mo'ljallangan innovatsion platformaligi va ushbu tizim hozirgi kunga qadar takomillashtirib borilayotganligi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy maqola Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ilgari surilgan strategik maqsadlarning amaliy amalga oshirilishidir. Qurolli Kuchlarning moliya sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi, harbiy xizmatchilarni pul ta'minotini jarayonlarini samaradorligi va shaffofligini sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi. Pul ta'minotini hisoblash va hisobga olishni

avtomatlashtirish nafaqat vaqt xarajatlarini kamaytiradi, balki qo‘lda ishlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-strategik nuqtayi nazardan ham muhimdir. Axborot monitoringining yuqori darajasini saqlab turishi, pul ta’minotlarini aniq hisoblash va to‘lovlarni amalga oshirish, tez o‘zgaruvchan muhitda moliyaviy barqarorlik va harakatchanlikni ta’minlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2023 йил 13 январдаги Ўзбекистон Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Шавкат Мирзиёев раислигида Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги маърузаси. “Халқ сўзи” газетаси 2023 йил 14 январь, № 9 (8352).

2. Защита информации методами криптографии, стеганографии и обфускации. https://core.ac.uk/download/pdf/144001465.pdf

3. Замонавий рақамли технологияларнинг қўлланилиш соҳалари ва ютуқлари. https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-ra-amli-tehnologiyalarning-llanilish-so-alari-va-yutu-lari

4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 269 moddasi. https://lex.uz/acts/142859

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-son qarori. https://lex.uz/docs/4513434

6. O‘zbekisto Respublikasi Byudjet kodeksi, 187 moddasi. https://lex.uz/docs/2304138

7. Война и деньги Минобороны впервые опробует схему финансового обеспечения войск при переходе с мирного на военное время. https://armystandard.ru/news/2021791124-sCuyG.html

Anarkulov A.D., Xaydarov N.S., Davronov O.O. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari (xodimlari)ning pul ta’minotini hisoblash va to‘lash tartibini zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish

Ushbu maqola Qurolli Kuchlarning harbiy xizmatchi (xodim)larining pul ta’minotini hisoblash va to‘lash jarayonini zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish orqali avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: davlat mudofaasi, raqamlashtirish, pul ta’minoti, harbiy xizmatchi, zamonaviy yondashuv, avtomatlashtirish, texnologiya, budjet intizomi, moliya.

Анаркулов А.Д., Хайдаров Н.С., Давронов О.О. Совершенствование порядка расчета и оплаты труда военнослужащих (служащих) Вооруженных Сил Республики Узбекистан на основе современного подхода

Данная статья представляет собой разработку автоматизированного программного обеспечения путем совершенствования процесса начисления и выплаты денежного довольствия военнослужащих (сотрудников) Вооруженных Сил на основе современного подхода.

Ключевые слова: государственная оборона, цифровизация, денежные довольствия, военнослужащий, современность, автоматизация, технология, бюджетная дисциплина, финансы.

Anarkulov A.D., Khaydarov N.S., Davronov O.O. Improving the procedure for calculating and paying the military servicemen (employees) of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan based on a modern approach

This article discusses issues related to the training of a serviceman (employee) larining of funds that provide settlement support and lifelong maintenance of a modern zharaya yondashuva on the basis of improving the manual on automated training.

Key words: state defense, digitalization, monetary allowances, military personnel, modernity, automation, technology, budget discipline, finance.

Buzrukov Utkir Sabirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi boshlig‘ining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari

MAXSUS VAZIFALARNI BAJARUVCHI BO‘LINMALAR HARBIY XIZMATCHILARNI TAYYORLASHDA MAXSUS TAKTIK TAYYORGARLIKNING ROLI

Jahonda ayrim davlatlar o‘rtasidagi jangovar harakatlarni tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatlar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuvlarni boshqa katta davlatlar tomonidan qurol-yaroq, o‘q-dori, portlovchi moddalar, snaryadlar va boshqa vositalar bilan ta’minlab turilishi urushning uzoq muddatga cho‘zilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda tomonlar tinch yo‘l bilan muzokaralarga kirishishi eng maqbul yo‘ldir, chunki vaziyat tobora jiddiy tus olar ekan urushning oqibatlari butun mintaqaga salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarlarining “Xavfsizlik va tashqi siyosat” bo‘limidagi “Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyati” nomli bobida Qurolli Kuchlarimizni har tomondan rivojlantirish, harbiy xizmatchilarimizni zamonaviy tahdidlarni inobatga olgan holda tayyorlash bo‘yicha quyidagilarga asosiy e’tibor qaratgan:

Ayni paytda jahondagi vaziyat shiddat bilan o‘zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va bashorat qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko‘rishni talab etmoqda”[1].

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar natijasida, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazining asosiy faoliyatini o‘quv jarayoni tashkil etib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Qurolli Kuchlar tizimidagi boshqa vazirlik va idoralarning kichik komandir va mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, mutaxassisliklar va kasbga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydigan maxsus ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Markaz sikllarida yigirmaga yaqin mutaxassisliklarni tayyorlash bilan bir vaqtda maxsus bo‘linmalar turli sharoitda harakatlanish taktikasi bo‘yicha malakasini oshirib kelmoqda.

Hozirgi zamonaviy jangovar harakatlarda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarga bo‘lgan talab yuqori darajada, so‘ngi vaqtlarda mintaqamizda va jahondagi jangovar harakatlarni tahlil qilgan holda shahar sharoitida jang olib borishda maxsus taktik harakatlarning takomillashib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, “Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma mutaxassislarining malakasini oshirish” dasturiga 2021 yildan hozirgi kunga qadar (2023) ushbu soatlar jami Maxsus taktik tayyorgarlik uchun 48 soatdan yangi kiritilayotgan Taktik otish tayyorgarligi bilan birgalikda 70 soatga, shundan dastur uchun ajratilgan vaqt 150 soatdan 164 soatga oshirilganligi quyidagi diagrammada ko‘rsatib o‘tilgan (1-rasm).

Dasturda shu bilan birga, O‘q otish tayyorgarligi, Havo-desant tayyorgarligi, Balandlik-ishg‘ol tayyorgarlik, Modellashtirish va simulyatsiya vositalarida tayyorgarlik, Harbiy-muhandislik

tayyorgarlik, Ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalanish, Ruhiy-jismoniy tayyorgarlik va Jismoniy tayyorgarlik fanlari o‘rin olgan.



1-rasm. Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma mutaxassislarining malakasini oshirish dasturiga ajratilgan soatlarning o‘zgarishi

O‘quv kursi yakunida tinglovchilar “Maxsus operatsiya” tushunchasi, uni tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi, jangovar (tajovuzkor) holat, qurol holati va uni qayta o‘qlash tartibi, jangovar vazifalarni bajarish vaqtida oriyentirlanish, imo-ishorali belgilardan foydalanish tartibi, jinoyatchilarni qo‘lga olish va tekshirish tartibi, ko‘p va bir qavatli binoda joylashgan qurollangan jinoyatchilarni qo‘lga olish (yo‘q qilish), garovga olingan shaxslarni ozod etish, ommaviy tartibbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish, shahar va aholi yashash punktlarida jamoat xavfsizligi ta’minlash, shahar va aholi yashash punktlarida maxsus operatsiyalarni va “Tozalash” tadbirlarini tashkillashtirish va olib borishda bo‘linmalarning taktik harakatlari, emotsional va irodaviy ruhiy jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha mashqlar, qurollangan jinoyatchiga qarshi qo‘l jangi usullarini qo‘llashni o‘rganadilar. Shuningdek, jangovar harakatlarning har-xil turlarida jangovarlik va yashovchanlik qobiliyatlarini saqlab qolish, o‘q otar qurollar o‘qi ostida harakatlanishga ruhan tayyor turish, alpinistik anjomlaridan foydalanishni, baland bino va inshootlardan tushish-ko‘tarilish va boshqa elementlarni bajarish, “Zarya” va “Plamya” vositalaridan foydalanish, qo‘lbola portlovchi qurilmalarni tayyorlanishi, o‘rnatish usullari va niqoblanishi, qo‘lbola portlovchi qurilmalar aniqlanganda bo‘linmaning harakatlanishi, ko‘z yoshlantiruvchi va boshqa maxsus vositalardan foydalanish kabi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy jang olib borish taktikasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida integratsiya qilish maqsadga dasturda mashg‘ulotlarning ma’ruza, seminar, guruh mashg‘uloti, guruh mashqi, amaliy mashg‘ulot turlaridan tashqari majmuaviy-amaliy mashg‘ulot (Maxsus taktik o‘quvi) joriy qilindi.

Majmuaviy-amaliy mashg‘ulot (Taktik maxsus o‘quv) – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi tinglovchilarini o‘qitishining asosiy uslubi bo‘lib, harbiy xizmatchilarda jangovar harakatlarni (maxsus amaliyotlar) olib borish bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish maqsadida tashkillashtiriladi [2].

Mashg‘ulotga markazning yetakchi sikli rahbarlik qiladi, boshqa sikllardan mutaxassislar (o‘qituvchilar) jalb etiladi.

Mashg‘ulotda asosiy e’tibor:

- tinglovchilar tomonidan vaziyatni anglab yetishga;

- tinglovchilarda yuqori jangovar ko‘nikma, ruhiy chidamlilik, tashabbuskorlik va mustaqillik kabi qobiliyatlarni takomil-lashtirishga qaratilgan bo‘lib, kunduzi, tunda va har qanday ob-havo sharoitida yagona g‘oyaga asoslanib tashkillashtirib olib bori-

ladi va muntazam ravishda tezkor vaziyat keskinlashtirilib boriladi.

Maxsus-taktika tayyorgarlik fani maxsus vazifalarni bajaruvchi otryad harbiy xizmatchilarini tayyorlashda asosiy predmet hisoblanadi. Ushbu predmetni o'zlashtirish vaqtida esa harbiy xizmatchilar turli jang sharoitlarida qaror qabul qilish, kichik bo'linma va jangovar elementlarni boshqarish kabi muammoga to'qnash kelishmoqda.

Aynan ushbu muammoni yechimi sifatida O'quv dasturining mantiqiy-taqvim tuzilmasida 18 soat davomida Modellashtirish va simulyatsiya vositalarida tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar Maxsus-taktika tayyorgarlik fanining jangni boshqarish, qurollangan jinoyatchilarni qo'lga olish (yo'q qilish) va garovga olingan shaxslarni ozod etish bo'yicha o'tkaziladigan maxsus operatsiya kuch fazasida maxsus bo'linmalarning taktik harakatlari, qo'shinlar maxsus harakatlari kabi mavzularidan oldin o'tish belgilangan bo'lib, ushbu mavzular yo'sinida sarflanadigan kuch va moddiy vositalarni tejash hamda ko'rgazmalilik nuqtai-nazaridan yordamchi (ko'makchi) rolini bajaradi.

Modellashtirish va simulyatsiya vositalarida tayyorgarlik fanining vazifasi aynan Maxsus-taktika tayyorgarlikka yordamchi vosita, hamda murakkab taktik harakatlarini simulyatsiya etish va shu orqali taktik manyovrlarni, taktik hiylalarni qo'llash, kichik bo'linma va jangovar elementlarni boshqarishdagi malaka oshirish, jangovar sifatlarni shakllantirish kabilarni o'zida mujassam etgan holda, jangga (maxsus operatsiyalarga) tayyorgarlik jarayonida (jangdan oldin) va jang (maxsus operatsiyalar) mobaynida o'ziga biriktirilgan qurollaridan o't ochish, o'qlash, qayta o'qlash, qurol almashtirish, g'ildirakli va zanjir-tasmali texnikalarni, uchuvchisiz uchish apparatlarini, muhandislik vositalarini boshqarish tartibi, uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida razvedka harakatlarini o'tkazish, nishonga zarbalarni yo'naltirish, portlaydigan vositalarni o'rnatish va zararsizlantirish kabi harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazilishi yordamchi kalit sifatida qo'llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mintaqamiz va dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning tahlil qilgan holda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar harbiy xizmatchilarini tayyorlashda Ixtisoslashtirilgan o'quv markazida olib borilayotgan dars soatlari, majmuaviy-amaliy mashg'ulot ularda tezkor nostandart qaror qabul qilishga va shablonsiz harakatlarni o'zlashtirishga, jangovar ko'nikma, ruhiy chidamlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi qobiliyatlarni takomillashtirishga hamda har qanday ekstremal va murakkab vaziyatda to'g'ri harakatlanish malaka, ko'nikmalariga ega bo'lishlarida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022. 06/22/89/0227-son, - 386 b.)

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'mondonining 2022-yil 11-iyuldagi 200-sonli buyrug'i "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazida o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma". Toshkent. Milliy gvardiya bosmaxonasi, 2022. 2-16 B.

3. Ардашев А.А. "Учебник выживания войсковых разведчиков." (Боевой опыт) М.:2006. 14-15 - с.

Buzrukov U.S. Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar harbiy xizmatchilarni tayyorlashda maxsus taktik tayyorgarlikning roli

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan

islohotlar, harbiy o‘quv muassasalar faoliyati hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar harbiy xizmatchilarini tayyorlashda maxsus taktik tayyorgarlikning roli, vazifalari, ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy-siyosiy vaziyat, globallashuv, zamonaviy jangovar harakatlar, maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma, maxsus taktik tayyorgarlik, o‘quv dastur, o‘quv mashg‘uloti.

Бузруков У.С. Роль специальной тактической подготовки в подготовке военнослужащих.

В данной статье раскрываются реформы проводимые в Вооружённых Силах Республики Узбекистан, деятельность военно-образовательных учреждений, а также роль и задачи по тактической специальной подготовке специальных подразделений Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Ключевые слова: военно-политическая обстановка, глобализация, современные боевые действия, подразделения специального назначения, тактическая специальная подготовка, учебная программа, учебные занятия.

Buzrukov U.S. The role of special tactical training in the training of military personnel

This article reveals the reforms carried out in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, the activities of military educational institutions, as well as the role and tasks of tactical special training of special units of the Specialized Training Center of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.

Key words: military-political situation, globalization, modern warfare, special forces units, tactical special training, curriculum, training sessions.

Duschanov Shakir Sharifovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Umumqo‘shin qo‘mondonlik fakulteti Jangovar ta’minot kafedrasi sikl boshlig‘i;
Shomurotov Zoxid Zakirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Umumqo‘shin qo‘mondonlik fakulteti Jangovar ta’minot kafedrasi katta o‘qituvchisi

TOG‘-BALANDLIK TAYYORGARLIGIDA ZAMONAVIY TRENAJYOR (“SKALODROM” UNIVERSAL MAJMUASI)NING ROLI

Mamlakatimizning mudofaa qobiliyati, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini har tomonlama mustahkamlash, sarhadlarimiz daxlsizligini, jamiyat xavfsizligi va barqarorligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashning eng muhim sharti va kafolati ekanini biz harbiy xizmatchilar yaxshi anglaymiz.

Markaziy Osiyo mintaqasida va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab vaziyatda, terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda bu masalalarni hal qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuni inobatga olgan holda, biz yangi O‘zbekistonni barpo etishning dastlabki davridayoq tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashni faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab oldik. **Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq,** bu boradagi vazifalar turkumidan biri, davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va qobiliyatini oshirish etib belgilandi [1].

Mazkur vazifalarni ro‘yobga chiqarishda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi zimmasiga milliy armiyamizga intellektual yetuk, ofitser kadrlar yetkazib berishda samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Akademiyada jahon andozalariga mos innovatsion ishlanmalar hamda ilg‘or texnologiyalarga asoslangan o‘quv sinflari, laboratoriya xonalari, dala o‘quv-moddiy va eng zamonaviy texnik baza yaratildi.

Shular qatorida Akademiya hududida “Skalodrom” universal majmuasi barpo etilib, o‘quv jarayonida foydalanishga topshirildi.

“Skalodrom” universal majmuasining imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

Bo‘linmalarni tog‘li va baland tog‘li hududlarda harakatlanishda xavfsizlikni ta’minlash, tog‘-balandlik (alpinist) anjom va aslahalaridan to‘g‘ri foydalanish va tog‘ to‘siqlarini qiyinchiliklarsiz oshib o‘tish hamda jangovar vazifalarni o‘z vaqtida muvaffaqiyatli bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;

vertolet aviatsiyasi (imitator)ni qo‘llagan holda parashyutsiz desantlashtirish (ishg‘ol usulida va vertoletni havoda mualloq turishi rejimida desantlashtirish) bo‘yicha maxsus bo‘linmalar harbiy xizmatchilariga amaliy ko‘nikmalar berish;

shahar sharoitlarida baland bino (inshoot)larga kirish va ulardan chiqish (tushish), guruh tarkibida (jangovar ikkilik, uchlik va h.k.) binoni ishg‘ol qilishda hamkorlikni tashkillashtirish, ko‘p qavatli bino va obyektlarda devor akrobatikasi va boshqa jangovar hamda maxsus vazifalarni bajarishga bo‘linmalarni tayyorlash;

baland tog‘li va boshqa chiqish qiyin bo‘lgan hududlarda harbiy xizmatchilarni qutqarish va evakuatsiya qilish bo‘yicha vazifalarni bajarishni tashkillashtirish va amalga oshirish tartibini o‘rgatish;

harbiy xizmatchilarda balandlikdan qo‘rqish (akrofobiya)ga qarshi immunitetni tarbiyalash;

jamoalarni tog‘ sporti bo‘yicha musobaqalarga tayyorlash.

“Skalodrom” universal majmuasining tarkibiy tuzilishi:

“Skalodrom” universal majmuasi to‘rt tomonli va vertolyot imitatorli qurilmadan iborat bo‘lib, har bir tomoni aniq mashg‘ulot turiga mo‘ljallangan hamda maxsus trenajyor va anjomlar bilan jihozlangan, aynan:

Birinchi tomon: "Etalon" yo'lagi (Xalqaro alpinistlar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan standart) – tezlikda qoyaga chiqish uchun 95º burchak ostida joylashgan sun'iy qoyaga chiqish yuzasi.

Yuza qismi O'zbekiston alpinizm va qoyazabtkorlar Federatsiyasi talablari asosida yassi yuza hosil qiladigan kompozit panellar bilan jihozlangan. Yuzaning har kvadrat metrida ushlagichlarni mahkamlash uchun kamida 21 ta teshik mavjud bo'lib, bu ularni erkin va tez o'rnatilishini ta'minlaydi hamda o'rganuvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab yo'nalishni murakkablik darajasini o'zgartirishga imkon beradi [2].



Ikkinchi tomon: "Relyef" –qoyalarga chiqish, hamda qoya relefining turli murakkab hududlarida yakka tartibda va matashmada harakatlanishni amalga oshirish uchun mo'ljallangan, turli burchaklar ostida jihozlangan **"realistik"** rusumidagi (tipidagi) shishaplastik panellardan iborat yuza (relef).

Shuningdek yuzaning, har bir metr kvadratga 7 tadan kam bo'lmagan teshiklar mavjud bo'lib, bu teshiklar ushlagichlarni o'rnatish va o'rganuvchining tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda, yo'nalishni murakkablik darajasini oshirish yoki kamaytirish imkoniyatini beradi [2].

Uchinchi tomon: "Bouldering"– bouldering va matashmada harakatlanish uchun mo'ljallangan, turli burchaklar ostida joylashgan kompozit panellar bilan



jihozlangan yassi yuza (3-rasm).

Bouldering yuzasi kichik, shu bilan birga yuqori darajali murakkablikka ega (qoyaga chiqishlarning boshqa turlariga qaraganda) yo'nalishlar bilan farqlanishini inobatga olib, ushlagichlar o'rnatish uchun ushbu yo'nalish yuzasining har bir metr kvadrati 17 tadan kam bo'lmagan teshiklar bilan jihozlangan. "Bouldering" tomonida matashmada harakatlanganda karabinlarni mahkamlash va alternativ yo'nalishlarni tanlash imkoniyatlarini beruvchi elementlar mavjud [2].



To'rtinchi tomon: "Balandlik" – kirish eshigi va to'rtta qavatning har birida ikkitadan derazalar bilan jihozlangan 90º burchak ostida joylashgan, ko'p qavatli bino devorini bildiruvchi, yassi yuza.

"Balandlik" harbiy xizmatchilar bilan



balandlik tayyorgarligi mashg‘ulotlarini o‘tish va ko‘p qavatli obyektlarda, bino (inshoot)larni tashqi vertikal devorlarida va boshqa chiqish qiyin bo‘lgan joylarda jangovar – xizmat vazifalarni bajarish usul va uslublarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu yo‘nalish xavfsizlikni tashkillashtirish, tezlikda va qisqa to‘xtashlar bilan tushish, osilib turish, derazalardan turli usullarda xona ichiga kirishni o‘rgatish va boshqa o‘quv – jangovar vazifalar bo‘yicha mashq qilish uchun zaruriy elementlar bilan jihozlangan [3].

“Vertolet” imitatorida bo‘linma (kursant)larni vertolet aviatsiyasidan foydalangan holda turli usullarda desantlashtirish amallarini o‘rgatish va amaliy ko‘nikmalarini oshirish, parashyutsiz (ishg‘ol usulida va vertolet havoda mualloq turishi rejimida) desantlashtirish usullarini, hamda chiqish qiyin bo‘lgan joylarda qutqaruv va evakuatsiya ishlarini tashkillashtirish va vazifalarni bajarish tartibini shaxsiy tarkibga o‘rgatish imkoniyatiga ega.

“Skalodrom” universal majmuasi 360º aylanadigan (10 km/s tezlikka ega) ikki tomonlama o‘qqa ega vertolet imitatori bilan jihozlangan.

“Vertolet” imitatori jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini xavfsiz va sifatli amalga oshirish uchun turli diametrga ega troslar, kanatlar, xavfsizlik kamarlari, qutqaruv zambillari, karabinlar, muftalar va boshqa anjomlar bilan butlangan.

“Skalodrom” shuningdek, bo‘linmalarni vertolyot aviatsiyasidan foydalangan holda turli usullarda desantlashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishga zamin yaratib, shaxsiy tarkibni parashyutsiz desantlashtirish usullarini (hujum usuli va osilib harakatlanish rejimida), shuningdek baland tog‘li va boshqa borish qiyin bo‘lgan hududlardan harbiy xizmatchilarni evakuatsiya qilish va qutqarish ishlarini tashkillashtirishni amalga oshirish bo‘yicha vazifalarni bajarishga o‘rgatadi [2].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mintaqada va jahonda sodir bo‘layotgan harbiy mojarolar tahlilidan kelib chiqib, bo‘linmalarni jangovar tayyorgarligida asosiy e’tiborni nafaqat tekislik va baland tog‘li hududlarning ekstremal sharoitlarda jangovar harakatlar olib borishga tayyorlash, balki aholi yashash punktlari va ko‘p qavatli binolar mavjud shahar sharoitlarida, ayniqsa bino (inshoot)lar ichida muvaffaqiyatli jang olib borishga o‘rgatish bugungi kun dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Bunda asosiy e’tiborni bo‘linmalarni yaqin masofada va bino (inshoot)lar ichida samarali jang olib borish uchun mo‘ljallangan qurol-aslahalar bilan ta’minlash, asosiysi o‘quv-moddiy bazani yaratishda balandlik tayyorgarligi hamda turli hajmdagi va ko‘rinishdagi binolar



maketlarini yaratishga qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev, "Yangi O'zbekiston strategiyasi", 2021-464 b.
2. Noritov, F. T. "Skalodrom"universal majmuasini barpo etish (skalolaz) shifri loyihasi. / Grant ishi. O'R QK Akademiyasi, – Toshkent, 2020. -250 b.
3. "Balandlik tayyorgarligi" O'quv qo'llanma. / Z. Z., Shomurotov, O'R QK Akademiyasi. – Toshkent, 2023. – 77 b.

Duschanov Sh.Sh., Shomurotov Z.Z. Tog'-balandlik tayyorgarligida zamonaviy trenajyor ("Skalodrom" universal majmuasi)ning roli

Maqolada "Skalodrom" universal majmuasining mo'ljallanishi, vazifasi va mavjud o'quv nuqtalarining tarkibiy tuzilishlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: skalodrom, tog'–balandlik, majmua, etalon, qoya, bouldering, vertolet imitatori, shahar, matashma.

Дусчанов Ш.Ш., Шомуротов З.З. Роль современного тренажёра (универсального комплекса "скалодром") в горно-высотной подготовке

В статье описываются назначение, функции и структура существующих учебных точек универсального комплекса "Скалодром".

Ключевые слова: скалодром, горно-высотно, комплекс, эталон, скала, боулдеринг, тренажёр вертолёта, город, связка.

Duschanov Sh.Sh., Shomurotov Z.Z. The role of a modern simulaton (the universal complex "Skalodrom") in mountain-high altitude training

This article describes the purpose, function and structure of the existing educational points of the universal complex "Skalodrom".

Key words: skalodrome, mountain-height, complex, reference, rock, bouldering, vertolyot simulator, city, bunch.

Giyasov Dilshod Fazlidinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i;
Kuvondikov Zafar Komiljonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi “Kasbiy tayyorgarlik” sikli o‘qituvchisi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Tarixiy hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilishda ma’lum bo‘ldiki, davlat taraqqiyotining turli bosqichlarida harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasiga turli darajada e’tibor qaratilgan. Ba’zan ish jadal olib borilgan, zarur hujjatlar, darslik va kitoblar ishlab chiqilgan. Biroq mazkur tarixiy hujjatlarda harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga to‘xtalib o‘tilmagan. Bundan xulosa qilindiki, zamonaviy Qurolli Kuchlarda huquqiy ta’lim darajasini oshirish sifat jihatidan yangi, malakali, har tomonlama rivojlangan, o‘z mahoratini O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xizmatida qo‘llashga qodir bo‘lgan mutaxassislarni shakllantirishning zarur shartlaridan biridir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat kundalik hayot yoki pedagogik faoliyatda balki kasbiy sohada ham milliy qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlarni qo‘llash tartibi, jamiyat uchun ahamiyati va ularni qo‘llash tajribasi to‘g‘risidagi bilimlarni tarqatishdan muhim hisoblanadi. “O‘z burchini bajarishdan mamnun odamgina erkin yashaydi”, – degan edi Sitseron. Burch bilan huquq bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni ayro tasavvur etish qiyin. Chunki huquqini yaxshi bilgan odam burchini ham ado eta oladi. Shu orqali hayotda o‘z o‘rnini topadi, jamiyat uchun xizmat qiladi. Huquqiy madaniyat rivoji har qanday muammo yechimining asosiy mezonidir [1].

Harbiy xizmatchilarni huquqiy tarbiyalash jarayonining mohiyati, tuzilishi va mazmuni quyidagilar bilan belgilanadi: huquqiy ta’lim jarayoni maqsadga muvofiqdir harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlarining harbiy xizmatchilarning huquqiy bilim darajasini oshirish bo‘yicha faoliyati, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining ilmiy-pedagogik ta’rifi va unga o‘zaro ta’sir qiluvchi elementlar, maqsadlar, vazifalar, subyektlar, obyektlar, qonuniyatlar, tamoyillar, qarama-qarshiliklar, usullar (texnika va vositalar), shakllar va natijalar shular jumlasidandir. Shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishishda harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatini, qonunga bo‘ysunish xulq-atvorini, harbiy va fuqarolik javobgarligini shakllantirish va rivojlantirish; huquqiy o‘z-o‘zini bilishni rivojlantirish; harbiy xizmatchilarning kognitiv faoliyatini optimallashtirish, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilarning turli toifalari uchun siyosiy axborotlar, siyosiy darslar va siyosiy soatlar; ma’ruzalar, konsultatsiyalar davomida harbiy yuristlar tomonidan huquqiy ta’limni tashkil etish; zamonaviy davrda harbiy munosabatlar tizimiga qonuniy minimumni joriy etish; huquqiy soatlar, huquqiy bilimlar haftaliklari, harbiy xizmatchilar bilan huquqiy maslahatlar o‘tkazish, harbiy advokatlarning bevosita ishtirokida yuqori harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlarining buyruqlarini har hafta yetkazish muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, “Har bir harbiy xizmatchining professional bilim va malakasi, aqliy salohiyati, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish o‘ta muhim ahamiyatga egadir” [2].

Huquqiy ta’limning zamonaviy amaliyotini tahlil qilish “maqsadlar (shakllar) – usullar” - subyektlar tomonidan qo‘llaniladigan va normativ hujjatlarda

mustahkamlangan huquqiy ta'lim usullari uning maqsadlarini to'liq amalga oshirishga keng imkoniyat yaratish muhim hisoblanadi. Biroq, "tegishli mavzular – obyektlar" - pedagogik mahorat darajasining yetarli emasligi yuridik ta'lim subyektlari va huquq sohasidagi mutaxassislarning kam sonliligi harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi darajasini to'liq oshirishga imkon bermayapti. Shuningdek, o'quv jarayonidagi muayyan "usul-vosita – shakllar"ning samaradorligini past darajasi axborot uzatishning interfaol vositalari huquqiy ta'limning mavjud shakllarining to'liq imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, huquqiy ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berishga va hokazolarga imkon berayotgani yo'q. Shu boisdan ham huquqiy takomillashtirishning kompleks va maqsadli dasturi ta'lim, uning rivojlanish jarayonida huquqiy ta'limning tasdiqlangan va mavjud uslublari bilan birgalikda harbiy xizmatchilar bilan ishlashning o'ziga xos usullarini ilmiy asoslash va tajriba sinovdan o'tkazish imkoniyatini bermoqda. Ayni shu ma'noda harbiy xizmatchilar o'rtasida huquqshunoslik bo'yicha darslarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda komandirlar (boshliqlar) bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish; harbiy xizmatchilar bilan amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar shaklida mashg'ulotlar o'tkazish; harbiy xizmatchilardan kelib chiqadigan savollar to'plami tashkil etish, harbiy-professional mavzularga ham, ijtimoiy-maishiy mavzularga ham taalluqli bo'lib, undan so'ng huquqiy ish bo'yicha darslar davomida tushuntirish, yuridik soatlar, ularni keyinchalik yagona to'plamlarga umumlashtirish, bepul foydalanish uchun huquqiy bilimlar burchaklarida bosma shaklda joylashtirish lozim.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy ta'limini tahlil qilish harbiy xizmatchilarni huquqiy tarbiyalash bo'yicha nazariy ishlar va uni amaliy amalga oshirish o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash imkonini berdi. Bu jarayonda kompleks-maqsadli dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi: harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini rivojlantirish va ularning huquqiy savodxonligini oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish; huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish; harbiy xizmatchilarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishda yordam berish.

Harbiy xizmatchilarning pedagogik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ularning huquqiy bilim darajasini oshirishning turli shakllari va usullarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi kerak, buning uchun harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimini oshirishning turli shakllari va usullarini ishlab chiqish zarur. Chunki 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalardan biri etib belgilandi. Undan tashqari, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli Farmoni qabul qilindi [3].

Shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilarning huquqiy ta'lim darajasini oshirish yo'llari harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlarini, har bir toifadagi harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi, jangovar ishlari jarayonida bandligini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. Shunday qilib, shartnoma asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarni oddiy va serjantlar lavozimlarida o'qitish usullari ofitserlarni tayyorlash usullariga o'xshash bo'lmasligi kerak, lekin bularning barchasi uchun ular kesishishi kerak. Ofitserlar bilan ishlashda ushbu toifadagi harbiy xizmatchilar harbiy ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida, jangovar va hayotiy tajribada olgan aniq bilim va ko'nikmalarga ega ekanligini hisobga olish

zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining huquqiy maqomi, shu jumladan inson huquq va erkinliklari, fuqarolik institutining mazmuni va inson huquqlarini himoya qilish usullarini har tomonlama ko‘rib chiqishga qaratilgan. Davlat jamiyatning iqtisodiy va siyosiy rivojlanish darajasiga qarab shaxsning huquqlari, erkinliklari va burchlarini qonuniy ravishda tasdiqlaydi va rasmiylashtiradi. Qonun chiqaruvchi organ muayyan huquqlarni himoya qilgan holda, faqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shartlarni amalga oshirish huquqlarini belgilashi mumkin. Ya’ni, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar natijasida vujudga keladi. Shaxsning shaxsiy huquqlari qonun chiqaruvchining "sovg‘asi" emas, balki inson uchun ma’lum turmush darajasini ta’minlaydigan ijtimoiy imkoniyatlar hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi inson huquq va erkinliklarini sun’iy “pasaytira” yoki “bo‘rttirib” ko‘rsata olmaydi; u kishilarning ijtimoiy munosabatlariga, jamiyat va davlatning iqtisodiy rivojlanish holatiga asoslanishi nazarda tutilgan.

Shaxs va fuqaroning huquqiy maqomi, shu jumladan, uning asosiy huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari o‘zaro muloqotning muvozanatli usullarini yaratishga, inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarni shakllantirishga ta’sir qiladi. Shu boisdan ham aksariyat adabiyotlarda shaxsning huquqiy madaniyati uning davlat va jamiyatdagi qonuniy tasdiqlangan pozitsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning huquqiy maqomining asosini uning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi belgilab beradi. Shaxsning o‘z erkinligini to‘g‘ri anglashi ham uning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati Konstitutsiyada mustahkamlangan va inson huquqlarining yangi konsepsiyasiga asoslanadi. U shaxs huquq va erkinliklarining umumiy huquqiy me’yorlarini oqilona tushunishida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayni shu masalada xorijiy davlatlardagi Qurolli Kuchlardagi harbiy xizmatchilarni huquqiy madaniyat darajasi turlicha ko‘rinishga ega. Masalan, Suriya Arab Respublikasi hududida Qurolli Kuchlardan faol foydalanishni hisobga olgan holda, harbiy xizmatchilarning, ayniqsa, rasmiy vazifalar va xalqaro gumanitar huquq masalalari bo‘yicha so‘rovi davomida yetarli darajada bilimga ega emasligi qayd etilgan. Ukraina harbiy ma’muriyatning harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimi darajasiga e’tiborini kuchaytirish zarurligi haqida ham ma’lumotlar mavjud. Shu munosabat bilan huquqiy ta’limning eng samarali shakllari, usullari va vositalarini izlash va amalga oshirish, huquqiy ta’lim subyektlarining pedagogik mahorat darajasini oshirish bo‘yicha ishlar olib borilishi kerak. Ayniqsa, “...har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g‘urur kuchli bo‘lishi kerak. Milliy ruh – bu yengilmas kuchdir” [4].

Globallashuv davrida insonning huquqiy maqomi, jumladan, shaxsning huquq, manfaat va erkinliklari, burch va majburiyatlarining insoniyat sivilizatsiyasining dolzarb masalalarini hal etishdagi mazmun-mohiyati va ahamiyati kundan-kunga ortib boradi. Biroq keyingi yillarda inson huquqlarini himoya qilish, ta’minlash va rivojlantirishning asosi bo‘lgan tub o‘zgarishlar ham mamlakatimizda, ham xorijda kuzatilmoqda. Aniqroq aytganda, bugungi kunda uning ehtiyoji va rolini oshirish uchun ko‘plab shart-sharoitlar mavjud. Bu, bir tomondan, jahon globallashuviga asoslangan integratsiya va mintaqaviylashuv jarayoni bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizdagi ichki demokratik va liberal islohotlar jarayonlarining rivojlanishidir. Bularning barchasi inson va fuqaro huquqlarining rivojlanishiga, ularning chuqur ildizlariga, ahamiyati ortib borishiga xizmat qiladi. Inson huquq va erkinliklari institutining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning amalga oshirilishi bilan huquqshunoslik va ilg‘or harakatlar dolzarb, chuqur milliy-huquqiy ma’no va asos topdi. Huquq va erkinliklarni amalga oshirish va himoya qilishning butun masalasi

murakkab va ko‘p qirrali, shuning uchun u ijtimoiy-gumanitar fanlar nazariyasi va amaliyoti uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

Harbiy-siyosiy vaziyatning murakkablashuvi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining maxsus harbiy operatsiyalarni amalga oshirishdagi faoliyatini huquqiy qo‘llab-quvvatlash zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qo‘shinlar qismlarida shartnoma asosida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning huquqiy ta’limini huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonida faol huquqiy tushuntirish faoliyatining turli usullarini amalga oshirish orqali takomillashtirish lozim. Shuningdek, harbiy qo‘shinlar qismlarida kontrakt bo‘yicha muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning huquqiy ta’limining mohiyati, tarkibi, mazmuni va uni takomillashtirishning asosiy yo‘llarini aniqlash va asoslash bo‘yicha tajriba va kompleks maqsadli dasturni amalga oshirish muhim hisoblanadi. “Harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko‘nikmalarini ilm-ma’rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish...” [5] muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari bilan qonun-tushuntirish ishlarini olib borish jarayonida birinchidan, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning harbiy-siyosiy ish tizimida huquqiy tayyorgarligini tizimlashtirish, ikkinchidan, huquqiy axborotning pedagogik salohiyatini amalga oshirish, uchinchidan, shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilar bilan huquqiy tushuntirish ishlarining asosiy subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni optimallashtirish lozim. Ayniqsa, «Vatan himoyasi uchun axloqiy-ruhiy va jismoniy tayyorgarlikni, konstitutsiyaviy va xizmat burchiga sodiqlikni, yuksak fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan vazifalar» [6]ni samarali amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlarida shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning huquqiy ta’limi - ularga huquq, tartib to‘g‘risidagi bilimlarni o‘tkazishning maqsadli jarayoni normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilishi, ularning bevosita harbiy xizmatchilarning o‘zlari, Qurolli Kuchlar, jamiyat uchun ahamiyati va ular egallagan tajribasi to‘g‘risidagi bilim va tajribalari bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, «...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish» chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining harbiy qo‘mondonlik va nazorat organlari va boshqa huquqiy ta’minlovchi subyektlarning faoliyati, ta’lim, harbiy xizmatchilarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro gumanitar huquq normalari, ularni qo‘llash tartibi va ularni himoya qilish usullari to‘g‘risidagi huquqiy bilim darajasini oshirish, qonun ustuvorligiga qat’iy ishonchni shakllantirish; harbiy xizmatning samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarga yuklangan vazifalarni bajarish sifatining mazmuni harbiy xizmatchilarni huquqiy tarbiyalash jarayoni hisoblanadi. Ayni shu maqsadda 1997-yilda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilindi, 2001-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident farmoyishi e‟lon qilindi, 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni, 2019-yil 20–apreldagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to‘g‘risida”gi Nizomning qabul qilindi. Mazkur huquqiy islohotlarning barchasi aynan harbiy xizmatchilarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, pirovardida mamlakatdagi keng ko‘lamli islohotlarga barchani o‘z huquq va

burchlari doirasida faol ishtirokini ta'minlash maqsadining huquqiy asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilariga davlat, huquq, qonunlar va qonuniylik, huquqlar, burch va erkinliklar haqidagi bilimlarni berish, ularda qonun ustuvorligiga ishonch va qonunga itoatkorlik xulq-atvorining qat'iy zarurligini rivojlantirish bilan tuzilishi huquqiy ta'lim jarayoni ham an'anaviy, va aniq, yordam: yaratish (kognitiv, tartibga soluvchi, yordam, amaliy- amaliy, prognostik, kommunikativ, profilaktik), mavzular, hodisalar (qonuniylik, ilmiy ishlar, qulaylik va ommaboplik, muntazamlik, ishchilik, xolislik, ishchilik, harakatchanlik), qarama-qarshiliklar, usullar, shakllar (huquqiy targ'ibot, huquqiy maslahatlar, huquqiy nashrlar adabiyot, huquqiy ta'lim), obyektlar, loyihalar shular jumlasidandir. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining axloqiy-ruhiy ta'minoti konsepsiyasi" [7] ni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarini huquqiy tarbiyalashning aniq mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va uni eksperimental sinovdan o'tkazish: kasbiy (harbiy xizmatchilarning umumiy vazifalarini bilish; bilim xalqaro gumanitar huquq normalari; o'z huquqlarini amalga oshirish tartibini bilish; harbiy huquqni bilish; harbiy xizmatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini bilish; harbiy xizmatni o'tash nuqtai nazaridan jinoyat huquqini bilish); shaxsiy (huquqiy bilim olishning o'zini o'zi baholash; huquqiy o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik; rasmiy faoliyatni amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilish; ijtimoiy huquq normalariga rioya qilish) va boshqalarga alohida e'tibor qaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarini huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimini oshirish;
- harbiy-siyosiy ishlar tizimida huquqiy ta'limni tizimlashtirish;
- shartnoma bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar va serjantlar uchun huquqiy tayyorgarlikka oid mavzularni ko'paytirish;
- ko'rgazmali tashviqot vositalarining sifati va miqdorini oshirish;
- harbiy-siyosiy organlar mutaxassislarining huquqiy bilim darajasini oshirish; huquqiy ta'limning yanada zamonaviy va samarali usullarini joriy etish;
- huquqiy axborotlashtirishning pedagogik salohiyatini ro'yobga chiqarish;
- huquqiy axborotni o'tkazish tartibida komandirlar (boshliqlar) bilan instruktoruslubiy mashg'ulotlar o'tkazish;
- harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini oshirish maqsadida ularning ongiga ta'sir ko'rsatishning zamonaviy usullaridan foydalanish;
- huquqiy axborotni amalga oshiruvchi shaxslarning funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda huquqiy axborotning vazifalarini belgilash;
- huquqiy tushuntirish ishlarining asosiy subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorligini optimallashtirish:
- shartnoma bo'yicha xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar o'rtasida qonunni tushuntirish ishlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish uchun innovatsion standartlarni ishlab chiqish, masofaviy yuridik tizimni joriy etish;
- ma'lumotlarni uzatish tarmog'ining yopiq segmentidan foydalangan holda maslahatlashuvlar;
- tushuntirish ishlari jarayonida axborotni taqdim etishning uslubiy standartlarini ishlab chiqish;
- shartnoma bo'yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini shakllantirish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish;
- Internetda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn platformani ishlab chiqish va ishga tushirish.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarini huquqiy

ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

1) huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish;

2) harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini rivojlantirish va ularning huquqiy savodxonligini oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

3) harbiy xizmatchilarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda yordam berish.

Shuning bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari o'rtasidagi kommunikativlik - harbiy xizmatchilarni o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilish qonunchilik, huquqiy amaliyotda huquqiy ta'lim jarayoniga eng yangi texnologiyalarni joriy etish uning darajasi, sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Profilaktik yondashuv esa harbiy xizmatchilar o'rtasida huquqbuzarliklarga olib keladigan sabablarni bartaraf etishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ta'limning tarkibiy elementlari o'rtasidagi quyidagicha aloqalar mavjud: tashqi aloqalar- huquqiy ta'limning davlat va dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy-huquqiy jarayonlarga bog'liqligi bilan belgilanadi; Ichki aloqalar – huquqiy ta'lim elementlari, huquqiy ta'lim subyektlari faoliyati, obyektlarning huquqiy tarbiyaga munosabati va uning natijalari o'rtasidagi bog'lanishlar tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: harbiy-huquqiy ta'lim tamoyili - zamonaviy armiyaning rivojlanish qonuniyatlari va undagi o'ziga xos huquqiy jarayonini belgilovchi g'oyalar va qoidalarni huquqiy tartibga solish tufayli yuzaga keladi: qonuniylik tamoyili esa majburiy huquqiy normalar, harbiy xizmatchilar tushunishida qulayroq bo'lishi uchun qonun normalarini, ularning ishlash va qo'llash qoidalarini majburiy tushuntirishni nazarda tutadi; soddalik tamoyili - harbiy xizmatchilarni huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida har qanday toifadagi va ma'lumotli ular tomonidan tushunish uchun eng qulay tilda tushuntirish; tizimlilik tamoyili - harbiy faoliyatda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan rejalarga muvofiq huquqiy ta'limni uzluksiz olib borishni nazarda tutadi; mustahkamlik tamoyili - harbiy xizmatchilari huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda qo'llaniladigan barcha mavjud usullar, shakl va vositalardan maksimal darajada foydalangan holda huquqiy tarbiyani olib borish; obyektivlik tamoyili – axborot taqdim etish qonun hujjatlaridagi barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'z vaqtida amalga oshirilishi; ketma-ketlik tamoyili – harbiy xizmatchilarni huquqiy bilimi "eng kichikdan kattagacha" amalga oshirilishi kerak, ya'ni har bir keyingi voqea harbiy xizmatchining ma'lum darajadagi huquqiy ma'rifatini o'rnatishdan oldin amalga oshirilishi lozim; maqsadga muvofiqlik tamoyili - harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini ma'lum darajasiga ko'tarish uchun muayyan usul, shakl yoki texnikani qo'llashning to'g'riligi haqidagi savolni ochib beradi.

Xullas, davlat va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasiga e'tibor qaratiladi. Ba'zan ish intensiv ravishda, zarur hujjatlar, darsliklar va kitoblarni ishlab chiqish bilan olib boriladi. Zamonaviy Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatchilarimizni huquqiy ta'lim darajasini oshirish sifat jihatidan yangi, barkamol, har tomonlama rivojlangan, o'z mahoratini nafaqat O'zbekiston Respublikasi xizmatida qo'llashga qodir bo'lgan mutaxassislarni shakllantirishning zarur shartlaridan biridir. Bu O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining obro'sini ham mamlakat ichida, ham chet elda sezilarli darajada oshiradi va natijada davlatga jahon siyosiy maydonida o'zining munosib o'rnini himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Utamuradov, A., Khojiev, T., Isanova, G., & Khaytmetov, R. (2020). The Prospects of a New Template of the Modernization Uzbekistan. Jour of of Adv Research in Dynamical & Control Systems, 2(12), 2670-2676.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi / Xalq so‘zi. №3. 2019 yil 14 yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 09 yanvardagi —Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida‖gi PF-5618-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4149765

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoevning Xafvsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi vazifalari.

5. «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi PQ-3898-son Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 2 noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayèrlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3995son Qarori. - https://lex.uz/docs/4037440.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari axloqiy-ruhiy ta’minoti konsepsiyasi”.

Ummatqulov Farrux Murodjonovich,
O'R QK Akademiyasi tayanch doktoranturasi katta ilmiy xodimi (doktorant)

JANGOVAR HARAKATLAR DAVOMIDA DUSHMANNING ZIRHLI OBYEKTLARIGA QARSHI KURASHISH TIZIMINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Hozirgi kunda dunyoda oldindan aytish qiyin bo'lgan vaziyat hukm surayotgan murakkab bir sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasining qoidalariga asoslangan xolda davlat mudofaa saloxiyatini mustahkamlash, ixcham, tez harakatlanuvchi bo'linmalarni joriy etish shu bilan birga, zamonaviy qurol, jangovar va maxsus texnikalar bilan butlash pirovard maqsadimizga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, umumqo'shin qo'shilmalarini mudofaa jangini olib borishda tank (zirhli obyekt)ga qarshi mudofaa tizimini jangovar qo'llash bo'yicha tarixiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish hamda asosli xulosalar qilish uchun moziyga nazar solish va ular asosida kelajakdagi mudofaa xarakteriga ega bo'lgan janglarda tankka qarshi mudofaa tizimi (TQMT)ni samarali qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish bugungi kunda shubhasiz dolzarbdir.

Zirhli obyektlarga qarshi kurashish tizimi - dushmanning tanklari, piyoda jangovar mashinalari va zirhli transport vositalarining hujumlarini qaytarish va ularni yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

ZOlarga qarshi kurash tizimining paydo bo'lishi birinchi Jahon urushida tanklarga qarshi jangda ilk bor Buyuk Britaniya tomonidan 1916-yil 15-sentabr kuni Somma daryosi bo'yida Germaniya armiyasiga qarshi jangda qo'llanilgan [1,2].

Qudratli, lekin sust harakatlanuvchi tanklar Birinchi Jahon urushi natijasiga o'z ta'sirini ko'rsatmagan. Tanklar hali takomillashmagan bo'lib, ularning birinchi hujumlari tezda bartaraf qilindi. Shu sababli tanklardan, piyodalarni dushmanning mudofaa pozitsiyalariga yaqinlashishlariga ko'maklashuvchi vosita sifatida foydalanildi [1,2,3]. Shu sababli ZOlarga qarshi kurashish tizimini mustahkamlashga qo'shinlar tomonidan ko'p ahamiyat berilmadi.

O'sha davrda tanklarga qarshi kurashishning asosiy vositasi sifatida dala artilleriyasi hamda tankka Ikkinchi Jahon urushi davriga kelib ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirishni mustahkamlash masalalariga barcha davlatlar asosiy e'tiborini qaratdilar. Bunga sabab tanklarni ommaviy ishlab chiqarilishi va urushlarda asosiy qurol sifatida qo'llanilishi bo'ldi.

SSSRning 1936-yildagi Dala nizomida TQMTga: *"Hujum qiluvchi dushman yo'lini to'sib qo'yish, piyoda va tanklarga talafot yetkazish hamda o'z piyodalari hamda tanklarining qarshi hamlasini ta'minlab berish"* kabi vazifalar yuklatilgan [1,2,4].

1940-yilning dekabr oyiga kelib qo'shma harbiy yig'ilishda xalq mudofaasi komissari: *"mudofaa - artilleriyaga qarshi, tankka qarshi, samolyotga qarshi hamda chuqur eshelonli, barqaror va aktiv"* bo'lishligini aytib o'tgan.

O'sha vaqtda ushbu ZOlarga qarshi kurashish tizimi quyidagilarni o'z ichiga oldi: tanklarning batalyonga qarshi tugunlariga birlashtirilgan kampaniyalarning tanklarga qarshi tayanch punktlari; tank uchun xavfli hududlarda yaratilgan tankka qarshi maydonlar; tank pistirmalari; artilleriya va tankka qarshi zaxiralar; mobil baraj bloklari; yopiq o'q otish joylarida joylashgan artilleriya; tankka qarshi to'siqlar. Shuningdek, urush vaqtida tankka qarshi kurashuvchi polklar hamda Oliy Bosh Qo'mondonning tankka qarshi zaxira brigadalari tuzildi.

Shu bilan birga Ikkinchi Jahon urushiga kelib to'siq o'rnatuvchi bo'linmalar birinchi marta amalga joriy qilindi.

Urushning har bir bosqichida ZO larga

qarshi kurashish tizimining samaradorligi keskin oshib bordi. Ikkinchi Jahon urushi boshlanishida barcha operativ, operativ-taktik va taktik bo'g'indagi bo'linmalar tashkiliy-shtat tarkibiga *"tankka qarshi rota va batalyonlar"* kiritildi. Shu bilan birga tankka qarshi kurashish imkoniyatiga ega qurol va boshqa vositalarni ishlab chiqarishga asosiy e'tibor qaratildi [1,4,5].

Urushning ikkinchi va uchinchi davrida ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirishning asosini odatda, tankka qarshi g'ovlar va artilleriya olovlari egalladi.

Ikkinchi Jahon urushining uchinchi davriga kelib yetarlicha kuch va vositalarga ega *tankka qarshi zaxira* yaratildi [1-jadvalga qarang]. Tankka qarshi qurol va vositalar son hamda sifat ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich oshirib borildi.

1-jadval

Ikkinchi Jahon urushida TQ qurollarni ishlab chiqish tendensiyalari

T/r	Urush yillari	Tankka qarshi qurollar	Tankka qarshi vositalar	Izoh
1.	1941 y.	17688	1220	
2.	1942 y.	77600	12000	
3.	1943 y.	184800	63308	
4.	1944 y.	257500	103000	
5.	1945 y.	300000	162000	

Izoh: jadval [1,4,5] ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi.

Shu bilan birga barcha asosiy bo'linmalarga tankka qarshi faol kurash olib borish vazifalari yuklatildi.

Urushdan keyingi davrda tanklarning takomillashtirish va operatsiyada (jangda) ularning keng ko'lamda qo'llash sababli ularga qarshi kurash yanada murakkablashdi. Tanklarga qarshi mudofaa janglari (jangovar harakatlarda) qo'llab-quvvatlash turidan, mudofaa elementiga aylandi. Ko'pgina hollarda tankka qarshi vositalarni 1 km.dagi zichligi 11 tadan 23 tagacha to'g'ri kelgan [2-jadvalga qarang].

Bu vaqtga kelib mudofaa janglarida ZOlarga qarshi kurashish taktikasi *"chiziq, joy, makon, imkoniyat"* tamoyiliga asoslanib olib borildi.

Misol tariqasida, Kursk ostonasidagi jangda SSSR armiyasining ZOlarga qarshi kurash tizimi faol ishlashi natijasida Germaniya qo'shinlarini 77% tanklari jang maydonini o'zida yakson qilindi, bu esa dushmanni to'liq tor - mor bo'lishiga olib keldi [3,6].

2-jadval

Ikkinchi Jahon urushidagi mudofaa operatsiyalarida tankka qarshi vositalarni jangovar tarkibi va zichligi

O'tkazilgan sana, Armiya	Mudofaa kengligi(km)	Shtatdagi *TQ bo' l*	Kuchaytiruvchi (*ap*)		Barcha tank, TQ qurol, art-ya...	1 km mudofaa kengligidagi zichlik	
			Jami	Shu jumladan *saf-k*		Umumiy	TQ artilleriya
Shimoli-G'arbiy front 8-Armiya 1941y. 22.06	160	10	3	1	922	5,7	0,8
Shimoli-G'arbiy front 8-Armiya 1941y. 08.07	220	4	4	2	104	0.5	0,06
G'arbiy front16-Armiya 1941y.10.10.	24	4	3	1	248	10,3	2.8
Leningrad front 55-Armiya 1941y. 01.12	22	9	1	-	726	33	16,9

O'tkazilgan sana, Armiya	Mudofaa kengligi(km)	Shtatdagi *TQ bo' l*	Kuchaytiruvchi (*ap*)		Barcha tank, TQ qurol, art-ya...	1 km mudofaa kengligidagi zichlik	
			Jami	Shu jumladan *saf-k*		Umumiy	TQ artilleriya
Stalingrad front 62-Armiya 1942y. 15-23.07	100	6	11	5	876	87,6	9,3
Leningrad front 55-Armiyasi 1943y. 01.05	45	7	16	2	724	16,1	5,3
Markaziy front 13-Armiya 1943y. 04.07	32	12	28	3	2123	66,4	19,7
Voronej front 6 gv-Armiya 1943y.04.07	64	7	21	7	1254	19,5	7,4
3-Ukraina front 4 gv-Armiya 1945y. 06.03.	39	9	26	4	1098	28,1	9,7
3-Ukraina front 57-Armiya 1945y. 06.03	60	7	6	2	781	13,1	4,1

Izoh: jadval [1,4,5] ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

1. Qurolli kuchlar tarkibiga tanklarni kirib kelishi ZOlarga qarshi kurashish vositalarini paydo bo'lishiga olib keldi;

2. Tankka (zirhli obyektga) qarshi samarali kurash olib borish barcha davlatlarning asosiy maqsadiga aylandi. Ayniqsa ZOlarga qarshi kurashish tizimini mustahkamlash orqali jangda g'alaba qozonish asosiy omilga aylandi;

3. Barcha bo'g'indagi bo'linmalar tashkiliy shtat tuzilishi tarkibida tankka qarshi kurashuvchi bo'linmalarni tashkil qilish orqali ZOlarga qarshi kurashish tizimini mustahkamligiga erishildi. Shuningdek, muhandislik bo'linmalarini ham mudofaa janglaridagi asosiy roli keskin ortdi.

Urushdan keyingi davrda ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirish tahlili.

Koreya urushi (1950-1953 yy). Koreya urushi tarixda *"Tankka qarshi minalar urushi"* deb nom olgani bejizga emas. Koreya urushi asosan to'rt bosqichda olib borildi. Barcha bosqichlarda qarama-qarshi tomonlar o'z ZOlariga qarshi kurash tizimlarini bosqichma-bosqich rivojlantirib bordilar. Ayniqsa ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirishning asosini, tankka qarshi (TQ) kurashuvchi bo'linmalar, TQ artilleriya, TQ reaktiv miltiq va TQ to'siqlar tashkil etdi. Shuningdek, mudofaa polosasini barpo etishda tankka qarshi g'ovlardan keng foydalanilgan [2,6,7].

Yana bir o'ziga xos jihati birinchi eshelonda mudofaalanayotgan bo'linmalar aylana mudofaa rayonlarini hosil qilish orqali mudofaani mustahkamladi hamda ko'chma tankka qarshi minalardan foydalanildi. Shu bilan birga dushmanning tank kelish xavfi bor yo'nalishlari tankka qarshi orudiyalar va minalar bilan kuchaytirildi. Umumiy qilib aytganda Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda Koreya urushi haqiqiy ZOlarga qarshi kurashish tizimini samaradorligini mustahkamlash zaruriyati bo'yicha barcha davlatlarga namuna bo'ldi.

Arab-Isroil urushi (1952-yil, 1967-yil, 1973-yillar). XX asrning boshqa urushlariga qaraganda ushbu urush noodatiy ko'rinishda boshlangan va olib borilgan.

Arab-Isroil urushlarida ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirishda tank, o'ziyurar artilleriya va tankka qarshi boshqariluvchi raketali snaryadlardan foydalanish o'z rivojini topdi. Shuningdek, ZOlarga qarshi kurashuvchi rota, batalyon hamda TQ artilleriya divizionlari armiyalarning umumqo'shin qo'shilmalari

TShT tarkiblariga kiritildi va bu tuzilmalar jang vaqtida o‘z samarasini berdi [7,8].

1967-yilgi Arab-Isroil urushida qo‘shinlar gruppirovkasini tashkillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida zirhli tank brigadasi, piyodalar brigadasi, dala artilleriya divizionlari va muhandislik qo‘shinlari bo‘linmalaridan iborat TQ kurashuvchi *“tezkor-taktik guruhlar”* tuzilib jang vaqtida bevosita qo‘llanildi. Zirhli tank brigadalarida tank batalyoni, motopiyoda rotasi, o‘ziyurar gaubitsa batareyalari va tankka qarshi boshqariluvchi raketa batareyalaridan iborat *batalyon taktik guruhlar* tashkil etilgan.

1973 yilgi Arab-Isroil urushida barcha asosiy bo‘linmalar ZOlarga qarshi kurashish imkoniyatiga ega zirhli texnika va vositalar bilan butlandi. Shu bilan birga barcha taktik bo‘g‘indagi bo‘linmalar tarkibida ZOlarga qarshi kurashuvchi bo‘linmalar paydo bo‘ldi bu esa, bo‘linmalarni mustaqil harakatlanish qobiliyatini yanada oshirdi [7,8]. Tankka qarshi vositalar esa tegishli taktik usullar bilan uzviy boyitildi [1-rasmga qarang].



1-rasm. Arab-Isroil urushida tankka qarshi vositalarining jangovar qo‘llanishi

Shu bilan birga harbiy texnikalarning rivojlanishi oqibatida dushmanning tanklariga qarshi kurashishda vertolyotlarga o‘rnatilgan tankka qarshi boshqariluvchi raketa (TQBR)lardan keng ko‘lamda foydalanildi va vertolyot otryadlardan iborat tankka qarshi zaxiralar tuzildi [2- rasmga qarang].



2-rasm. Vertolyotlarni tanklarga qarshi zaxira sifatida qo‘llanishi

Xulosa qilib aytganda, Arab-Isroil urushida ZOga qarshi kurashuvchi bo‘linmalar umumqo‘shin brigadalar tarkibiga to‘liq bo‘ysundirilgan hamda ularni

zamonaviy qurollar bilan ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ZOlarga qarshi kurashishda aviatsiya vositalari hamda katta masshtabli tankka qarshi minalardan keng foydalanilgan. Natijada ikki tomondan 2700ga yaqin tank va boshqa zirhli texnikalarni yo'qotilishiga olib kelgan.

Eron-Iroq urushi. Eron-Iroq urushi (1980-1988 yy.), chegara oldi hududiy nizolar orqasidan kelib chiqqan. 1980 yilning sentabr oyiga kelib Iroq Qurolli Kuchlari katta gruppirovkani jamlagan xolda davlat chegarasini yaqinida pozitsion mudofaaga o'tdi.

Shu bilan birga harakatchan mudofaa elementlarini ham tashkil qilgan holda Eron Islom Davlati (Eron ID) qurolli kuchlariga jiddiy qarshilik ko'rsatdi. Ayniqsa Yaqin sharqdagi janglar mustahkam ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirish muhim masala ekanligini ko'rsatdi. Bunda asosiy e'tibor ZOlarni *uzuq masofalardan yakson qilishga* qaratildi. Shu bilan birga dushman tanklarini qo'lga kiritish orqali, o'ziga nisbatan foydalanish asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Bunda asosiy rolni stvolli artilleriya, TQBR, tank va vertolyotlar o'ynadi [7,8,9].

Iroq QK tomonidan qo'llanilgan dushman ZOlariga qarshi kurashishning eng samarador taktik usuli dushman tanklarini *"tankka qarshi qoplarga"* tushirish orqali yakson etish bo'ldi va yakunda bu o'z natijasini berdi. Unga ko'ra urushni birinchi davrida bitta tank brigadasi o'rtacha 80 dona tankni yo'q qilishga erishdi. Bunda motoo'qchi va tank bo'linmalari TQBRlar bilan kuchaytirildi.

Shuningdek, vertolyot bo'linmalaridan tankka qarshi zaxira sifatida foydalanildi.

Eron armiyasida esa dushman ZOlariga qarshi kurashda *Dragon* va *TOU* tankka qarshi boshqariladigan raketalari, 57 mm va 106 mm orqaga qaytarilmaydigan qurollar hamda tankka qarshi qo'l granatomyotidan (RPG-7) foydalandilar. Bundan tashqari, Eron ID QKlari tarkibida dushmanning ZOga qarshi kurashuvchi mototsikldagi kichik guruhlarni tashkil qilish orqali mudofaaning barqarorligini yanada oshirdilar [9,10,11].

Eron-Iroq urushida jangovar tartibida TQK bo'linmalarini joylashuvi va jangovar qo'llanishi 3-rasmda yoritib berilgan.



3-rasm. Eron-Iroq urushida jangovar tartibida TQK bo'linmalarini joylashuvi va jangovar qo'llanishi

Xulosa qilib aytganda, Eron-Iroq urushi natijalari shuni ko'rsatdiki shtatda mavjud TQ bo'linma va vositalarga ega bo'lgan qo'shinlar dushmanning ZOlariga qarshi kurashuvchi asosiy vositadir. Shu bilan birga mustahkam mudofaa pozitsiya, rayon va marralar tizimini muhandislik jihatdan mustahkamligi asosiy yutuq sifatida belgilandi.

Birinchi va ikkinchi Chechen kompaniyalari (1994-1996 y, 1999-2000 y). Rossiya Federatsiya (RF)sining Checheniston

Respublikasidagi noqonuniy qurollangan tuzilmalar (NQT) ga qarshi harbiy operatsiyasi ikkita davrda amalga oshirilgan.

Ushbu operatsiyalar davomida NQT tomonidan RF QKlari tarkibidagi ZOlariga katta talofatlar yetkazilgan. Asosan operatsiyani borishi shahar va aholi yashash punktlarida kechganligi sababli jangarilar *harakatchan* TQ qurollar va guruhlar taktikasidan foydalangan [2,10,11].

Bu operatsiyada RFning eng katta xatosi zirhli bo'linmalarni motoo'qchi bo'linmalar bilan qo'llab-quvvatlanmagani bo'lgan. Natijada NQT tomonidan pistirmada turgan holda TQ qo'l granatomyoti (RPG-7) va qo'lbola TQ portlovchi vositalar bilan ZOlarga katta talofat yetkazilgan.

Operatsiyaning ikkinchi yarmiga kelib RF siyosiy rahbariyatining ko'rsatmasiga asosan shahar sharoitlarida zirhli texnikalarni harakati mergan va pulemyotchilar bilan qo'llab- quvvatlandi va bu yakunda o'z natijasini berdi.

Zero unutmaslik kerakki NQT tarkibida ham hozirda zamonaviy tank va tankka qarshi vositalar mavjud. Bu esa, harbiy operatsiya davomida NQT jangarilari tarkibidan qo'lga kiritilgan yoki yo'q qilingan vositalarda o'z aksini topdi.

Amerika Qo'shma Shtatlari va uning tarafdorlarini Iroqdagi "Iroq ozodlik" harbiy operatsiyasi 2003-yil 20-martda ikkita bosqichda Iroq Demokratik Davlati (Iroq DD)ga qarshi olib borildi.

Ushbu operatsiyaning o'ziga xosligi shunda ediki asosan jangovar harakatlar havodan amalga oshirildi. Shunday bo'lsa-da AQSh va uning tarafdorlari tomonidan tuzilgan gruppirovkada qarib 1000 ga yaqin tankka qarshi vositalar, 500 ga yaqin tank va 1000 ga yaqin zirhli texnikalar qatnashdi. Barcha harakatlar havodan qo'llab-quvvatlanib turdi. Eng e'tiborlisi ZOlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalarni harakatlari uchuvchisiz uchish apparatlar (UUA) orqali boshqarilib turdi. Shu bilan birga barcha asosiy bo'linmalar cho'l sharoitida harakatlanishga mo'ljallangan zirhli texnika va TQBRlar bilan kuchaytirildi. ZOlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalarni harakati, shuningdek, mergan va pulemyotchilar harakati bilan qo'llab-quvvatlandi [10,11].

Birinchi marotaba UUAlari orqali dushman ZOlariga qarshi zarbalar berildi. Natijada Iroq DD QKlarining 41 % ZOlari tez fursatda bostirildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu operatsiyani amalga oshirishda TQ kurashuvchi bo'linmalarni havodan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, UUA orqali yo'naltirish o'z samarasini berdi.

Suriya fuqarolar urushi. Suriyadagi mojaro dastlab, 2011-yilda Prezident Bashar Asad bilan jamiyatning norozi qismi o'rtasidagi ichki qarama-qarshilikdan kelib chiqqan edi. Inqirozga asta-sekinlik bilan diniy aqidaparastlar, kurdlar, shuningdek, Turkiya, Rossiya, AQSh, Eron va ko'plab arab mamlakatlari aralashib ketdi.

Ushbu urushda ZOlarga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirishning zamonaviy ko'rinishlari vujudga keldi. Ayniqsa *"Shaxidmobil"* larni jangovar harakatlarda qo'llanilishi bu hozirgi rivojlangan davlatlarning QKlari tarkibidagi ZOlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalar zimmasiga ko'p muammolar tug'dirdi. Shahidmobillarga qarshi kurashishda artilleriya, aviatsiya, va granatomyotlarni qo'llanilishi o'z natijasini bermadi. Ushbu ZOlarni yo'q qilishda TQBRlar asosiy o'rin tutdi. TQBRlar har qanday qalinlikdagi zirhni teshib o'tishga qodirligini isbotladi. Shu bilan birga taktik pog'onadagi bo'linmalar va NQT tarkiblarida mobil ZOga qarshi qurollar keng qo'llanildi. Shuningdek, tankka qarshi minalar va g'ovlardan keng foydalanildi [6,11].

Umumiy holatda NQTlarni tehnikalarini 78 % talofati TQBRlar hisobiga to'g'ri keldi.

Ushbu mojaro tahlilidan kelib chiqib Suriya davlatini qo'llab-quvvatlagan Eron, Iroq davlatlari, shuningdek, AQSH, Rossiya, BAA, Turkiya, Angliya va Fransiya davlatlari o'z QKlari tasnifida TQBRlar bilan ta'minlangan bo'linmalarni yaratishga jiddiy kirishishdi [11].

Xulosa qilib aytganda, xozirgi tahlikali zamonda barcha umumqo'shin bo'linmalari tarkibida ZOlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalarni yaratish, ularni zamonaviy TQ qurollar bilan butlash barcha rivojlangan davlatlarning asosiy maqsadiga aylanib bormoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlari va uning

tarafdorlarini Afg'oniston davlatidagi harbiy operatsiyasi (2001-2014 yy). Ushbu operatsiya Afg'oniston hududdida NQT hisoblangan Tolibon jangarilariga qarshi AQSh va uning tarafdorlari tomonidan olib borilgan tarixdagi eng uzoq davom etgan operatsiyalardan biri hisoblanadi.

AQSh va qo'llab-quvvatlovchi davlatlar tomonidan jangarilarni ZOlariga qarshi kurashish tizimini tashkillashtirish quyidagi tartibda amalga oshirildi. Barcha asosiy bo'linmalar tarkibi, ZO larga qarshi kurashuvchi bo'linma va TQBRlar bilan butlandi. Shu bilan birga ZOlarga qarshi kurashda havodan ham qo'llab-quvvatlash amalga oshirildi. Yana bir o'ziga xos jihati artilleriya qurollarini bir qismi dushmanning ZOlariga qarshi kurashish uchun ajratildi [10,11].

Operatsiya davomida jangarilar assimetrik harakatlarga asoslangan partizanlar taktikasini qo'lladilar. Gruppirovka tarkibiga to'satdan qisqa muddatli zarbalar berish, *shahid* va *shahidmobillar* orqali baza rayonlariga hujum qilish orqali o'z harakatlarini olib bordilar. Natijada operatsiyaning boshlang'ich bosqichida gruppirovka tarkibida katta talofatlar yuzaga keldi.

Natijada AQSH va uning tarafdorlari o'zlarini taktik tuzilmalarini tuzilishi va taktikasiga jiddiy o'zgartirishlar kiritdilar [11].

Shahidlarga qarshi harakatchan merganlar orqali, shahidmobillarga qarshi esa TQBRlarni faol qo'llash orqali jangovar harakatlarni olib bordilar. Shuningdek, jangarilarni boshqa ZOlariga qarshi UUAlari va aviatsiya zarbalaridan keng foydalandilar.

Umumiy qilib aytganda ushbu harbiy operatsiya tarixda ZOlarga qarshi kurashishda noan'anaviy ko'rinishi bilan ajralib turdi.

Rossiya-Ukraina davlatlarida olib borilayotgan jangovar harakatlar.

2021-yil 24-fevral kuni Rossiya prezidenti tomonidan Ukrainaga qarshi maxsus operatsiya boshlanganini e'lon qildi. Rossiya - Ukraina o'rtasidagi maxsus operatsiyani dastlabki 2 oyida Ukraina Qurolli Kuchlarini ZOga qarshi kurashish uchun tuzilgan bo'linmalari klassik usulda jangovar harakatlarini rejalashtirdilar va olib bordilar [12,13.]. Natijada ushbu bo'linmalarni barcha harakatlari samarasiz yakunlandi hamda 23 % ZOlarini talofatiga sabab bo'ldi. Shundan so'ng ZOlarga qarshi kurashuvchi bo'linmalarning TSHT hamda taktik harakatlariga tub o'zgartirishlar kiritildi. Umumqo'shin bo'linmalari tarkibiga ZOlarga qarshi kurashuvchi mobil bo'linmalar biriktirildi. ZOlarga qarshi faol kurash olib borish maqsadida Ukraina armiyasi tarkibidagi bo'linmalar AQShlarining "Javelin" FGM-148 tankka qarshi raketa komplekslaridan hamda Turkiyaning "Bayrakdar TB 2" UUAlaridan keng foydalandilar. Natijada jangovar harakatlar mobaynida RFning 120-150 ga yaqin ZOlarini yakson qilishga erishildi [12,13,14].

Yakunda esa, Ukraina Qurolli Kuchlarining tarkibidagi ZOga qarshi kurashuvchi bo'linmalarini dushman tanklari va jangovar texnikalarini yakson qilish ko'lami bir necha marotaba ortdi.

Ushbu urushda shu bilan birga Rossiya armiyasining Kornet SM tankka qarshi raketa kompleksi (TQRK) ham jangovar harakatlarda yakson qilish samaradorligi bo'yicha o'z vazifasini bajara oldi. Urushni hozirgi vaqtiga kelib tomonlarni ZOlarini yo'qotishlar hisobi quyidagicha ko'rinishga ega. (3- jadvalga qarang)

3-jadval

Jangovar texnikalarni (zirhli obyektlarni) yo'qotishlar hisobi.

Tavsifi	RF QK yo'qotishlar	Ukraina QK yo'qotishlar
Yakson qilingan	2437	536
Talofat ko'rgan	74	24
Bostirilgan	316	35
Qo'lga olingan	1356	525
Umumiy	**4183**	**1120**

Izoh: jadval [13,14] ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi.

Hozirgi kunda Rossiya armiyasida ham Ukraina armiyasida ham batalyon, brigada bo‘g‘inidagi bo‘linmalar shtat tarkibida ZOlarga qarshi kurashuvchi rota, batalyon va divizionlar mavjud bo‘lib taktik bo‘g‘indagi qo‘shinlarni mustaqil harakatlanishini ta’minlab bermoqda. Shuningdek, TQMTni samaradorligini oshirish maqsadida TQ artilleriya batareya hamda dvizionlari umumqo‘shin bo‘linmalarga biriktirib berildi [14].

Hozirgi kunga kelib, so‘ngi o‘n yillikdagi urushlar tahlilidan va yuzaga kelgan vaziyatlardan kelib chiqib umumqo‘shin qo‘shilmalarinig zamonaviy TQMT - mudofaa jangini asosini tashkil qilib kelmoqda. Shu sababli bu yo‘nalishda katta ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, NATO tashkilotiga a’zo davlatlarning Qurolli Kuchlari tarkibida alohida ZOlarga qarshi kurashish imkoniyatiga ega alohida bo‘linmalar joriy qilinib, jangovar harakatlarda keng masshtabda qo‘llab kelmoqdalar. Shu bilan birga ZOlarga qarshi faol kurashish imkoniyatiga ega zamonaviy TQBRlar, TQ minalar, TQ kurashish imkoniyatiga ega UUAlari hamda mustahkam qalin zirhga ega jangovar texnikalar yaratilmoqda.

Bu borada RF QKlari tasarrufida ham bir necha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy siyosiy rahbariyatining 2023-yil aprel oyidagi bayonotiga ko‘ra shu yilning avgust oyigacha 10000ga yaqin zamonaviy tank va tankka qarshi vositalar ishlab chiqarish rejalashtirilgan hamda amalda qo‘llash maqsadida Qurolli Kuchlar tasarrufiga yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, markaziy Osiyo davlatlari ham bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi harbiy-siyosiy rahbariyati rivojlangan davlatlar AQSh, Rossiya, Xitoy va Turkiya davlatlari bilan harbiy sohada, bir necha yo‘nalishlarda hamkorlikni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, ZOlarga qarshi kurashish vositalari bo‘yicha ham.

Bundan tashqari dushman tanklariga qarshi samarali kurash olib borish bo‘yicha olimlarimiz tomonidan tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borilmoqda.

Yuqorida ko‘rib chiqqan ma’lumotlardan kelib quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

hozirgi kunda jangovar harakatlar sferasi kundan kunga rivojlanib borayotgan bir vaqtda quruqlikdagi qo‘shinlarni har jihatdan takomillashtirish ularni zamonaviy qurol, jangovar va maxsus texnikalar bilan ta’minlash barcha rivojlangan davlatlarning asosiy maqsadiga aylanib bormoqda;

zamonaviy mudofaa jangida tankka qarshi mudofaa tizimining maqsadi va roli, uning tag tizimining tarkibiy qismlari, unga qo‘yilgan talab va tamoyillarni belgilash orqali jagovar harakatlarda dushmanning ZOga qarshi muvaffaqiyatli harakatlanishga erishish mumkinligi oydinlashmoqda.

Bu borada yetakchi xorijiy davlatlarni ZOlarga qarshi kurashish tizimini o‘rganish, uni tahlil qilish va imkoniyatlarimizdan kelib chiqib zamonaviy, mustahkam, istiqbolli tankka qarshi kurashish tizimini joriy etish asosiy maqsadlarimizdan biriga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гетман, А. Танки идут на Берлин / А. Гетман // – М. Наука, 1973. – 392 с.

2. Зайсев, А.С. О совершенствовании противотанковой обороны / А.С. Зайсев., О.Г. Булатов., А.В. Лебедевю // Военная мысл. 2000. – №5. С.62-67.

3. Крысанов, В.В. Танки и противотанковые средства: противоборство и взаимодействие в бою / В.В. Крысанов. // Военная мысл. 2017. – №4. С.17-23.

4. Степанов, М.В. Искусство обороны во второй мировой войне / М.В. Степанов // Учебник. – Т. 2007. – 81 с.

5. Воробев И.Н. Принципы общевойскового боя / И.Н.Воробев // Учебник – М. 1992. – 76 с.

6. «Противотанковая» тактика пехоты PLAM.RU. онлайн библиотека, – Дата обращения: 21.10.23 г.

7. Степанов, М.В. Военное искусство в локалных войнах и военных конфликтах:

учеб пособие / М.В. Степанов // – Т.: Издание Академии ВС РУ, 2005. - 140 с.

8. Панов, Б.В. История военного искусства / Б.В. Панов., В.Н. Киселев., И.И. Картавсев // Учебник.– М. Военное издателство, 1984 г. – 245 с.

9. Валеский, А. "Уроки Араба Тактика, стратегия и техника в Араб-Израилских войнах США" / А. Валеский., А. Гирин., В. Маркин., П. Неелов // -М.: 2015 г. – 314 с.

10. Злобин А.В., Активност оперативной обороны: теория и практика / А.В. Злобин, А.Н. Черников // Военная мысл. 1992. – №3. С 112 – 118.

11. Степанов, М.В. Военное искусство в локалных войнах и военных конфликтах / М.В.Степанов // Учеб. пособие – Ташкент: Академия ВС РУ, 2005. – 142 с

12. Хилле, П. Война в Украине – украинские военные взорвали мост с техникой РФ/ [Электронный ресурс].– Режим доступа: https: Voyna v Ukraine //from-ua.com/news/625148-na-xarkovshhine-silyspecoperacii. – Дата обращения: 15.11.2023 г.

13. Хилле, П. Жавелин, Байрактар и ГРОМ: кто и какое оружие поставляет сейчас Украине [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.dw.com/ru/javelin-bayraktar-i- postavljaet-sejchas-ukraine/a-60772879. – Дата обращения: 15.11.2023 г.

14. Бутусов, Ю. В чем ВСУ превосходят ВС РФ: 5 главных недостатков ВС РФ и 5 преимуществ ВСУ/ [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://censor.net/ru/resonance/glavnyh-nedostatkov. – Дата обращения: 30.09.23 г.

Ummatqulov F.M. Jangovar harakatlar davomida dushmanning zirhli obyektlariga qarshi kurashish tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari

Ushbu maqolada tankka qarshi mudofaa tizimini paydo bo'lishi, uni rivojlanish bosqichlari, tankka qarshi mudofaa tizimini tashkillashtirish nazariyasi va amaliyoti, jangovar harakatlar (urushlar)dagi o'rni va roli shuningdek, hozirgi kunda ushbu tizimning takomillashtirishning muhim jihatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: tankka qarshi mudofaa tizimi, jahon urushlari, qurolli mojarolar, zirhli obyekt, tankka qarshi boshqariladigan raketa, shahid, shaxidmobil, tezkor-taktik guruh, tankka qarshi bo'linma, to'siq o'rnatuvchi otryad.

Умматкулов Ф.М. Тенденции становления и развития системы борьбы с бронетанковыми объектами противника в ходе боевых действий

В данной статье описывается возникновение системы противотанковой обороны, этапы ее развития, теория и практика организации системы противотанковой обороны, ее место и роль в боевых действиях, а также важные аспекты совершенствования этой системы в настоящее время.

Ключевые слова: система противотанковая обороны, мировые войны, вооруженные конфликты, бронеобъект, противотанковая управляемая ракета, шахид, шахидмобиль, оперативно-тактическая группа, противотанковое подразделения, заградительный отряд.

Ummatqulov F.M. Trends in the formation and development of the system of combating the enemy's armored objects during combat operations

This article reflects the emergence of an anti-tank defense system, the stages of its development, the theory and practice of organizing an anti-tank defense system, its place and role in hostilities, as well as important aspects of improving this system today.

Key words: anti-tank defense system, World wars, armed conflicts, armored object, anti-tank guided missile, shahid, shahidmobile, operational-tactical group, anti-tank unit, barrage detachment.

Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor;
Elov Ashrafjon Asqarjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti yetakchi ilmiy xodimi,
harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IQLIM O'ZGARISHI VA UNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Bugungi kunda iqlim o'zgarishining iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'siri o'sib borayotganligi kuzatilib, uning natijasida yuzaga kelgan fundamental iqtisodiy zararlar nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini xavf ostiga qo'ymoqda, balki qashshoqlik va tengsizlik, ommaviy ko'chish, siyosiy nobarqarorlik va aholi o'rtasida mojarolar kelib chiqishiga hamda aholi salomatligiga jiddiy putur yetkazmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasida (COP 28) mintaqamizdagi ekologik muammolarga to'xtalib, "Iqlim muammolari barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidga aylanib ulgurdi. Bu xavf-xatarlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda ayniqsa jiddiy sezilmoqda. Mintaqamizda havo haroratining oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravar ko'pdir. Favqulodda issiq kunlar soni 2 marta ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi yo'qoldi. Tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylandi. Ichimlik suvi taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar tobora avj olmoqda. Bu global xavflar keng mintaqamizda xatarli nuqtaga yetib kelmoqda" [1], – deya ta'kidladilar.

Haqiqatdan, olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi o'n yillikda havo haroratining isib borishi sezilarli darajada oshdi. Bu esa, o'z navbatida ayrim hududlarda suv ta'minotining cheklanishi, qishloq xo'jaligi hosildorligini yo'qotilishi, qurg'oqchilik, jazirama to'lqin, toshqin, tropik siklon va o'rmon yong'inlarini sodir bo'lishiga, jamoat va fuqarolar mol-mulklariga zarar yetishiga olib keldi.

2022-yilda Jahon meteorologiya tashkiloti iqlim o'zgarishi bo'yicha kuzatilgan eng salbiy tendensiyalarni e'lon qilib, ular qatoriga: 2011-2020-yillar tarixdagi eng issiq 10 yillik bo'lganligini, dengiz sathining ko'tarilishi tezlashganligi, okean issiqligi va kislotalanish dengiz ekotizimlariga zarar yetkazayotganligi, ekstremal ob-havo barqaror rivojlanishga putur yetkazayotganligi kabi tabiat hodisalarini keltirib o'tgan.

Jumladan, issiqxona gazlari konsentratsiyasining davom etishi natijasida, 2011-2020-yillardagi o'rtacha global harorat 1850-1900-yillardagi o'rtacha ko'rsatkichdan 1,10 ± 0,12°C yuqori bo'lishiga, quruqlik va okeandagi haroratni oshishi, muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishining keskin tezlashishiga olib kelgan [2]. Bu jarayon hozirda ham davom etmoqda. Darhaqiqat, turli ilmiy doiralarda ko'p bora qayd etilayotganidek, insoniyatning bugungi kundagi sivilizatsiyasi oldida turgan eng dolzarb muammo, – global isishdir.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishlarini muntazam kuzatib borish, tabiat hodisalarini oldindan prognoz qilish, havo haroratining isishi yoki sovish sabablarini aniqlash, insonning tabiatga ta'sirini kamaytirish (yumshatish)ga oid qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Masalan, Germaniyaning Leypsig universiteti professori K.Xausteyn 2023-yil iyul oyidagi havo harorati

sanoatlashtirishdan oldingi o‘rtacha iyul oyi havo haroratiga nisbatan dunyo 1,5C (2,7F) issiqroq ekanligi aniqlagan. Havo haroratining isish darajasi o‘sib borishi har yili 1 metr muzliklarning erishi va millionlab odamlarning suv ta’minoti uchun uzoq muddatli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Antarktika kontinental muz qatlami 2001-2010 yillarga qaraganda 2011-2020-yillar davomida deyarli 75 foizga ko‘proq muzni yo‘qotgan [3].

Bu dengiz sathining kelajakda ko‘tarilishi uchun jiddiy xavotirli holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu holat quyi qismda joylashgan qirg‘oq mintaqalari va hududlarda xavflarni keltirib chiqaradi.

BMT bosh kotibi A.Guterrishning fikriga ko‘ra, “global isish davri tugadi va global qaynash davri keldi. Hali ham global haroratning 1,5C gacha ko‘tarilishini (sanoatgacha bo‘lgan darajadan yuqori) cheklash va iqlim o‘zgarishining eng yomon oqibatlaridan qochish mumkin. Ammo faqat keskin va zudlik bilan iqlim o‘zgarishini oldini olishga qaratilgan choralarni ko‘rish lozim [2].

Quyosh nurlarini ushlab turadigan va yer atrofida issiqxona kabi harakat qiladigan ifloslanish tufayli global o‘rtacha haroratning barqaror o‘sishi ob-havoning keskin yomonlashishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Shimoliy Amerika, Osiyo, Afrika va Yevropaning katta qismlari uchun bu shafqatsiz yoz va butun sayyora uchun halokatli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Ayrim olimlarning prognoziga ko‘ra so‘nggi 30 yil ichida CO^2 chiqindilari butun dunyo bo‘ylab 60 foizga oshganligi sababli, 2100-yilga kelib global isish darajasi +3C o‘sishi kutilmoqda [4].

Bugungi kunda qayta tiklanadigan energiya manbalarining yaratilishi va ularning ko‘payishi, yuk va yo‘lovchi tashishni nisbatan ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazilishi, issiqxona gazlari chiqarishni cheklash hamda boshqa ko‘rilayotgan choralar, inson tomonidan haroratning isishini sekinlashtirish uchun yetarli emas.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti bosh kotibi Petteri Taalasning fikricha, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish zarurati har qachongidan ham dolzarbdir. Iqlim bo‘yicha harakatlar hashamat emas, balki majburiydir [3].

Havo haroratining keskin isishi eng xavfli tabiiy ob-havo xavflaridan biri bo‘lib, issiq to‘lqinlar inson salomatligi bilan bog‘liq yoki iqtisodiy xavflar, jumladan, odamlar o‘limining ortishi, qurg‘oqchilik va suv sifati, o‘rmon yong‘inlari va tutun, energiya tanqisligi va qishloq xo‘jaligidagi yo‘qotishlar kabi ko‘plab xavflarni kuchaytiradi.

Masalan, 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, faqat Yevropada 60 ming nafardan ortiq odam issiqlik bilan bog‘liq stressdan vafot etgani taxmin qilingan [5].

Darhaqiqat, issiq to‘lqinlar inson salomatligi va farovonligiga, jamoat xavfsizligi va infratuzilmasiga hamda tabiiy muhitga ta’sir qiladi. Ob-havoning yuqori darajada isishi qishloq xo‘jaligining hosildorligi, mehnat unumdorligi, suvni tozalash, infratuzilmaning jiddiy shikastlanishi, yovvoyi tabiat va hayvonlar o‘limi, biologik xilma-xillikka salbiy ta’sir qiladi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida iqlim o‘zgarishi va tabiat ofatlari natijasida Markaziy Osiyo davlatlari yalpi ichki mahsulotining 5,5 foizi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida esa 1,1 foizi doimiy yo‘qolishiga olib kelmoqda. Eng yomoni, ushbu tabiat ofatlari tez-tez kuzatilmoqda [6].

Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg‘armasining iqlim o‘zgarishlariga moslashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlariga ko‘ra, iqlimga chidamlilikni yetarli darajada oshirish va 2030-yilgacha emissiyalarni qisqartirish maqsadlariga erishish uchun har yili davlatlar yalpi ichki mahsulotining 4 foizigacha sarmoya kiritishi zarur [6]. Aks holda global miqyosda issiqlik darajasini o‘sishining davom etishi, bu jarayonning oqibatlari asosan eng kam resurslarga ega bo‘lgan davlatlarga ta’sir qiladi.

Qayd etish lozimki, Xalqaro valyuta

jamg‘armasi tomonidan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doimiy ravishda stress test o‘tkazilib, so‘nggi o‘n yil ichida moliya sektorini baholash dasturlarining beshdan biri iqlim ofatlar bilan bog‘liq jismoniy xavflarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ekspertlari tomonidan oxirgi 50 yil ichida jahon YaIMning 95 foizini tashkil qiluvchi 68 ta davlatda yuz bergan 350 taga yaqin yirik iqlimiy ofatlar tahlil qilinganda, ularning moliya bozorga ta’siri kam bo‘lganligi aniqlangan. Bunda, bank aksiyalari 2 foizga pasayishi kuzatilgan bo‘lsada, 10 foiz holatlarda esa jami bozorga ta’siri 14 foizdan ortiq bo‘lganligi aniqlangan. Bu esa ba’zi iqlimiy ofatlar moliyaviy barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, 2005-yilda AQShda kuzatilgan eng katta zararga ega (AQSh YaIMning 1%) Katrina to‘foni AQSh fond bozori indeksiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi. 2011 yilgi Tailand suv toshqini, aksincha, iqtisodiyot hajmiga nisbatan eng katta zarar bilan, 40 kun ichida fond bozorini 30 foizga pasayishiga olib keldi.

2011-yilda Tailanddagi suv toshqini natijasida yetkazilgan zarar Tailand YaIMning taxminan 10 foizini tashkil etgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2018-yilda Kaliforniyadagi o‘rmon yong‘inlarining umumiy xarajatlari 350 milliard dollargacha yoki AQSh yalpi ichki mahsulotining 1,7 foizini tashkil etgan. Har yili iqlimiy ofatlar insoniyatning azoblanishiga, shuningdek, katta iqtisodiy va ekologik zararga sabab bo‘lgan. Oxirgi o‘n yil ichida bunday ofatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarari taxminan 1,3 trillion AQSh dollarni (yoki yiliga o‘rtacha jahon yalpi ichki mahsulotining 0,2 foizini) tashkil etishi taxmin qilinmoqda [7].

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishining asosiy sabablari sifatida yoqilg‘i energetikasi ko‘rsatilayotgan bo‘lsada, davlatlar hali ham qazib olinadigan yoqilg‘iga ustunlik bermoqda.

Xalqaro energetika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan “Sof nol emissiya bo‘yicha yo‘l xaritasi” talablariga ko‘ra, 2021-yildan boshlab o‘zlashtirish uchun tasdiqlangan yangi neft va gaz konlari bo‘lmasligi kerak edi. Biroq, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlar yoqilg‘i mahsulotlarini qazib olish bo‘yicha ko‘proq litsenziya berganligi aniqlangan.

Olimlarning fikriga ko‘ra, agar biz ko‘mir, neft va gaz zaxiralarini yoqishda davom etsak, Sayyoramizdagi o‘rtacha harorat bugungi kundagi 14,4 daraja Selsiy o‘rniga 26,6 darajaga etadi [8].

Iqlim o‘zgarishi global iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Yerning iqlimi isishda davom etar ekan, u turli xil iqtisodiy tarmoqlarni izdan chiqarishi va jiddiy moliyaviy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Iqlim o‘zgarishining iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining pasayishi: iqlim o‘zgarishi yog‘ingarchilikning o‘zgarishiga, ekstremal ob-havo hodisalariga va haroratning ko‘tarilishiga olib kelishi mumkin, bularning barchasi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu oziq-ovqat tanqisligiga, narxlarning o‘zgaruvchanligiga va fermerlar daromadining pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy beqarorlikka olib keladi.

2. Tabiiy ofatlarning ko‘payishi: iqlim o‘zgarishi qum bo‘ronlari, toshqinlar va o‘rmon yong‘inlari kabi tabiiy ofatlarning intensivligini oshishiga olib keladi. Ushbu hodisalar infratuzilma, uy-joylar va korxonalarga keng ko‘lamli zarar yetkazishi, katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

3. Dengiz sathining ko‘tarilishi va qirg‘oq infratuzilmasining shikastlanishi: iqlim o‘zgarishi tufayli dengiz sathining ko‘tarilishi qirg‘oq bo‘yidagi davlatlar va infratuzilmaga, shu jumladan portlar, transport tarmoqlari va ko‘chmas mulklarga tolofat yetkazilishiga olib keladi. Bu esa moddiy zarar ko‘lamining oshishi, aholining ko‘chishi va turizmdan tushadigan daromadlarni yo‘qotilishiga sharoit yaratadi.

4. Sog‘liqqa ta’siri va sog‘liqni saqlash xarajatlarining oshishi: iqlim o‘zgarishi

issiqlik bilan bog‘liq kasalliklar, havoning ifloslanishi tufayli nafas olish muammolari va havo orqali yuqadigan kasalliklarning tarqalishi kabi sog‘liqni saqlash muammolarini ko‘payishiga olib keladi. Sog‘liqqa ta’sirlar sog‘liqni saqlash xarajatlarini oshirishi va ishchi kuchining unumdorligini pasaytirishi, iqtisodiy barqarorlikka ta’sir qilishi mumkin.

5. Energiya ta’minoti va talabi muammolari: iqlim o‘zgarishi energiya ta’minoti zanjirlarining buzulishi, energiya infratuzilmasiga ta’sir qilish va issiqlik to‘lqinlari paytida sovutishga bo‘lgan talabni oshirish orqali energiya ishlab chiqarish va taqsimotga ta’sir qilishi mumkin. Bu energiya narxining keskin oshishiga va ta’minot taqchilligiga olib kelishi mumkin, bu esa korxonalar va iste’molchilarga ta’sir qiladi.

6. Migratsiya va ko‘chish: iqlim o‘zgarishi odamlarni atrof-muhitning buzilishi tufayli o‘z uylaridan ko‘chib ketishga majbur qilishi, bu esa ular tark etgan hududlarda ham, ko‘chib o‘tadigan hududlarda ham ijtimoiy va iqtisodiy buzilishlarga olib keladi.

Shu sababli ham, BMT Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasida ushbu muammolarni hal etishning ikkita asosiy yo‘nalishi belgilangan. Jumladan, atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirish hamda kuzatilayotgan va kutilayotgan iqlim o‘zgarishlariga moslashish. O‘z vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdorini bundan keyin ham ko‘payishi iqlim o‘zgarishlarining aytib bo‘lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Albatta ushbu yo‘nalishda keskin qarorlarning qabul qilinishi, jumladan arzon energiyadan voz kechilishi va toza energiyaga o‘tilishi ishlab chiqaruvchilar raqobatdoshligini keskin kamaytiradi. Shuningdek, toza energiyani ishlab chiqarish uchun katta investitsiya mablag‘larini talab etadi. Biroq ushbu choralar kelgusida davlatlar tomonidan ko‘rilishi lozim bo‘lgan majburiy choralardir.

Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi BMTning “Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida”gi Hadli Konvensiyasiga 1993-yilning 20-iyunida qo‘shilgan bo‘lib, ushbu hujjatga taalluqli atrof-muhitni muhofaza qilish, issiqxona gazlari tarqalishini kamaytirish mexanizmiga asoslangan kvotalangan savdo to‘g‘risidagi global kelishuv – Kioto protokoli 1999-yilda ratifikatsiya qilingan.

2017-yil 19-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida Parij Bitimini imzolash uchun BMT Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha doiraviy Konvensiya kotibiyatiga issiqxona gazlar tashlanmalaridagi milliy miqyosda belgilanadigan hissasini kamaytirish to‘g‘risida hujjat taqdim etildi. Mazkur bitim 2018-yili 3-oktabrda ratifikatsiya qilindi.

Mazkur konvensiyalar asosida, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” davlat dasturining 253-bandida Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining uzoq muddatli davlat siyosatini ishlab chiqish belgilangan. Mazkur band ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi, Gidrometerologiya markazi mutaxassislari hamda mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan iqlim o‘zgarishi oqibatlariga qarshi kurash strategiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevral kuni 83-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, uning 13-maqsadida “Iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo‘yicha tezkor choralarni qabul qilish” belgilangan. Biroq, qanday tezkor choralar ko‘rilishi lozimligi aniq belgilanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezi-dentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 51-maqsadi sifatida ““Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan

foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish” belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilangan, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish, 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish, ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish, shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish, iqlim o‘zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010 yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish” kabi vazifalarni keltirib o‘tish mumkin.

Fikrimizcha, ushbu chora-tadbirlar bilan bir qatorda, bugungi kunda iqlim o‘zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan quyidagi choralarni ham ko‘rish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan,

– O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishlar va tabiiy ofatlar natijasida iqtisodiyotning tarmoqlar kesimida har yil yo‘qotiladigan zarar miqdorlarini monitoring qilib borish hamda baholash. Mazkur baholashlar natijasida ularga qarshi kurashish yoki oqibatlarini yumshatishga qaratilgan choralarni ko‘rish;

– O‘zbekiston sharoitida iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash yoki uning ta’sirini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– aholi va tadbirkorlik subyektlarini iqlim o‘zgarishi sharoitlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishini rag‘batlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ishlab chiqarish va aholi turmush tarzida energiya tejovchi texnologiyalar, maishiy buyumlar va texnikalarga o‘tish;

– bosqichma-bosqich ekologik toza energiya ishlab chiqarish, ya’ni shamol generatori, quyosh panellari va boshqa shu kabi loyihalarga investitsiyalar kiritish va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilganda havo haroratining keskin isishi inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan issiqxona gazlari emissiyasi bilan bevosita bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi nazoratdan chiqib ketishini oldini olish uchun avvalo sayyoramiz uchun eng muhim va ustuvor vazifa sifatida issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish lozim. Katta ekstremal ob-havo hodisalari butun dunyo bo‘ylab vayronagarchilikka sabab bo‘lmoqda, ayniqsa bu eng kam javobgar bo‘lgan qashshoq mamlakatlarda sodir bo‘lmoqda. Iqlim o‘zgarishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta’sirini hal qilish iqlimga chidamli infratuzilmaga sarmoya kiritish, barqaror energiya manbalariga o‘tish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish siyosatini amalga oshirish va iqlimga moslashish strategiyasini ilgari surish kabi faol choralarni talab qiladi. Iqlim o‘zgarishini yumshatish bo‘yicha choralar ko‘rish orqali hukumat va korxonalar hozirgi va kelajak avlodlar uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasidagi (SOP28) nutqi. 01.12.2023 yil. // https://president.uz/

2. Rate and impact of climate change surges dramatically in 2011-2020 // https://wmo.int/news/media-centre/

3. “Era of global boiling has arrived” says UN chief as July set to be hottest month on record // https://www-theguardian-com

4. Climate change - Averting catastrophe // https://www.youtube.com.

5. Heatwave // https://wmo.int/topics/heatwave
6. Jihad Azour, Hasan Dudu, Ling Zhu. How the Middle East and Central Asia Can Better Address Climate Challenges // https://www.imf.org/en/Blogs/
7. F.Suntheim, J.Vandenbussche. Equity Investors Must Pay More Attention to Climate Change Physical Risk //https://www.imf.org/en/Blogs
8. http://www.cawater-info.net/library/rus/clim-ch-2022-6.pdf

Nurmatov M.M., Elov A.A. Iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri

Maqolada dunyoda iqlim o'zgarishlarining o'ziga xos xususiyatlari, iqlim o'zgarishi natijasida aholi hayot turmush tarzida yuzaga kelayotgan salbiy tendensiyalar hamda ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri bayon etildi.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, tabiat hodisalari, isish, ekologik muammo, hosildorlik, ob-havo, muzlik, suv, issiqxona gazlari, yoqilg'i energiyasi, yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy zarar.

Нурматов М.М., Элов А.А. Изменение климата и его воздействие на экономическую безопасность

В статье описаны особенности изменения климата в мире, негативные тенденции в образе жизни населения в результате изменения климата и их влияние на экономическую безопасность.

Ключевые слова: изменение климата, природные явления, жара, экологическая проблема, производительность, погода, лед, вода, парниковые газы, топливная энергия, валовой внутренний продукт, экономический ущерб.

Nurmatov M.M., Elov A.A. Climate change and its impact on economic security

The article describes the features of climate change in the world, negative trends in the lifestyle of the population as a result of climate change and their impact on economic security.

Key words: climate change, natural phenomena, heat, environmental problem, productivity, weather, ice, water, greenhouse gases, fuel energy, gross domestic product, economic damage.

Yusupova Dildora Dilshatovna,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ISLOM SIYOSIYLASHUVINING TARIXIY XUSUSIYATLARI

Kirish va dolzarbligi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan mafkuraviy ta'limotlarning bugungi kunda ham diniy-siyosiy ruhdagi guruhlar tomonidan qo'llanilishi ushbu hududlarda beqarorliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, tarixiy ildizlar asosida yetib kelgan, bugungi kunda zamonaviy qiyofa kasb etayotgan ideologik ta'limotlar avvalgi tahdidlar ko'lamidan kengroq va xavfliroq vaziyatlarni keltirib chiqarayotganligini o'tgan asr falsafasini anglash orqali ilmiy dalillar asosida ochib berish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy dunyoda dinning tobora kuchayib borishi, mamlakatlar rivojlanishida eng qiyin jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, islom dinidan siyosiy maqsadlar yo'lida niqob sifatida foydalanish sof islom va radikal islom o'rtasidagi ziddiyatlarni paydo qilib bormoqda. Islomning siyosiylashuvi jarayoni davlatlarning rivojlanishiga tahdid solayotgan omillardan ekanligi esa, ushbu mavzuni o'rganish naqadar muhim ekanligini ko'rsatmoqa.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Mavzuni yoritishda tarixiylik, mantiqiylik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Shuningdek, islomning siyosiylashuvi, "islomizm" mafkurasi xususida tadqiqot olib borgan S.Bekbosinova, B.Aktaulova, S.Sapanova, M.Murtazin, A.Malashenko, Xasan Djabbari, A.Petruxina va A.Ignatenko kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari. XX asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida zamonaviy davrning muammolarini hal etish yo'llarini faqat islomga murojaat qilish orqaligina yechish mumkin deb, ba'zi reaksion ruhdagi shaxslar tomonidan diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tashkil etila boshlagan edi. Natijada, Yaqin Sharq mamlakatlarida islom siyosiy tus ola boshladi.

Islomning siyosiylashuvi haqida fikr bildirishdan avval, "islom" va "islomizm" tushunchalarini ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Islomning siyosiylashuvi "islomizm" jarayonida ko'rinadi. Islomda siyosiy omil mavjud bo'lsa-da, biroq uni qay yo'singa yo'naltirilganligi uni ijobiy yoki salbiy hodisaga aylanishiga olib keladi.

"Islomizm" tushunchasi ijtimoiy va siyosiy xarakter kasb etadi. Rossiyalik siyosatchi olima Bekbosinova Sandugash Sansizbayevnaning fikricha, islomizmga aniq ta'rif berish qiyin, faqat bu hodisani tasvirlash mumkin. Islomizm quyidagi xususiyatlarga ega hisoblanadi:

Birinchidan, islomizm asl islomiy qadriyatlarni tiklashni talab qiladi;

Ikkinchidan, u dunyoviy va diniy tamoyillarning birligiga qat'iy e'tiborni qaratishni nazarda tutsa-da, biroq dunyoviylikka hech qanday ishora ham qilmaydi;

Uchinchidan, o'z tarafdorlari nuqtai nazaridan, jamiyat tuzilishining, ya'ni davlatning shariat qonunlariga asoslangan ideal variantini taklif qiladi;

To'rtinchidan, islomizmda turli fobiyalarga, boshqa noislomiy qadriyatlardan foydalanishni cheklashga va ularni rad etishga asosiy e'tibor qaratiladi [1, 19].

Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, islomizm islomning yo'q bo'lib ketgan qadriyatlarini tiklashga harakat qiladi. Biroq, ana shu niqob ostida boshqa dinlarga toqatsizlikni ham targ'ib qiladi. Darhaqiqat, "islomizm"ning birinchi xususiyatida uning islomiylashtirish, musulmonlarni birlashtirish g'oyasi birlamchi harakat bo'lib ko'rinadi. Biroq, keyingi xususiyatlarida

sekulyar davlatlarning sakral davlatga aylantirish lozimligi, dunyoviy davlatni tan olmaslik, hatto g'ayriddinlarni huquqlarini cheklash kerakligini ilgari surilishi namoyon bo'ladi.

Olima Bekbosinova Sandugashning fikricha "islomizm" salbiy tushuncha hisoblanadi va u barcha din vakillariga nisbatan toqatsizlikni, dunyoviy davlatlarning boshqaruv tizimiga shubhani, shuningdek, din niqobi ostidagi ekstremistik guruhlarning paydo bo'lishiga zamin yaratib beradi. Darhaqiqat, Bekbosinova Sandugash ta'kidlaganidek, "islomizm" tushunchasini birgina fikr bilan izohlash mushkul hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrdan kelib chiqib aytish kerakki, "islom" va "islomizm" bir biriga qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Chunki, "islom" "islomizm"dan farqli o'laroq, islomning asl mohiyatini tushuntirib beruvchi, musulmonlarni faqat yaxshilikka undovchi din hisoblanadi. "Islomizm" esa, aksincha islom dinini niqob qilgan holda undan turli maqsadlarda, foydalanish omilidir. Umuman olganda, bizning fikrimizcha "islomizm" - islom dinini siyosiylashuvini paydo qiluvchi sof islomiy qadriyatlarga putur yetkazuvchi radikal siyosiy harakat demakdir.

Dinni siyosiylashishi masalasi xususida gap ketganda, avvalo, olimlarning fikrlari ikkiga bo'linadi. Ayniqsa, islom dinini siyosiylashishi masalasida. Ayrim olimlar islom siyosiylashgan din desa, ba'zilari islom siyosiylashmagan, aksincha siyosat islomlashmoqda deydi. Islom dinining siyosiylashuvi masalasiga oydinlik kiritish uchun, siyosat va din o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar haqida to'xtalib o'tish lozim. Keling, ular orasidagi farqlarni aniqlash uchun "siyosiylashtirish" so'zining ma'nosiga to'xtalib o'taylik.

Siyosiylashtirish - yunoncha "politika" — boshqaruv san'ati degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, u quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ayrim ijtimoiy guruhlar va shaxslarning siyosatdagi ishtirokiga qiziqishning ortishi.

2. Boshqa barcha sohalarga nisbatan davlatning ahamiyatini kuchaytirish.

3. Siyosatning kuchli ta'siri shaxslar va guruhlarning ongi, xulq-atvori hamda ularning hayot faoliyatlaridagi barcha sohalarda o'zgarishlarga sabab bo'lishi [2].

Siyosatshunoslar siyosat va din o'rtasidagi o'zaro ta'sirning to'rtta asosiy omilini aniqlaydilar:

1. Siyosat ham, din ham mafkuraviy tizimdir.

2. Ularning umumiy ta'sir obyekti - omma.

3. Din arboblari siyosatchilar orqali o'z manfaatlarini ifodalaydi, siyosiy arboblar esa o'z faoliyatini amalga oshirish uchun diniy me'yorlar, dogma va tashkilotlarga murojaat qiladilar.

4. Dindagi o'zgarishlar, masalan, yangi diniy tashkilotlar va oqimlarning paydo bo'lishi siyosatda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin[3, 4].

Bugun modernizatsiya va globallashuv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan, ba'zi mamlakatlarning boshqaruv tizimida o'zgarishlarni paydo qilayotgan hamda ijtimoiy-siyosiy muammolarning keskinlashuviga sabab bo'layotgan omillardan biri din va siyosat o'rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Avvalgi hukmron mafkuralar o'rnini "islomizm" kabi mafkuralarning egallashi o'z navbatida dinning siyosiylashuviga hamda sakral davlat ko'rinishidagi shiorlar bilan niqoblangan guruhlarning ko'payib borishiga olib kelmoqda. Xususan, o'tgan asrda ba'zi mustamlaka mamlakatlar hayotidan uzib qo'yilgan din omilining qaytadan tiklanishi, ya'ni dunyoviy ratsionalizm o'rnini vaqti kelib diniy irratsionalizm egallashga urinishi dinning siyosiylashuvini paydo qilmoqda.

"Siyosiy islom" atamasi yoki uning ekvivalenti bo'lgan "islomizm" tushunchasi 1979 yilgi Eron inqilobidan keyin keng tarqaldi va zamonaviy siyosiy nutqning eng faol tarkibiy qismlaridan biriga aylandi [4, 191-192].

"Islomizm" xususida, rus olimi Aleksey Malashenko ham "Islomning muqobili va islom loyihasi" [5] nomi asarida mo'tadil

islomdan to radikallashgan islomgacha bo'lgan jarayonlarni tahlil qilib berar ekan, u islomizmni - ham siyosiy harakat, ham ommaviy ongning tarkibiy qismi, ham mafkura deya ta'kidlaydi. Demak, islomizm konsepsiyasi o'z ichiga uchta tarkibiy qismni qamrab oladi. Bular: siyosiy harakat, diniy harakat va mafkuraviy harakatlardir.

XIX-asrgacha islom jamiyatlarida keng tarqalgan an'anaviy islom siyosiy hayotni emas, birinchi navbatda kundalik hayotni tartibga solgan. Islomning siyosiylashuviga turli omillar – G'arb bilan kuchayib borayotgan doktrinal qarama-qarshiliklar ham, rivojlanmagan jamiyat muammolari ham, islom mamlakatlarida mustamlakachilik jarayonlari va diktatura tuzumlarining shakllanishi ham yordam berdi [6, 193].

"Islomizm" atamasi XX asrning so'nggi yillarida aholisi asosan musulmon bo'lgan o'lkalarda islomni yoyish va aholini islomlashtirish yo'lidagi siyosiy harakat sifatida maydonga chiqqan bo'lsa, aslida esa, bu atama XIX asrning oxirlarida musulmonlarni uyg'onishi tarafdorlari bo'lgan islohotchilar, ya'ni Misrda Muhammad Abdo (1849-1905), Afg'onistonda Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897), Hindistonda esa, Muhammad Iqbol (1876-1938)lar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya sifatida paydo bo'lgan. Islomizm konsepsiyasi zamonga va siyosiy maqsadlarga qarab o'zgarib borishi, uning turli davrlarda turlicha ko'rinish kasb etganligini ko'rsatadi. Chunki, bugun islomizm yangicha ko'rinishda dindan siyosiy maqsadlar yo'lida foydalanayotgan ekstremistik va terroristik guruhlar uchun juda maqbul harakat sifatida namoyon bo'lmoqda. XIX asr so'ngida esa, islomizm butun musulmonlarni birlashtiruvchi va jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal qiluvchi yagona mafkura sifatida maydonga chiqqan edi.

Islomizm mafkura va amaliyot sifatida ma'lum bir musulmon jamiyatining o'ziga xos, ijtimoiy-madaniy, siyosiy va boshqa voqeliklari bilan bevosita bog'liqdir. Dunyoda islomiylik amaliyoti uch to'lqinga bo'lingan.

Birinchi to'lqin panislomizm deb ataladigan shaklda namoyon bo'ladi (19-asr o'rtalari). ...Islomizmning ikkinchi to'lqini ikkinchi jahon urushidan keyin musulmon milliy hukumatlarining G'arb yo'nalishi bo'yicha modernizatsiya qilishga urinishi bilan bog'liq edi. ...Islomizmning uchinchi to'lqini global xarakterdagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy inqiroz oqibati sifatida "neoliberal globallashuv" bilan bevosita bog'liqdir [7, 105-106].

Rossiyalik islomshunos va sharqshunos olim Aleksandr Ignatenkoning fikricha: "Hozirgi vaqtda islomizm deganda musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda ijtimoiy va davlat tuzilmasini islom aqidalariga muvofiqlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan siyosiy harakatlar nazariyasi va amaliyoti tushuniladi" [8, 67].

Yuqoridagi mualliflarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, "islomizm" - islomni siyosiylashuvini paydo qiluvchi mafkura vazifasini o'taydi. Zero, o'tgan asrda "islomizm" mafkurasidan siyosatni islomlashtirish uchun foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda esa, aksincha, undan islomni siyosiylashtirish uchun foydalanilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda,

Birinchidan, "islomizm" islomiy qadriyat va diniy me'yorlardan tobora uzoqlashib boradigan va siyosiy harakat bilan bog'lanadigan konsepsiya hisoblanadi.

Ikkinchidan, dunyoviy davlatlarda din va siyosat o'rtasidagi oltin o'rtalikning buzilishi dindan siyosiy maqsadlarda foydalanuvchi ekstremistik va terroristik guruhlarning paydo bo'lishiga zamin yaratib berishi mumkin.

Uchinchidan, "islomizm" islom diniga bo'lgan e'tiqodni paydo qiluvchi ta'limot emas, balki siyosiy maqsadni ko'zlashga qaratiladigan harakatdir.

To'rtinchidan, "Islomizm" konsepsiyasidan siyosiy harakat sifatida ham, mafkura sifatida ham foydalanish mumkin.

Beshinchidan, "islomizm" atamasi nafaqat salbiy, balki ijobiy maqsadda "islomlashtirish" kabi tushunchaning ekvivalenti sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Oltinchidan, "islomizm"da ham nazari-

ya, ham amaliyot mavjud.

Yettinchidan, tarixda ham bugungi kunda ham islomizm mafkurasidan "siyosatni islomlashtirish" yoki "islomni siyosiylashtirish" maqsadida foydalanilganligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бекбосынова С.С. Исламский фактор и терроризм в современном мире. Политологический анализ. Автореферат диссертации На соискание ученой степени кандидата политических наук. – Москва: 2007.
2. Толковый словарь Кузнецова. Мир словарей. http://mirslovarei.com
3. Актаулова Б., Сапанова С. О политизации ислама в Центральной Азии: сущность, причины, последствия. Вестник КазНУ. Серия востоковедения. №1 (58). 2012.
4. Муртазин М.Ф. Ислам и исламизм: пример трансформации религиозности в политику // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. Т. 11. № 4. 2018. DOI: 10.23932/2542-0240-2018-11-4-190-205
5. Малашенко А.В. Исламская альтернатива и исламский проект. - М.: Весь мир, 2006. - 220 с.
6. Хасан Джаббари Насир. Политический ислам, терроризм и безопасность на Ближнем Востоке. Вестник МГИМО-Университета. 2017. 5(56).
7. Петрухина А.А. Теория и практика исламизма. Вестник РУДН, серия Политология, 2011, № 2.
8. Игнатенко А.А. Ислам и политика. — М.: Ин-т религии и политики, 2004.

Yusupova D.D. Islom siyosiylashuvining tarixiy xususiyatlari

Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yaqin Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan mafkuraviy ta'limotlardan biri bo'lgan "islomizm" bugungi kunga kelib yangicha qiyofada dinning siyosiylashuviga sabab bo'lganligi, uning diniy-siyosiy ruhdagi guruhlar tomonidan qurol sifatida qo'llanilishi, "islom" va "islomizm"ning bir-biridan farqli jihatlari, "islomizm"ning qay maqsadga yo'naltirilganligi, undan o'tgan asrda va bugungi kunda foydalanishning asl maqsad va sabablari diniy-falsafiy jihatdan tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Yaqin Sharq, islom, islomizm, siyosat, din, ekstremizm, terrorizm.

Юсупова Д.Д. Исторические аспекты политизации ислама

В данной статье рассматривается, «исламизм» как одно из идеологических доктрин, появившихся в странах Ближнего Востока в конце XIX – начале XX века, который вызвал политизацию религии в новой форме, его использование в качестве оружия религиозно-политическими группировками, анализируются разные аспекты «ислама» и «исламизма» а также, предназначение «исламизма» его первоначальная цель и причины его применения в прошлом и сегодня, религиозно-философские подходы.

Ключевые слова: Ближний Восток, ислам, исламизм, политика, религия, экстремизм, терроризм.

Yusupova D.D. Historical aspects of the politication of islam

This article examines "Islamism" as one of the ideological doctrines that appeared in the countries of the Middle East in the late 19th – early 20th centuries, which caused the politicization of religion in a new form, its use as a weapon by religious and political groups, and analyzes various aspects of "Islam" " and "Islamism" as well as the purpose of "Islamism", its original purpose and the reasons for its application in the past and today, religious and philosophical approaches.

Key words: Middle East, Islam, Islamism, politics, religion, extremism, terrorism.

Ravshanov Suhrobbek G'ayrat o'g'li,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti;
Boboqulov Zafarbek Rustamovich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti
Xalqaro hamkorlik guruhi bosh inspektori

TURK MADANIY DIPLOMATIYASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Kirish: Tadqiqot avvalo Turkiya diplomatik muammolarni turizm orqali hal qilish va unga maqbul yechimlar taklif qilish masalasiga e'tibor qaratadi. Darvinning tabiiy tanlanish nazariyasiga asoslanib har bir inson ozmi ko'pmi isyon qiladi va agarda tabiatda kuchli omon qolsa. Agarda tabiatda kuchsizlar omon qolsa kuchsizlar uchun bu hayot adolatli emas deb aytib qolishadi. Bu isyonkor so'zga asoslanib odamlar uning o'rnini bosadigan kuchni qidira boshladi. Xalqaro munosabatlarda har doim eng kuchli davlatlar yutib chiqadimi? Davlatlarning harbiy qudratiga qarshi turoladigan biror bir kuch yo'qmi? Degan savolga albatta bor, bu "yumshoq kuch" deb aytiladi. Kurashlar tugagan davrdan beri "yumshoq kuch" konsepsiyasi eng muhim kuch vositasi bo'lib turibdi va xalqaro munosabatlarni shakllantirib kelyapti. Bugungacha Turkiya bu kuchdan qanday foydalandi bu maqolada ana shu savollarga javoblar keltiriladi. Yumshoq kuch umumiy tushuncha davlatlar "yumshoq kuch"ning turli vositalaridan foydalanadi. Shulardan biri eng samaralisi turizmdir. Turkiya va Gretsiya o'rtasidagi muammolar ular tashkil etilgandan beri mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

"Kuch" so'zi ancha eski tushuncha bo'lib unga Webir tomonidan ijtimoiy munosabatlarda biror-bir aktdir o'zining shaxsiy xohishini qarshilikka qaramasdan amalga oshirolishiga aytiladi. Yumshoq kuch atamasini esa ancha yangi tushuncha bo'lib birinchi marta Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan 1990-yilda ishlatilgan. Yumshoq kuch atamasidan foydalanayotganda Amerika maktabi namoyondalari ularning o'zlarining boy va sermahsul tajribasi va boy qadriyatlaridan foyda olishga e'tibor qaratgan. Uning tajribasi va bilimi yordamida kuch konsepsiyasiga turli xil yondoshuvlar asosida tarif bergan. Uning fikricha kuch bu o'zi xohlagan narsaga boshqalarning munosabatini o'zgartira olish qobiliyatidir deb aytib o'tgan. Kuch (harbiy kuch) dan foydalanish, qarz (iqtisodiy kuch), o'ziga jalb qila olishlik (yumshoq kuch)[1]. Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak "yumshoq kuch" siyosati boshqa davlatlarning siyosatiga va xulq atvoriga bilvosita ta'sir qiladigan davlatlarning salohiyati sifatida ta'riflanadi[2]. XXI asarda "yumshoq kuch" xalqaro arenada jamoat fikrini oshiradigan, xalqaro huquqiy asoslar, xalqaro tashkilotlarning ahamiyati kuchayganligi tufayli qattiq kuchning o'rnini egalladi. Davlatlar boshqa davlatlar bilan munosabatlarda zo'ravonlik kuchlaridan foydalanishi tahdid sifatida tushuniladigan bo'ldi. Biror bir davlat "yumshoq kuch" orqali o'z raqiblarini hech bir zo'ravonliksiz kuch ishlatmasdan boshqara oladigan bo'ldi [3]. Shu bilan birgalikda hozirgi kunda ham turizm, madaniy diplomatiya, "yumshoq kuch"ning ta'sir etuvchi vositalarini va imkoniyatlarini tadqiq etgan olimlar ham mavjud. Bular sirasiga bir qancha xorij va turk olimlarini kiritish mumkin. Z.Akbaş, H.Tuna, Altunışık, M. B, Bunakov , O. A. , Eidelman , B. M., Fakhrutdinova , L. R. & Gabdrakhmanov, N. K, Dayıoğlu, A., & Aslım, İ. Hadjidimos, K. Harrison, A.J. Hatipoğlu, M. M. Kirişçi, K Kirk, John M., Erisman, H. Michael, Nye, J. S. Torres, D. Torres, D. kabi olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganildi.

Muhokama va natijalar

Dunyoda Amerika Qo'shma Shtatlari "yumshoq kuch" da eng samarali foydalangan davlatlardan biridir. 2019 yilda ikkinchi eng katta diplomatik tarmoqqa ega bo'lgan davlatga aylandi. U o'z uyidan millionlab butun dunyodan oqib kelgan talabalarga joy berdi. Shuningdek Amerika kinolari, shoulari,

musiqasi, reklama va e'lonlari, modasi, ovqatlari, iqtisodiy modellari, siyosiy madaniyati va adabiyoti boshqa davlatlarnikiga o'rnak bo'ladigan darajaga chiqdi[4]. Yumshoq kuchga kelsak undan samarali foydalangan Sovet Ittifoqi birinchi davlat bo'lmasa ham haqiqatda birinchilardan bo'lib bu kuchning mavjudligi ma'lum bo'lgan va o'zining qoidalariga ko'ra o'yin o'ynagan. Har bir inqilob uzoqroq yashashi uchun ko'proq kengayishiga harakat qilgan. Kommunistik inqilob, Humayniy inqilobi va Xitoydagi madaniy inqilob keng ommaga ta'sir o'tkazish uchun targ'ibot tashviqotdan foydalangan. Biroq Sovet Ittifoqi Yevropaning katta qismini Gitler zulmidan ozod qilgan davlatlardan biri hisoblanadi. Keyinchalik ikkinchi jahon urushidan keyin erishgan xayrixohlikni "yumshoq kuch" ga burib yuborishga harakat qilgan. Ya'ni xalq diplomatiyasidan foydalanib kapitalistik g'arbni tanqid qilish va o'z madaniyatini yoyish uchun yoshlar tashkilotlari, tinchlik harakatlari, yadroviy urushga qarshilik harakatlarini moliyalashtirib qo'llab quvvatlangan[5]. Demokratiya qaror topmagan davlatlar qurollanishga pul tikishdi biroq butunlay "yumshoq kuch"dan voz kecholmasdi. Masalan Misrning sobiq rahbari Jamol Abdul Nosir o'qituvchilarni tayyorlab butun dunyo bo'ylab antisemitik va antikolonial g'oyalarini yoyish uchun turli mamlakatlarga yuborildi [6].

Hozirgi kunda Xitoy ham butun dunyo bo'ylab ochilgan Konfutsiy maktablariga tayyorlangan o'qituvchilar orqali Xitoyga bo'lgan xayrixohlikni oshirish va o'z madaniyatini yoyishga harakat qilmoqda [7]. Kubadagi Fidel Kastro ham madaniy diplomatiyaning asoslarini qo'yib beradigan ko'plab doktorlarni chet elga yuborgan [8].

Turkiya 1923-yilda mustaqillikka erishgandan keyin yangi davlat mustaqillik va suverenitetlikni ta'minlaydigan xavfsizlikka asoslangan strategiyasini tanladi. Bu siyosatning zarur sharti sifatida qattiq kuchdan foydalandi. Shu tufayli qattiq kuch va qattiq xavfsizlikka asoslangan tashqi siyosat yo'lga qo'yildi[9]. Albatta bunga ba'zi bir mustasnolar bor edi masalan sovuq urush davrida Turkiya tomonidan erkin viza tizimini joriy qilinishi "yumshoq kuch" dan foydalanish sifatida baholandi. Bu esa mamlakatlar o'rtasidagi odamlarning erkin harakatlanishini yo'lga qo'yish imkoniyati edi[10]. Ba'zi mustasnolar bilan bu siyosat 2000-yillarning boshigacha Adolat va taraqqiyot partiyasi hokimiyat tepasiga kelguncha davom etdi. 2000-yildan keyin Turkiya tashqi siyosatining nigohi "yumshoq kuch"ga qaratildi. Bu siyosatning asosiy jihatlari qo'shnilar bilan muammolar bo'lmasligi va strategik teran yondashuvlarga ega bo'lgan na'munaviy bo'lishdan iborat[9]. 2000 yilning boshlarida Turkiyada iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar uning jozibasini yana ham oshirdi. Bunga qiziqish ayniqsa Yaqin Sharqda ancha kuchli edi. Tashqi siyosatda Arablarni qarashlarini yoqlashi uning bu hududda mashhur qildi. 2013 yilda Iroqni intervensiya qilish to'g'risidagi qarori o'zini oqlamadi. Bundan tashqari mintaqadagi logistik baza bo'lish taklifini rad etilishi diqqat e'tiborini Turkiyaga qaratilishiga sabab bo'ldi. 2008 – 2009 yillarda Isroilning G'azo sektoriga tajovuzlarini qoraladi va Falastin rahbarlari bilan uchrashuvlar Arablar tomonidan bu davlatga bo'lgan hurmatni yanada oshishiga olib keldi.

Iroqdagi siyosati ko'plab qiyinchiliklarga duch keldi Livandagi vositachilik faoliyatlari Hamas ma'murlari bilan uchrashuvlar Eron bilan muzokaralar G'arb ittifoqchilarining bunga munosabati ayniqsa Arab bahori natijasidagi ichki tartibsizlik, Liviya va Suriyadagi oppozitsion kuchlarni qo'llab quvvatlashi Turkiyaga nisbatan bu davlatlar aholisini qiziqishini tushirib yubordi[11]. Turkiya "yumshoq kuch"ga ega bo'lgan yigirma to'qqizinchi davlat hisoblanadi. 2018-yilda iqtisodiy muammolardan keyin Turkiya tiklash jarayoniga kirdi. Suriyaga bo'lgan siyosatiga nisbatan xalqaro e'tirozlar oshib bordi. Kuchning markazlashuvi Turkiyani yo'lini yopib qo'ydi. Biroq salbiy o'zgarishlar turizm va talabalarning chetdan kelishiga ta'sir o'tkazmadi. Turistlarning sonining oshishi ayniqsa Yevropada Turkiyani culture sub indexda top 30 talikka qayta kirishga imkon berdi. Rivojlangan iqtisodiy sharoitlar,

nazorat ostida turgan pulning qadrsizlanishi va milliy valyutaning barqarorlashishi chet el investorlari uchun Turkiyaning jozibasini oshirib berdi. Bunda Turkiyaning ulkan madaniy salohiyatidan juda ham o'rinli foydalanildi[12].Yumshoq kuchni belgilovchi yana bir ko'rsatkich global miqyosida davlatlarning asosiy ma'lumotlarini o'rganib chiqish natijasida chiqarilgan raqamlarga borib taqaladi. Aql markazlari davlatlarni 7 ta turli va asosiy kategoriyalar (fan va texnologiya, madaniyat, xalqaro tinchlik va xavfsizlik, jahon tartiboti, yer sayyorasi va iqlimi, rivojlanishi va tengligi, sog'likni saqlash va farovonlik) bo'yicha baholab chiqdi. Unga ko'ra Turkiyani baholab o'tilgan 169 ta mamlakat orasidan 53 o'rinni egalladi. Bu juda ham yaxshi natija degani emas[13]. Good Counteriy yaxshi mamlakat indeksi tomonidan qilingan baholashda xalqaro tinchlik va xavfsizlikka qo'shgan hissasi bo'yicha eng yomon o'rinda turibdi. Ya'ni 169 mamlakatdan 124-o'rinni egalladi. Dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi bo'yicha 81 o'rinni band qildi. Ikki sababga ko'ra Turkiya ancha pastga tushib ketdi. Ular vizasiz va matbuot erkinligisiz kirib keladigan mamlakat fuqarolari soni bo'yicha. Turk fuqarolari 74 ta mamlakatga vizasiz kira oladi, 50 ta mamlakat esa Turklardan chegara darvozalarida viza talab qiladi. 74 ta mamlakat Turklarni o'z hududiga kiritish uchun viza so'raladi. Turkiya eng kuchli passport rejimiga ega bo'lgan mamlakatlarning ro'yxatida 37 o'rinni egallagan.

Turizm qishloq xo'jaligidan tortib sanoat, qurilish va reklama sohalarini o'z ichiga oladigan iqtisodiyotni barcha jabhalarida sezilarli darada o'sishga olib keladigan sektor hisoblanadi. Uning faqat iqtisodiy tomonlarini ko'rish maqsadga muvofiq emas[12]. Turizm sanoatini rivojlantirish nafaqat turistlar oqimini oshiradi balki investitsiya kirib kelishiga ham imkon beradi. Milliy daromad oshib turistlarning ko'z oldida mamlakatning ijobiy imidji yaratiladi[14]. Aslida turizm kuchli ta'sirga ega bo'lgan sektor hisoblanib mamlakatning tashqi siyosat vazifalarini bajarishda inkor etib bo'lmaydi. Turizm diplomatiyasi diplomatiyaning kichik bir tarmog'i sifatida ko'riladi. Turli davlatlardan turistlarni kelishi tarixiy joylarga boribgina qolmasdan bu mamlakatning madaniyatini o'rganishga va turli xil madaniy tadbirlarga qatnashishga harakat qiladi. Bu turizm diplomatiyasini ahamiyatini oshiradi. Misol uchun Xitoy unga tashrif buyurayotgan turistlarning yurtiga o'z fuqarolarini yuboradi. Boshqa tomondan bu mamlakatlarning turistlari Tayvan va Mikavu hududlariga borib uning fuqarosi bo'lganlarni jazolaydi. Rossiya va Eronda ham shunga o'xshash amaliyotlar mavjud[12]. Turizm sohasi Ikkinchi jahon urushidan keyin keskin darajada o'sdi va jahon iqtisodiyotiga katta foyda keltirdi. Butun dunyodan kelayotgan turistlarning soni 50 yillarda 25 million, 2015 yilda esa 1 mlrd 260 millionga yetdi. Turizm daromadi esa 50 yillarda 2 mlrd dollar bo'lgan bo'lsa 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 1 trillion 260 million dollarni tashkil qildi. Bu jahon eksport daromadining 7% ga teng[15]. 2021 yilning o'zida Turkiyaga taxminan 30 million turist keldi. Ular mamlakatga chet el valyutasi hisobida 28,5 mlrd dollar qoldirib ketishdi. Turizmning iqtisodiy foydasidan tashqari Turkiyaga har yili 30 million chet el fuqarosining kelishi bu mamlakatning "yumshoq kuch" siyosatida katta o'sish bo'lganini ko'rsatadi. Turkiya tarixiy va madaniy aloqador bo'lgan mintaqalarga asosiy e'tibor qaratdi. Turistlar sonidagi keskin o'sish asosan sobiq Usmoniylar Imperiyasi mustamlakasi bo'lgan yoki unga yaqin bo'lgan Yaqin Sharq, Bolqon davlatlari, Markaziy Osiyo va Afrikadagi ko'plab musulmon mamlakatlarning aholisiga to'g'ri keladi. 13 yil davomida Gruziyadan ichki turistlarning soni 15 baravarga oshdi. Yevropa va Amerikadan kelgan turistlarning sonida o'zgarish bo'lmadi[16]. Turkiya ko'zlagan "yumshoq kuch" siyosatini anglash uchun turli xil turizm vositalaridan foydalanib ko'rdi. Uning vakillik tarmog'i kengayib yangi 65 ta diplomatik messiyalari ochildi. 2022 yilda Turkiya eng kuchli diplomatik tarmoqqa(142 elchixona, 91 ta konsullik, 11 ta vaqtinchalik messiya guruhi va yana ikkita vakillik tashkiloti) ega bo'lgan mamlakatga aylandi[17].

Mamlakatning o‘ziga tortuvchi ko‘rsatkichlaridan yana biri bu mamlakatda istiqomat qilayotgan chet el talabalaridir. Bu bevosita “yumshoq kuch “ ta’sirini oshiradi. Bu davrga kelib Turkiyada ta’lim olayotgan talabalarning soni 300 foizga o‘sdi. Film va televideniye sanoati tufayli mamlakatning madaniy qadriyatlari ko‘rsatib berish u ham bir “yumshoq kuch “ strategiyasidir. AQSh uzoq vaqtdan beri bu strategiyadan foydalanib kelyapti. Uning katta ulushi Gollivud kinolari hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu davlat raqibiga qarshi ko‘zga ko‘rinarli ustunlikni yarata oldi. Dunyoning katta qismida Turk xayrixohligiga erishdi. 2014 yilga kelib Turk seriallari dunyoning 75 mamlakatida namoyish etildi. Bu Turkiyaning imidjiga ijobiy hissa qo‘shdi. Turk havo yo‘llarining ahamiyatiga keladigan bo‘lsak turistlar va ular keladigan mamlakatlar o‘rtasida yaqin aloqani yo‘lga qo‘yishda eng muhim omil hisoblanadi. Havo yo‘llari butun dunyoga mamlakatni nufuzi va sifatini e’tirofini namoyon qiladi. Turk havo yo‘llari mamlakatning eng ilg‘or ko‘zga ko‘ringan yuzi hisoblanadi Bu kompaniya 2000 yillarning boshlarida 55 ta mamlakatga parvozlar amalga oshirgan bo‘lsa hozirgi vaqtda ularning soni 108 taga yetdi. Kompaniya o‘choqlari Turkiya tashqi siyosati qaratilgan Afrika, Yaqin Sharq va Osiyo mintaqasi davlatlarga ko‘plab parvozlarni amalga oshiradi. Hozirgi davrda mamlakatning “yumshoq kuch” siyosatining ajralmas qismi bo‘lgan rasmiy rivojlanish yordam dasturini ham Turkiya tashqi siyosatida ko‘rish mumkin. Bu yordamlar Turkiyaga madaniy, geografik, tarixiy, diniy jihatdan yaqin bo‘lgan davlatlarga beriladi. Aynan shu yordamlar tufayli Turkiya va aloqalar o‘rnatgan davlatlar o‘rtasida uzilmas rishtalar shakllanadi[16]. Turkiyaning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a’zoligi boshqa davlatlar bilan yaxshi aloqalarni yo‘lga qo‘yib “yumshoq kuch”ni yaratishga zamin hozirlaydi. Turkiya a’zo bo‘lgan eng muhim tashkilotlar sirasiga Yevropa konsulligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, BMT, Interpol, Yevropol, Islom hamkorlik tashkiloti Turkiy davlatlar tashkilotini kiritish mumkin. Turkiya a’zo bo‘lgan eng muhim xalqaro iqtisodiy tashkilotlar sirasiga esa Jahon savdo tashkiloti, G – 20, D – 8, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti Xalqaro valyuta fondi kabi tashkilotlarni misol qilib kiritish mumkin. Harbiy sohada esa NATOni, sport bo‘yicha FIFA va UEFA, maxsus tashkilotlaridan Yevropa Patentlashtirish ofisi va xalqaro dengiz tashkiloti Turkiyaning aloqa tarmog‘ini kuchaytirishga katta hissa qo‘shdi[18]. Yevropadagi mamlakat chegaralarida Turk hukumati tomonidan joriy qilingan boshqaruv modeli jiddiy tanqidlarga uchradi. Bu boshqaruv modeli uning “yumshoq kuch siyosatini zaiflashuviga olib kelishi mumkin agar Turkiya “yumshoq kuch” ni saqlab qolishni xohlasa u o‘zining boy madaniy merosi, tabiiy go‘zalligi va qulay geografik joylashuvidan samarali foydalanishi kerak.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish joizki “yumshoq kuchni” siyosiy amaliyotga kiritgan Garvard universiteti professori Jozef Nay boshqa davlatlarga ta’sir o‘tkazishning yangicha yo‘lini ko‘rsatib berdi. Jozef Naygacha bo‘lgan davrda ham “yumshoq kuchdan foydalanilgan biroq ma’lum bir shaklga solinmagan. Davlatlar tashkil etilgandan buyon doimiy bir biri bilan o‘zaro kurash va konfliktda bo‘lib kelgan biri boshqasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazish yoki kuch ishlatish yo‘li orqali boshqarishga harakat qildi. Bunda har doim ustun bo‘lgan tomon g‘alaba qozongan. Charlz Darvinning Tabiiy tanlanish nazariyasidan kelib chiqib kuchlilar g‘alaba qozonadigan bo‘lsa kuchsizlarda ustunlikka ega emasligi hayotning adolatsizligi emas. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib harbiy kuch salohiyatiga ega bo‘lmagan davlatlar “yumshoq kuch” orqali erishishlari mumkin. Yumshoq kuch tarkibiga madaniy diplomatiyani ya’ni turizm, chet el talabalarini o‘qitish rivojlanish dasturi bo‘yicha yordam ko‘rsatish radio va televideniye orqali turli xil ko‘ngil ochar dasturlar, shoular, kino va seriallar orqali o‘zining ichki nafosati, go‘zalligi, madaniy qadriyatlari, tarixiy merosini yangi zamonaviy moda, milliy taomlari va tili orqali tashqi olamga ko‘rsatib berish tushuniladi. Bu amaliyotdan endigina foydalanishda

yo'lga qo'ygan Turkiya katta yutuqlarga erishdi. Dastlab mustaqillikka erishganda qattiq kuchga asoslangan edi. Oradan qariyb 70 yil o'tgach Adolat va taraqqiyot partiyasi rahbarlari Turkiyaning ichki potensialidan foydalanib xalqaro arenada o'z o'rniga ega bo'lishga va o'z qudratiga erishishga imkoniyat borligini tushunib yetishdi. Tashqi siyosat strategiyasini bevosita "yumshoq kuch" ga moslashtirdi. Shu o'rinda turizm sohasiga alohida e'tibor qaratdi uni rivojlantirish uchun budjetining katta qismini shu sohaga yo'naltirdi. Buning natijasi o'laroq Turkiyaga kelgan turistlarning soni 30 millionga yetdi. Turkiyaga madaniy, diniy qardosh bo'lgan yoki tarixda Usmoniylar Imperiyasining mustamlakasi bo'lgan hududlar bilan turizm diplomatiyasini rivojlantirishga harakat qildi. Bu munosabatlarni rivojlantirishda Turkiyaning yuzi hisoblangan xizmati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nye, J. S. (1990) Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. N.Y.: Basic Books
2. Dowding, K. (2012). Why should we care about the definition of power? Journal of Political Power, 5, 119–135.
3. Akbaş, Z., & Tuna, H. (2012). The Effect of Soft Power on Tourism as a Foreign Policy Tool: An Evaluation Through Turkey Example. Finans Politik & Ekonomik Yorumlar, 49(571), 5-17.
4. Wikipedia (2023) Soft Power. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Soft_power#cite_note - 30 on 08 April 2023
5. Babiracki, Patryk (2015). Soviet Soft Power in Poland: Culture and The Making of Stalin's New Empire, 1943-1957. Chapel Hill: The University of North Carolina Press. ISBN 9781469623085. OCLC 911173017
6. Tsourapas, Gerasimos (2018). "Authoritarian emigration states: Soft power and cross-border mobility in the Middle East" (PDF). International Political Science Review. 39 (3): 400–416. doi:10.1177/0192512118759902. S2CID 158085638
7. Torres, D. (2017). China's soft power offensive. Politico. Retrieved from https://www.politico.eu/article/china-softpower-offensive-confucius-institute-education/ on 08 April 2023 Torres, D. (2017). China's soft power offensive. Politico. Retrieved from https://www.politico.eu/article/china-softpower-offensive-confucius-institute-education/ on 08 April 2023
8. Kirk, John M., Erisman, H. Michael (2009). Cuban Medical Internationalism : Origins, Evolution, and Goals (1st ed.). New York: Palgrave Macmillan. ISBN 978-1403983725. OCLC 248348330
9. Ekşi, M. (2018). "Türk Dış Politikasının Ultimo Ratiosu: Yumuşak Güçten Sert Güce Turkiye'nin Suriye Politikası", Journal of the Black Sea Studies, XV/60: 71-99.
10. Kirişçi, K. (2005). "A Friendlier Schengen Visa System as a Tool of Soft Power: The Experience of Turkey Soft Power," European Journal of Migration and Law, no.7 pp.355-356
11. Altunışık, M. B. (2011). Challenges to Turkey's soft power in the Middle East. TESEV Policy Brief, 1,1-4.
12. Turkish-Asian Center for Strategic Studies, (2020). Tourism Diplomacy: Development of Sectoral Diplomacy. Retrieved from https://tasam.org/Files/Etkinlik/File/VizyonBelgesi/SGPK_TURD_Turizm_EN_pdf_5b53be2d-5b10-4421-bce5-731c4711689b.pdf on 08 April 2023
13. Good Country (2022). The Good Country Index. Retrieved from https://index.goodcountry.org/ on 08 April 2023
14. Bunakov , O. A. , Eidelman , B. M., Fakhrutdinova , L. R. & Gabdrakhmanov, N. K. (2017). Tourism as a Method of "Soft Power" in Modern Diplomacy on the Example of the Russian Federation. Helix Vol. 8(1): 2174-2177. DOI 10.29042/2018-2174-2177
15. UNWTO (2016). Tourism Highlights. 2016 Edition. Retrieved from:https://www.eunwto.org/doi/pdf/10.18111/9789284418145 on 08 April 2023
16. Şen, O. (2019). Targeted soft power in Turkish new foreign policy and its impact on origins of inbound tourists. Journal of Tourism Theory and Research Online, http://dergipark.gov.tr/jttr 5(1), 65-74. DOI: https://dx.doi.org/10.24288/jttr.532357
17. Lowy Institute Global Diplomacy Index. (2021). Retrieved from https://globaldiplomacyindex.lowyinstitute.org/country_rank.html on 08April 2023
18. Ministry of Foreign Affairs (2023). International Organizations. Retrieved from https://www.mfa.gov.tr/sub.en.mfa?7cafe2ef-78bd-4d88-b326-3916451364f3 on 08 April 2023

Ravshanov S.G‘., Boboqulov Z.R. Turk madaniy diplomatiyasining o‘ziga xos jihatlari

90-yillarda “yumshoq kuch” atamasi siyosiy adabiyotlarga kirib keldi. Hozirgi kunda ham barcha rivojlangan mamlakatlarga ta’sir o‘tkazish uchun muhim vosita bo‘lib turibdi. Turkiya bu vositadan 2000 yillarning boshidan foydalanishni boshladi biroq hali ham kutilgan darajagacha yetib borgani yo‘q biroq turizmni bu o‘rinda foydalanish mumkin. Turizm Turkiya uchun eng muhim daromad manbai hisoblanadi. Ko‘plab rivojlangan davlatlar xususan Gretsiya bilan turizmga qaratilgan hamkorlik bu mamlakatni barcha diplomatik muammolarini yechishga yordam beradi. Tadqiqotning maqsadi diplomatik munosabatlarda Turkiya turizmni “yumshoq kuch” vositasida foydalanishning imkoni mavjudligi yoki yo‘qligini o‘rganib chiqadi. Bu maqolaga siyosatchilar tomonidan yoritilgan muhim turli maqolalar va statistikalarni tarjima qilgan holda yozildi.

Kalit so‘zlar: “yumshoq kuch”, turizm, Adolat va Taraqqiyot partiyasi, xalq diplomatiyasi, Turk havo yo‘llari, xavfsizlik, televideniye, vositachilik, Sovuq urush, Sovet Ittifoqi, xorijlik talabalar o‘qitish.

Равшанов С.F., Бобокулов З.Р. Особенности турецкой культурной дипломатии

В 90-е годы в политическую литературу вошел термин «мягкая сила». Уже сейчас это важный инструмент влияния на все развитые страны. Турция начала использовать этот инструмент в начале 2000-х годов, но он еще не достиг ожидаемого уровня, но туризм в этом месте можно использовать. Туризм является важнейшим источником дохода Турции. Туристическое сотрудничество со многими развитыми странами, особенно с Грецией, помогает этой стране решить все дипломатические проблемы. Цель исследования – изучить, может ли Турция использовать туризм как средство «мягкой силы» в дипломатических отношениях. Эта статья была написана путем перевода важных различных статей и статистических данных, освещаемых политиками.

Ключевые слова: мягкая сила, туризм, Партия справедливости и развития, общественная дипломатия, Turkish Airlines, безопасность, телевидение, посредничество, холодная война, Советский Союз, обучение иностранных студентов.

Ravshanov S.G‘., Boboqulov Z.R. Features of turkish cultural diplomacy

In the 1990s, the term “soft power” entered the political literature. Already now it is an important instrument of influence on all developed countries. Turkey started using this tool in the early 2000s, but it has not yet reached the expected level, but tourism in this place can be used. Tourism is Turkey's most important source of income. Tourism cooperation with many developed countries, especially with Greece, helps this country to solve all diplomatic problems. The purpose of the study is to explore whether Turkey can use tourism as a means of "soft power" in diplomatic relations. This article has been written by translating various important articles and statistics covered by politicians.

Key words: soft power, tourism, Justice and Development Party, public diplomacy, Turkish Airlines, security, television, mediation, Cold War, Soviet Union, teaching foreign students.